

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

A.N. ARIPOV, G'.R. ABDULLAYEV, O.N. IMOMOV

**HAYOT FAOLIYATI
XA VFSIZLIGI**

(uslubiy qo'llanma)

Namangan – 2016

Taqrizchilar: **S. Mirzayev - Namangan davlat universiteti**
Hayot faoliyati xavfsizligi
kafedrasi dotsenti

Z.Hamraliyev - Namangan qurilish va ijtimoiy
iqtisodiyot kasb hunar kolleji,
Hayot faoliyati xavsizligi fani
o'qituvchisi

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi o'quv uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2015 yil 7 yanvardagi yig'ilishida Hayot faoliyati xavfsizligi fanidan o'rta maxsus kasb hunar ta'limi uchun tasdiqlangan o'quv dasturi asosida taylorlandi. O'quv dasturida keltirilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlardagi mavzular qamrab olingan.

Qo'llanmadan akademik litsey va kasb – hunar kollejlari o'qituvchilar, o'quvchilar, ishlab chiqarish ustalari va barcha Hayot faoliyati xavfsizligi faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Namangan davlat universiteti o'quv – uslubiy kengashining 2016-yil 11-maydagi 8-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

Xavfsizlik, barqarorlik va tanlagan yo'ldan og'ishmaslik degan ana shu oddiy so'zlar zamirida chuqur ma'no – mazmun bor. Biz buni bilib olmog'imiz va anglab yetmog'imiz zarur.¹

Islom Karimov

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida inson hayotiga xavf soluvchi omillar ham ko'payib bormoqda. Bunday xavflardan himoyalanish va oldini olish uchun fuqarolar yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari zarur. Respublikamiz hukumati bunga alohida e'tibor bermoqta, xususan o'rta – maxsus ta'lim tizimida Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qitilmoqda.

Fuqarolar hayoti va sog'lig'ini inson faoliyatining barcha sohalarida muhofazalashda "Hayot faoliyati xavfsizligi" (HFX) fani asosiy o'rnlardan birini egallaydi.

Ushbu fan tarixi, rivoji va istiqboli hamda Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari, ishlab chiqarish va hududiy xavfsizlik muammolarining inson hayoti xavfsizligiga ta'siri masalalarini qamraydi. Zero hozirgi vaziyatda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki texnosferalarda ishlab chiqarish jarayoni buzilishi, ishlovchilar uchun sanitariya va gigiyena me'yor va qoidalarini yaratilmasligi, muhit rivojlanishdagi noxush vaziyatlarning murakkablashuvi, davlatlar o'rtasida insoniyat hayotiga xavf-xatar soluvchi holatlarning ro'y berishi, insoniyat tomonidan qo'llanilayotgan turli zaharli va zararli moddalar, vositalar ko'plab xavflarni yuzaga keltirib, insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog'lig'iga, atrof-muhit tozaligiga va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Shu sababli ham mamlakatimizning eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari qatorida aholi hayotining xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarb o'rinni olgan. Aynan shu muammolarning yechimini "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani o'rganadi.

Ushbu fanni o'qitishdan maqsad bo'lajak mutaxassislarga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnogen, ekologik va boshqa tusdag'i favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalanishga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rganishdan iborat.

O'quv fanini o'rganishning asosiy vazifalari: hayotiy faoliyatda yuzaga keladigan xavflarni identifikasiyalash va ularni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqiyot kafolatlari. T. 1997.

kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarni oldini oladigan chora-tadbirlarni o'rganish. Shuningdek, aholini tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalanish usullariga o'rgatish, zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

1. Hayot faoliyati xavfsizligi haqida tushuncha

Ta’lim jarayonining barcha sohalarida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta’lim to’g’risidagi qonunlar asosida ta’lim sohasida katta yutuqlarga erishilmoqda. Ta’lim mazmuni tubdan ijobiy o’zgarishga yuz tutmoqda. Barcha ta’lim tizimida eng zamonaviy o’qitish vositalaridan foydalanilmoqda. Ishlab chiqarish eng qudratli, zamonaviy ishlab chiqarish vositalari bilan qurollantirilmoqda. Ijtimoiy hayot tarzi faollashmoqda. Mamlakatda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta’lim to’g’risida»gi qonun ta’lim tizimi mazmunini tubdan o’zgartirib yubordi. Jumladan o’rta maxsus ta’lim o’quv rejalariga zamon va hayot talablaridan kelib chiqib katta o’zgartirishlar kiritildi.

Endilikda tayyorlanayotgan yosh mutaxassislarga har bir sohada chuqur va keng qamrovli ma’lumot berish, ularga berilgan bilim ishlab chiqarishda va jamiyatda o’z aksini va dolzarbligini yo’qotmaydigan bo’lishiga va ularning bilim darajalari dunyo ta’lim standartlari qo’yan talabga javob berishiga asosiy ahamiyat qaratilmoqda.

Zamonaviy hayotdagagi ishlab chiqarish samaradorligini yetuk kadrlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Har sohada inson omili, uning qadr-qimmati birinchi o’ringa qo’yilib ish tashkil etilgan joyda yutuqlar barqaror bo’lishi shubhasiz.

Inson tug’ilishi bilan yashash, erkinlik va baxtga intilish huquqiga ega bo’ladi. Inson o’zining yashash, dam olish, sog’ligi haqida qayg’urish, qulay atrof-muhit, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoitida ishlashga bo’lgan huquqlarini hayot faoliyati jarayonida amalga oshiradi. Uning bu huquqlari O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan.

Hayot faoliyat – bu insonning kunlik faoliyati, dam olishi va yashash tarzidir.

Inson hayoti jarayonida uni o’rab turgan atrof muhit bilan uzlusiz aloqada bo’ladi va shu bilan birga har doim uni o’rab turgan muhitga bog’liq bo’lib kelgan va shunday qolaveradi. Inson shuning uchun ham o’zini o’rab turgan atrof-muhit hisobiga oziq-ovqat, havo, suv, dam olish uchun zarur moddiy narsalar va boshqalarga bo’lgan ehtiyojini qanoatlantiradi.

Atrof-muhit – bu insonni o’rab turgan muhit bo’lib, insonning hayot faoliyatiga, uning sog’ligi va nasliga to’g’ridan to’g’ri, birdan urinma yoki masofadan ta’sir etishga qobiliyatli omillarning (jismoniy, ximiyaviy, biologik, informatsion, ijtimoiy) shartli yig’indisidir.

Inson va atrof-muhit uzlusiz o’zaro ta’sirda bo’lib, doimiy harakatdagi «Inson – atrof muhit» sistemasini tashkil etadi. Dunyoning evolyutsion jarayonida bu sistemani tashkil etuvchilar uzlusiz o’zgarib bordi. Inson mukammallahdi, yer sharining aholisi va uning oqimi o’sdi, jamiyatning ijtimoiy asosi o’zgardi. Atrof-muhit o’zgardi: inson o’zlashtirgan yer yuzi va yer osti hududi kattalashdi; tabiiy tabiat muhiti insoniyat jamiyatining o’sib borayotgan ta’sirini boshdan

kechirmoqda, inson tomonidan sun'iy yaratilgan maishiy, shahar va ishlab chiqarish muhiti paydo bo'ldi.

Tabiiy muhit o'zi mukammal bo'lib, inson ishtirokisiz mustaqil mavjud bo'la oladi va rivojiana oladi. Inson tomonidan yaratilgan boshqa barcha borliq muhiti mustaqil rivojiana olmaydi va ular paydo bo'lidan so'ng eskirishga va yemirilishga mahkum narsalardir.

Insoniyat o'zining dastlabki rivojlanish bosqichida tabiiy atrof-muhit bilan o'zaro uyg'un harakat qilgan. Atrof-muhit asosan biosfera, yer osti, galaktika va cheksiz koinotdan tashkil to'gan.

Biosfera - *barcha turdag'i organizmlar, jumladan inson yashashi mumkin bo'lgan atrof-muhit bo'lib, u murakkab tuzilishdagi yer sharining muhim qobig'idir.* Biosfera bir necha milliard yillar davomida shakllangan.

Zamonaviy olimlar biosferani moddalarni planeta bo'yicha harakatini ta'minlovchi yirik, global ekosistema sifatida qarashadi. Hozirgi erada hayot yer qatlaming yuqori (litosfera) qismida, yerning pastki havo (atmosfera) qobig'ida va yer sharining suvli qobig'i (gidrosfera) da tarqalgan. Bu shu bilan izohlanadiki, litosferada yerosti suvlari va tog' cho'kmalarida chuqurlikni sekin-asta ortib borishi bilan harorat ham ortib 2 km dan 16 km chuqurlikda 100 °S va undan yuqori (vulqonik faollik zonasida esa 200 dan 1500 °S cha)ni tashkil etadi. Yerning yuzasida hayotning kontsentratsiyasi va faolligi eng yuqoridir.

Inson evolyutsiyasi jarayonida o'zini oziq-ovqat, moddiy boylikka bo'lgan ehtiyojlarini samaraliroq qondirish, iqlim va ob-havo ta'siridan himoyalananish, o'ziga qulaylikni oshirishga intilib tabiiy muhitga, birinchi o'rinda biosferaga to'xtovsiz ta'sirini o'tkazdi. Bu maqsadga y etish uchun u biosferani bir qismini texnosfera band etgan joyga aylantirdi.

Texnosfera - *o'tmishda biosferaga taalluqli bo'lgan keyinchalik insonlar tomonidan moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini yanada yaxshilash maqsadida to'g'ridan-to'g'ri yoki sirtdan texnik vositalar bilan ta'sir etgan hududdir.*

Texnosfera insonlar tomonidan texnik vositalar yordamida yaratilgan shaharlar, qo'rg'onlar, qishloq aholi punktlari, sanoat va korxonalar zonasi band etgan hududlar hisoblanadi.

Inson hayot faoliyati jarayonida nafaqat tabiiy muhit bilan balki, ijtimoiy muhit deb ataluvchi odamlar ommasi bilan ham uzlusiz aloqada bo'ladi. Insonni ijtimoiy muhit bilan aloqasi tug'ilishni davom ettirishda, bilim va tajribalar almashishda, ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda, intellektual qobiliyatlarni oshirishda foydalaniladi va shakllanadi.



1 – rasm. Texnosfera ko’rinishlari

Zamonaviy industrial jamiyatda inson atrof-muhit komponentlari (biosfera, texnosfera va ijtimoiy muhit) bilan o’zaro ta’sirda bo’ladi. Ya’ni, inson tabiiy atrof-muhitga uzlucksiz ta’sir etsa, o’z navbatida biosfera va insonning ehtiyojlaridan kelib chiqib uning uzlucksiz jismoniy va aqliy faoliyatining mahsuli bo’lgan texnosfera va ijtimoiy muhit ham insonga to’g’ridan to’g’ri yoki sirtdan doimiy ta’sir etadi. Yuqorida qayd etilganlar asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. *Zamonaviy inson uni o’rab turgan atrof-muhitning tashkil etuvchilari ya’ni, tabiiy, texnogen (texnosfera) va ijtimoiy muhit bilan uzlucksiz o’zaro ta’sirda bo’ladi;*
2. *XIX asr oxiridan boshlab XX asr davomida va hozirgi davrda ham texnosfera va ijtimoiy muhit uzlucksiz rivojlanmoqda, bunga ushbu sohada inson faoliyati orqali o’zlashtirilgan ulushlarni oshib borayotganligi isbotdir;*
3. *Texnosferani rivojlanishi tabiiy muhitni o’zgartirish hisobiga amalga oshmoqda.*

Zamonaviy hayotda insonlarning ijtimoiy mavqelarini yuksalishi bilan birga ularning tinchligiga, sog’ligiga va mehnati xavfsizligiga xavf soladigan omillar soni ham ortib bormoqda. Ma’lum sharoitda ularni insonlarning ruhiy holatiga, sog’ligiga salbiy ta’sirini ko’rsatishi hammaga ma’lum. Shu sababli insonlarni nafaqat ularning aqliy yoki jismoniy mehnat faoliyati davomida balki, yashash joyida, yo’lda va barcha holatlarda xavfsizligini, yaxshi kayfiyatini, mehnat qobiliyati va ish unumдорligini taminlash, sog’ligi haqida qayg’urish masalalarini ijobiy hal etish juda dolzarb masalalardan biridir.

Qayd qilingan masalalarni ijobiy hal etishda hayot faoliyati xavfsizligi fanining o’rni, uning nazariy ma’lumotlari bilan bo’lajak mutaxassislarni qurollantirish, muammolarni ijtimoiy hayotda mumkin qadar ijobiy hal etilishiga yordam beradi.

2. Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi va vazifalari

Hayot faoliyati xavfsizligi (HFX) — ishlab chiqarish va noishlab chiqarish muhitida insonni atrof muhitga ta'sirini hisobga olgan holda xavfsizligini taminlashga yo'naltirilgan bilimlar sistemasidir.

“*Hayot faoliyati xavfsizligi*” fanining umumiy maqsadi—xavfsiz kelajakni ta'minlashning birdan-bir yo'li bu iqtisodiy masalalarni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan chambarchas bog'langan holda olib borishdir. Buning asosida rivojlanishning hamma jarayonlarini tekis o'sib borishini ta'minlash, umumbashariy tabiiy zahiralarni tejash, texnologiyalarni xavfsizlarini tanlash, tashqi muhit bilan xavfsiz muloqot qilishni ta'minlaydigan yetuk kadrlarni tayyorlash masalalari yotadi. Bunda e'tiborni hamma jabhalarda bu ishlarga alohida ahamiyat beruvchi rahbar xodimlarni tayyorlash masalasiga ahamiyat berish zarurati ko'rindi.

Bu fan inson faoliyatining ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyati bilan chegaralanmasdan, uning yashash muhiti, har xil bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy va tasodifiy ofatlardan saqlanish, tabiat va odamzot uyg'unligini yaxshi tushinish, tabiatga mulohaza bilan, uning muvozanat zanjirini uzilib ketishidan ehtiyyot qilgan holda yondoshish masalalarini inson ongiga singdirish vazifasini bajaradi.

“*Hayot faoliyati xavfsizligi*” fani hayotga kirib kelganiga uncha ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Hozirgi vaqtida bu fan o'z taraqqiyotining boshlang'ich bosqichida turibdi. Uni rivojlantirish va takomillashtirish zamon talabi. Albatta, u o'z rivojlanish davrida mehnatni muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish va favqulodda hodisalardan muhofazalanish, shuningdek, amaliy tibbiyot, biologiya sohalarida erishilgan ilmiy yutuqlardan to'la foydalanadi, qonun va qoidalarga asoslanadi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi (HFX) fanining diqqat markaziga qo'yilgan asosiy masala bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi roldir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati (mehnat jarayonida, dam olishda, uyda hamda s'ortda) uning faoliyatini tashkil qiladi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi fani o'z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi shuningdek yong'in xavfsizligi bo'limlarini qamrab olgandir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi prinsip va usullar asosida: baxtsiz hodisalar, qurbanlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo'yadigan va hal qiladigan fandir. HFX-bu har qanday ko'rinishdagi faoliyatga qo'llanishi mumkin bo'lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

“*Hayotiy faoliyat xavfsizligi*” fani bo'lg'usi mutaxassislarni mehnat muhofazasining ilmiy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularda ishlab chiqarishdagi mehnat sharoiti hamda mehnat muhofazasini yaxshilash muammolarini ijobjiy hal etishga qiziqish uyg'otishga mo'ljalangan. Buning ilmiy zamini esa quyidagilardan iboratdir: ishlab chiqarishda shikastlanish, kasalliklar, ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan yong'in hamda portlashlar sabablarini har tomonlama tahlil qilish; ishlab chiqarishdagi xavflilik va zararlilik darajasini

o'rganish; to'qimachilik, paxta, ipak va yengil sanoatda qabul qilingan yoki joriy etishga tavsiya etiladigan, og'ir hamda sermehnat ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni ko'zda tutuvchi texnologik jarayonlarni baholashdir.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi ikki masalani echish lozim bo'ladi:

1. *Ilmiy (inson-mashina sistemasini; atrof muhit-inson, xavfli (zararli) ishlab chiqarish omillari va boshqalarni matematik modellashtirish);*
2. *Amaliy (uskunalarga xizmat ko'rsatishda mehnat xavfsizligini taminlash).*

3. HFX kursining qisqacha mazmuni

Vatanimiz milliy davlatchiligi va iqtisodiy mustaqilligi, qudratli intellektual salohiyatining yuksak bo'lishida siyosiy, huquqiy, ma'naviy va ma'rifiy yo'naliishlarda olib borilayotgan keng qamrovli tadbirlar majmuasida, aholi va hududlarni turli vaziyatlardan muhofaza qilish, inson xavfsizligi va salomatligini saqlash alohida o'rinni tutadi, shuning uchun ham bu soha milliy davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biri hisoblanadi. prezidentimiz I.A.Karimov mazkur masalaning dolzarbligiga alohida e'tibor berib, Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillardanoq «Siyosatimizning asl mohiyati aholi xavfsizligini ta'minlash, ularni turli xil ofatlar va favqulodda vaziyatlardan himoya qilishdir» deb alohida ta'kidlab kelmoqdalar. Jamiyat va tabiat asosi, uni o'z faoliyati bilan rivojlanтирувчи va boshqaruvchisi inson ekanligini e'tiborga olib, uning hayot faoliyatini yaxshilash, e'zozlash – taraqqiyot yo'lidagi muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan fuqarolarimizning hayot sharoitini yaxshilash, ularni turli ta'sirlardan saqlash, har qanday holatda ham ehtiyyot etib, muhofaza etish asosiy ezgu maqsad qilib olingan.

Hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasi o'z ichiga insonning jamiyatda ishlab chiqarishda, yashashida, faoliyat olib borishida muhitning xavfsiz bo'lishi, tabiiy va texnogen xususiyatli vaziyatlardan saqlanishi, urush va terrorizm xurujidan himoyalanishi, tabiat va odamzot uyg'unligini saqlashi, umuman olganda, insonning shu zamindagi hayotining xavfsizligini ta'minlash tushuniladi. Ona sayoramizda ilk qadamlarni qo'ygan va tafakkur imkoniyati darajasiga ko'tarilgan uzoq ajdodlarimiz yashash joylarida o'zlariga xavf solib turgan yirtqichlardan ham xavfli ofatlar bo'lishini tezda tushinib yetishgan. Chunki, o'sha davrlarda ham zilzilalar, vulqonlar, to'fonlar, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlar insonlarning ojiz va siyrak qabilalariga sezilarli zarar yetkazib turgan.

Insoniyat XXI asrga qadam qo'yari ekan, o'tgan davr mobaynidagi sovuq urushlar, tinchlik davrlarida qo'llanilgan zamонавиy qurollar, turli ko'rinishdagi falokatlar va boshqa muammolarni tahlil qiladi va yangi asr bo'sag'asida bajariladigan tadbirlarni har tomonlama asoslagan holda belgilab oladi.

XX asr poyonida xafsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib qoldi, chunki ishlab chiqarishni yuqori taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlashi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof-muhit tozaligi va iqtisodni barqaror

rivojlanishiga xavf solib turibdi. Shuning uchun eng muhim vazifalar O’zbekiston aholisi hayot faoliyatini va hududini turli xil vaziyatlardan muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni, ayniqsa fuqaro mehnatini muhofazasini ta’minlash hisoblanadi.

Respublikamiz prezidenti I.Karimov “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida “Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiyligi muammosiga aylanganligini ehtiroy etganlar. «O’zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida prezidentimiz vatanimizning yaxlitligi, aholi xavfsizligi tahdidi to’g’risida batafsil to’xtab o’tganlar.

Oldingi asrda ikki qarama-qarshi siyosiy qarashlarning bir-biriga faol qarshiligi vaqtlarida butun aholi qatlami faqat zamonaviy qirg’in qurollari va hujumkor vositalardan himoyalanish ruhida tarbiyalangan bo’lsa, hozirgi vaqtida fuqaro muhofazasi yangi ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat asosida shakllanmoqda, mamlakatimizni va aholini turli falokatlar va halokatlardan saqlash ularning mehnatini, yashashini muhofaza etish ruhida tarbiyalashga yo’naltirilmoqda. Shuning uchun fuqarolarni turli bo’ladigan ta’sirlardan saqlash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblansa, xuddi shunday bizning o’lkamiz tabiiy ofatlar (yer silkinishi, yer surilishi, sel, suv toshqini va h.k.) bo’lishiga moyil o’lka bo’lganligidan hamda texnogen avariylar va ekologik muvozanatni buzilishi natijasida uning oqibatlaridan, fuqarolar mehnat muhofazasini, xalq xo’jaligi tarmoqlarini, moddiy resurslarni, texnikalarni va tabiatni asrash, zarar ko’rgan hududlarda qutqarish – tiklash ishlarini olib borish ham juda muhim vazifalaridan hisoblanadi. Yuqoridaq vazifalarni hal qilishda O’zbekiston mintaqasi uchun xos bo’lgan tabiiy ofatlarni, ishlab chiqarish avariylarini va yuzaga keladigan ekologik vaziyatlarni fuqaro hayot faoliyatidagi mehnat xavfsizligini chuqur tahlil etish natijasidagina har qanday vaziyatlardagi moddiy, ma’naviy yo’qotishlar ko’lamini qisqartirishga erishish mumkin.

Inson va tabiat jamiyat o’rtasidagi munosabatda ham, inson tabiatning qonunlari va undan kelib chiqadigan ko’pgina hodisalarning oldida jamiyatlarning o’rtasida yoki boshqa sabablardan kelib chiqadigan vaziyatlarda hozirda inson ojizlik qilishi mumkin. Tabiat hodisalaridan biri bo’lgan, so’nggi yillardagi yer yuzining global isishi bilan bog’liq bo’lgan iqlim o’zgarishi natijasida dunyoning qator mintaqalarida tabiiy ofatlarni ro’y berishda o’sish kuzatilmoqda. Masalan, Yevropadagi bulturgi yog’ingarchilik ko’p bo’lishi natijasida mintaqada joylashgan ko’pgina mamlakatlarda, Rossianing janubiy qismlarida, Xitoy Xalq Respublikasida kuchli suv toshqinlari bo’lib o’tdi. Bu minglab kishilarining uyjoylariga katta moddiy zarar yetkazish bilan birga, aholi hayot muvozanatining buzilishiga olib keldi. Eng ayanchlisi ofatlar oqibatida yuzlab kishilar qurban bo’ldi. Ilk shaharlar yuzaga kelganidan so’ng seysmik faol hududlarida yashovchi aholi vaqt-vaqt bilan zilzilalardan katta talofat ko’ra boshladi. O’tmishtga nazar tashlaydigan bo’lsak, eng ayanchli fofja 2001 yilning yoz oylarida yuz bergen. Yaqin Sharq va O’rta yer dengizi sharqiy hududlarida ketma-ket sodir bo’lgan zilzilalar oqibatida milliondan ortiq insonlar qurban bo’lgan. 2011 yil 11 mart kuni Yaponiyada sodir bo’lgan zilzila natijasida Tokio, Sinday kabi yirik shaharlari va

mamlakatning sharqiy qirg'oqlaridagi ko'plab aholi punktlari kuchli yer silkinishi va tsunamidan katta talofat ko'rishdi. Bundan tashqari tsunami natijasida Fukushima AESida portlash yuzaga kelib, mamlakatda radiatsiya tarqalish bilan bog'liq favqulodda vaziyat yuzaga keldi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda mamlakatimizni hududida ham kuchli yer silkinishlari sodir bo'lgan. Jumladan: 838-839 yillarda Farg'onada, 942 yilda Buxoroda, 1208-1209 yillarda Urganchda, 1490 yilda Samarqandda, 1494 yilda Namanganda, 1620 yilda Axsikentda, 1821-1822 yillarda Buxoro va Samarqand yaqinida talofatli zilzilalar bo'lib o'tgan. Ularning ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz. Axsikent zilzilasi – 1620 yilda Namanganda 5-15 km janubiy-g'arbida sodir bo'lgan kuchli zilzila. U qadimiy shahar Axsikentni to'la vayronaga aylantirgan. Shahar keyin tiklanmagan. Hozirda ayrim arxeologik qoldiqlar saqlangan, xolos.

Andijon zilzilasi. Andijonda 1902 yili sodir bo'lgan 9-10 ballik zilzila xalqimiz boshiga tushgan eng qora kunlar va ayanchli voqealarga sabab bo'ldi. Zilzila tufayli o'sha paytdagi shahardan nishona qolmadidi. Ming-minglab odamlarning yostig'ini quritdi.

Toshkent zilzilasi. Ko'pchilik yurtdoshlarimizning yodida qolgan yer qimirlashi – 1966 yilning 26 aprelida ro'y bergan Toshkent zilzilasıdir. Bu zilzila Respublikamiz uchun, millatimiz uchun nihoyatda ayanchli tarixiy voqeа hisoblanadi. Ming-minglab odamlar boshpanasiz qoldi.

Favqulloda vaziyatlar hodisalaridan yana biri, bu yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan texnik vositalarning avariya holatlariga tushishi va unda kishilarni bevaqt hayotdan ko'z yumishlari odamzodni tashvishga solmasdan qo'ymaydi. Masalan, Nigeriya, Rossiya, Eeron, Germaniya, Ukraina, Keniya va boshqa mamlakatlarda sodir bo'lgan aviahalokatlar minglab insonlar hayotiga zomin bo'ldi. Shulardan, 25 mayda Tayvan poytaxti aeroportidan Gonkonga uchgan bortida 225 kishi bo'lgan «Boing- 747» samolyotining halokatga uchrashi, yoki 27 iyul kuni Ukrainianing Lvov shahri chekkasida o'tkazilgan aviashou vaqtida «Su-27» qiruvchi harbiy samolyotning va unda 69 kishining jarohat olishi hamda 76 kishini qurban berilishi inson qalbini larzaga solmasdan kuymaydi. Albatta, bunday misollarni dunyo bo'yicha yuzlab, minglab misollarda keltirishimiz mumkin. Ayniqsa jamiyatlar, davlatlar o'rtasidagi tasodiflarda ham, minglab kishilarning hayoti so'nib kelmoqda. Bu ikkinchi jahon urushi, Afg'oniston, Iroq, Sobiq Yugoslaviya va boshqa davlatlardagi vaziyatlar, terrorizm o'choqlari, ayniqsa Amerikadagi, Isroil va Falastin davlatlaridagi, Rossiyadagi Checheniston va Gruziyada bo'lgan hodisalar misol bo'la oladi.

Jahon hamjamiyati 2005 yilning yanvar oyida Yaponianing Kobi shahrida bo'lib o'tgan va tabiiy ofatlar tahlikasini kamaytirishga qaratilgan anjumanda maxsus deklaratsiyani qabul qildi. Xuyugo deklaratsiyasi deb nom olgan mazkur hujjatga binoan davlatlar 2005-2015 yillar oralig'ida aholi uchun tabiiy ofatlar oqibatini kamaytirish yo'nalishida ma'lum faoliyatni amalga oshirishlari lozim. Favqulodda vaziyatlar vazirligi va xalqaro bolalar fondi YUNISEF tomonidan Yevropa Ittifoqining inson'arvarlik yordami boshqarmasi DI'EKOning moliyaviy yordamida amalga oshirilayotgan loyiha O'zbekistonning mazkur muhim xalqaro

hujjatda aks to'gan fikrlarni ro'yobga chiqarish yo'lidagi sezilarli qadami bo'ldi. Dunyo vaqealariga ham-ohang O'zbekiston Respublikasida ham sodir bo'layotgan tabiat ofatlari aholi va hukumatimizning diqqat e'tiborini tortibgina qolmasdan, balki tashvishga ham solmoqda. Masalan, 2004 yilda mamlakatimizda 166 ta favqulodda vaziyat yuz bergen bo'lib, ulardan 127 tasi texnogen va 39 tasi tabiat favqulodda vaziyatlardir. Bu 2001 yilda 156 ta edi, shunga nisbatan jami 15% ga kamaygan bo'lib, shundan texnogen xususiyatlisi 19% ga kamaygan, tabiat xususiyatlisi 2001 yilgi ko'rsatkichida qolgan.

Respublikamizda qayd qilingan favqulodda vaziyatlarning 149 tasi lokal (2001 yilda – 170 ta) 16 tasi mahalliy (2001 yil - 22) va 1 tasi respublika (2001 yil - 2) ko'lamida sodir bo'lgan. Respublika hududida qayd etilgan faqulodda vaziyatlarning ko'pchilik ulushi Toshkent (50 marotaba), Qashqadaryo (20) va Farg'ona (17) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Inson hayot faoliyati xavfi yuqorida keltirilganlardan tashqari, hozirgi zamon global muammolardan hisoblangan tashqi muhitni ifloslantiruvchi moddalar va uning ifloslanish darajasining oshib borishi, ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti, inson organizmining tashqi muhitga moslashib borishi, ishlab chiqarish mikroiqlimining gigienik normalarining buzilishi va boshqa turli vaziyatlar ham inson hayot faoliyati xavfsizlik darajasini oshiradi.

Hozirgi vaqtda inson-tabiiy, texnik, iqtisodiy va boshqa har xil xavf-xatar dunyosida ishlaydi. SHu xavf-xatarlar natijasida juda ko'p insonlar hayotdan ko'z yumadilar (Armanistodagi zilzila, Chernobil AES halokati, Jigaristondagi yer siljishi, Admiral Naximov 'aroxodining cho'kishi, Serdlovskiyda Chelyabinsk-Ufa temir yo'l uchastkasida portlash va h.k.). Shuning natijasida 3000 dan ortiq odam halok bo'ldi. 20000 odam nogiron bo'ldi va 200000 odam kasallandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 42-sessiyasida 1991 yildan boshlab tabiiy ofat va falokatlarni kamaytirish bexatarlik yillari, deb belgilangan edi.

Hayotiy faoliyat xafvsizligi tushunchasida ko'p uchraydigan tahriflar bilan belgilanadi.

Faoliyat-insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit. Mehnat-faoliyatning yuqori shakli. Faylasuflarning fikricha, inosnning tahrifi-harakatdagi, mehnatdagi faoliyatidadir.

Mehnat va faoliyat shakllari turlicha bo'lib, ular hayotda uchraydigan aqliy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi.

HFX insonni har qanday muhitdagi faoliyatida uning xafvsizligi va sog'ligini ta'minlovchi, xavfli va zararli omillardan himoya qiluvchi amaliyot va nazariyani qamrab olgan ilmiy bilimlar majmuidir.

Bu fan quyidagi asosiy masalalarni yechadi:

- atrof muhitning noqulay ta'sirlarini turkumlaydi (aniqlaydi va sonli baholaydi);
- insonni xavflardan himoyalaydi yoki unga noqulay omillar ta'sirini oldini oladi;
- xavfli va zararli omillarni ta'siri salbiy oqibatlarini tugatish;
- muhitda insonga normal, shinam sharoit yaratish.

HFXning integral ko'rsatkichi hayotning davomiyligi hisoblanadi. TSivilizatsiya taraqqiyoti (ilmiy-texnikaning, iqtisodning rivojlanish, qishloq xo'jaligini

industraslashirish, har xil energiyalardan foydalanish - yadro energiyasigacha, yangi mashina va mexanizmlarni yaratilishi, zararkunandalarga qarshi har xil o'g'itlarning qo'llanilishi) inson sog'ligiga salbiy ta'sir etuvchi zararli omillar miqdorini sezilarli darajada ko'paytirmoqda. SHu sababli ushbu omillardan himoyalash inson hayot faoliyatini taminlashning muhim elementi bo'lib qolmoqda.

Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab o'zining ko'payishi davomida iqtisodiyotni rivojlantirish bilan birga xavfsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy sistemasini yaratdi. Buning oqibatida insonga zararli ta'sirlar sonini oshishiga qaramasdan insonning xavfsizligi darajasi ortdi. Hozirgi vaqtida eng rivojlangan mamlakatlarda insonlarning o'rtacha umr ko'rishi 77 yoshni tashkil qiladi.

“Hayot faoliyati xavfsizligi” kursi inson organizmi va atrof muhit o'rtasidagi murakkab aloqalarni bilish jarayonini ko'zda tutadi. Insonni muhitga ta'siri fizikaviy qonunlar bo'yicha muhitning barcha tashkil etuvchilari (komponentlari)ni qarama-qarshi ta'sirini yuzaga keltiradi. Inson organizmi u yoki bu ta'sirlarni moslashish chegarasidan oshmaguncha og'riqsiz qabul qiladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi quyidagi masalalarni ko'rib chiqadi:

maishiy muhitdag'i xavfsizlik;

ishlab chiqarish muhitidagi xavfsizlik;

shahar muhitidagi hayot faoliyati xavfsizligi;

atrof muhitdag'i xavfsizlik;

tinchlik va urush vaqtidagi favqulodda holatlar.

Maishiy muhit – bu maishiy sharoitdag'i insonga ta'sir qiluvchi barcha omillarning yig'indisidir. Organizmni maishiy omillarga reaksiyasini fanning sog'lom turmush tarzi, sog'lom turmush tarzining kasallik profilaktikasi bilan aloqasi masalalariga bag'ishlangan mavzularida o'qish mumkin.

Ishlab chiqarish muhiti – bu mehnat faoliyati jarayonida insonga ta'sir qiluvchi omillar yig'indisidir.

Tabiiy muhitdag'i xavfsizlik – bu ekologiyaning sohalaridan biridir.

Ekologiya organizmni atrof muhit bilan o'zaro ta'siri qonuniyatlarini o'rganadi.

Nazorat savollari

1. HFX fanining mazmuni.
2. HFX faning maqsadi nima?
3. Atrof-muhit nima?
4. Ekosistema deganda nimani tushunasiz?
5. Biosfera nima?
6. Texnosferaning inson faoliyatiga qanday aloqasi bor?
7. Litosfera haqida tushunchangiz?
8. Demografik portlash nima?
9. Urbanizatsiyani qanday tushunasiz?
10. HFX fanini o'rganishdan maqsad nima?

YONG'IN VA UNING ZARARLOVCHI OMILLARI

1. Yonishning fizik-kimyoviy asoslari

Yonish deb, yonuvchi modda bilan havodagi kislorodning o'zaro ta'siri natijasida juda tez kechuvchi va ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiquvchi kimyoviy reaktsiyaga aytildi. Ko'p hollarda yonish yonuvchi modda zarrachalarining nurlanishi bilan birga kechadi. Yonish hosil bo'lishi va u davom etishi uchun yonuvchi modda (qattiq, suyuq yoki gazsimon), oksidlovchi modda (oddiy sharoitda oksidlovchi modda vazifasini havoda kislorod o'tashi mumkin) va yondiruvchi manba (uchqun, ochiq alanga va cho'g'langan narsa) mavjud bo'lishi kerak. SHuni aytish kerakki, havodagi kislorod miqdori 15% dan yuqori bo'lgandagina oksidlovchi vazifasini bajara oladi. Undan past konsentratsiyada esa yonish mavjud bo'la olmaydi. Bundan tashqari oksidlovchi modda vazifasini tegishli sharoitlarda xlor, brom, kaliy va boshqa moddalar ham o'tashi mumkin.

Xavfiliyi bo'yicha barcha modda va ashylarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: yonmaydigan moddalar, yonish xavfi mavjud moddalar.

Yonmaydigan modda va ashylar - yonish yoki yong'inni uzatish xususiyatlari yo'q narsalardir. Masalan, g'isht, metall, beton va boshqalar.

Yonish xavfi mavjud modda va ashylar havoda yonish va yong'inni uzata olish xususiyatiga egadirlar. Masalan, yog'och, qog'oz, paxta tolasi, mazut, portlash xoossasiga ega bo'limgan changlar.

Yonish va portlash xavfi mavjud modda va ashylar, qattiq yoki suyuq yonuvchi moddalar bilan birikkanda bir zumda alanganlanib ketish xoossasiga ega. Bunday moddalarga vodorod angidridi, azot kislotsasi va boshqalar, hamda yonuvchi moddalar bilan aralashganda o'zidan kislorod ajratib chiqaruvchi, kislota ta'sirida, qizdirilganda yoki mexaniq ta'sir ostida portlovchi birikmalar kiradi. Masalan, paxta changi bilan selitra aralashganda shu hol ro'y berishi mumkin. SHu bilan birga bunday narsalarga havoda tarqalgan holda portlovchi aralashmalar hosil qiluvchi changlar ham mansubdir. Masalan, lub va kenaf tolalari changlari. Yonish va portlash xavfi mavjud moddalarga o'zлари yonmaydigan, lekin suv bilan aralashganda parchalanib, gaz ajralib chiqaruvchi va bi gaz havo bilan birikkanda portlovchi birikma hosil qiluvchi moddalar ham kiradi (kaltsiy karbid).



2- rasm. Yong'inning ayrim sabablari

portlovchi narsa va moddalar havo bilan aralashib, portlovchi birikmalar (yonuvchi gaz, vodorod, atsetilen) hosil qiladilar. Portlash xavfi mavjud moddalarga

yonuvchi gazlar bilan aralashganda portlash xavfini vujudga keltiradigan yonmaydigan gazlar ham kiradi (kislorod yonuvchi gaz bilan aralashganda portlashga olib keladi). Ayrim holda yonmaydigan va yonishni ta'minlay olmaydigan portlovchi gazlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, balonlarda siqilgan holda saqlanuvchi karbonat angidrid gazi. portlovchi moddalarga, shuningdek havo bilan aralashgan holdagi neorganiq moddalar ham (alyuminiy, magniy va boshqa moddalar kukunlari) kiradi.

1. Yonish fazalari va portlash chegaralari

Yonish faqat ma'lum harorat sharoitidagina mavjud bo'lishi mumkin. Barcha yonuvchi moddalarning tarkibida uglerod va vodorod mavjuddir. Issiqlik ta'siri ostida yonuvchi moddalar parchalanib yuqoridagi gazlar ajralib chiqib, havodagi kislorod bilan birikib, alanga hosil qiladi.

Yonish fazalarining quyidagi xillari aniqlangan:

1) Chaqnash. Agar sekin-asta qizdirilayotgan yonuvchi suyuqlikka vaqtiga bilan tashqaridan alanga ta'sir qildirsak, ma'lum bir haroratga etganda, undan ajralib chiqayotgan gazsimon mahsulot chaqnaydi va shu zahotiyoy o'chib qoladi. Suyuqlikning ana shu paytdagi harorati chaqnash harorati deyiladi. CHaqnagan gazlarning tez o'chib qolishining sababi, bu haroratda suyuqlikdan ajralib chiqayotgan gazlar alangani davom ettirish uchun etarli emasligidir.

Chaqnash harorati moddalarning yong'in jihatidan xavfliligini aniqlashda katta ahamiyatga molikdir. Ayrim moddalardan ajralib chiquvchi bug' va gazlar ko'p miqdorda yig'ilishi natijasida ochiq alanga bilan birikib kuchli portlash paydo qilishi mumkin.

2) Alangalanish. Suyuq, yonuvchi moddalarni qizdirish chaqnash haroratidan yuqorida ham davom ettirilsa, uning bug'lanishi jadallahshadi va shunday bir vaqt keladiki, unga alanga yaqinlashtirilsa chiqayotgan bug'lar chaqnaydi va yonishda davom etadi. Suyuqlikning shu holatdagi harorati alangalanish harorati deb ataladi.

3) O'z-o'zidan alangalanish. Agar yonuvchi suyuqlikni alangalanish haroratidan yuqori bo'lgan holatda ham qizdirish davom ettirilsa-yu, lekin ochiq alanga yaqinlashtirilmasa, ma'lum bir vaqtda, ajralib chiqayotgan bug'lar o'zidan-o'zi alangalanib ketadi. Yonuvchi suyuqlikning ana shu holatdagi harorati o'z-o'zidan alangalanish harorati deyiladi.

4) O'z-o'zidan yonib ketish. Ayrim yonuvchi qattiq moddalarni saqlash noto'g'ri tashkil etilgan hollarda o'z-o'zidan yonib ketishi mumkin. Masalan, nam holda g'aramlangan 'ohol, paxta, toshko'mir, moy artilgan latta va boshqalar. Bu jarayon o'z-o'zidan yonish harorati ma'lum haroratdagina bo'lishi mumkin.

Qattiq moddalar yonayotganda, yonayotgan qismlariga yondosh qismlarning qizishi va ulardan o'z navbatida yonuvchi gazlar ajralib chiqishi va ularning ham yona boshlashi natijasida uzluksiz zanjir reaksiyasi kechadi. Bu biror bir to'suvchi omilga uchramasa yonuvchi modda yonib tamom bo'lguncha davom etadi.

Yonuvchi suyuq moddalarning yonishi faqat yuzalari ochiq bo'lgan holatdagina, ya'ni havo bilan tutash bo'lgan yuzalardagina yuz berishi mumkin. Bunda suyuqlik yuzasidagi alanga pastki qatlamlarni qizdiradi va yonuvchi

bug'larning yangi-yangilarini chiqaradi va ular ham yona boshlaydi. Shunday qilib bu yerda ham zanjir reaktsiyasi kechadi.

Yonuvchi suyuq moddalarning chaqnash harorati 450°S ga teng yoki undan kichik bo'lsa, bunday moddalar Yengil yonuvchi suyuqliklar deyiladi. Bularga benzin, serouglerod, spirtlar va boshqalar misol bo'la oladi. Chaqnash harorati 450°S dan yuqori bo'lganlari esa yonuvchi suyuqliklar deyiladi. Qurilish me'yorlr keltirilishi bo'yicha yong'indan muhofaza qilish ilmiy tekshirish institutining tavtsiyasiga binoan Yengil yonuvchi suyuqliklarga chaqnash harorati 610°C ga teng va undan past bo'lganlari, yonuvchi suyuqliklarga esa 610°C dan yuqorilarini kiritish belgilangan.

Gazlarda esa, gazning har bir molekulasi kislorodning molekulalari bilan bevosita kontaktida bo'lishi mungkinligi va ular bir vaqtning o'zida oksidlanish jarayoniga tayyor bo'lganligi uchun, yonish jarayoni katta tezlikda kechadi. Yonuvchi modda bo'ylab alanganing tarqalish tezligi sekundiga bir necha metrni tashkil etsa yonish, bir necha yuz metrni tashkil etsa portlash, bir necha kilometrni tashkil etsa detonatsiya deb ataladi.

Gaz va bug'larning havo bilan aralashmasining yonish va portlash xavfi, alanganing tarqalish haroratidan tashqari ularning havodagi kontsentratsiya chegarasi (bug'lar uchun) bilan xarakterlanadi. portlashning kontsentratsiya chegarasi deb yo'iq tigel ichida yonuvchi gaz va bug'larning havodagi miqdori tashqi alanga ta'siri ostida alangananib keta oladigan miqdorga aytildi.

Havo bilan to'ldirilgan berk idish olib, unga ma'lum miqdorda yonuvchi gaz yoki bug' qo'shib boramiz va har gal uni yoqib qo'ramiz. Bu gazning miqdori (foizlarda yoki og'irlilik konsentratsiyasida) kam bo'lganda alanganmaydi, ya'ni idish ichidagi bosim atmosfera bosimiga tengligicha qolaveradi.

Yonuvchi moddaning kontsentratsiyasi oshirib borilishi natijasida shunday holat yuzaga keladiki, bunda aralashma kuchsiz portlaydi. Yo'iq idish ichida yonuvchi gaz yoki bug'ning havo bilan aralashmasining yondirilganda portlash paydo qiladigan minimal qiymati portlashning pastki chegarasi deb alaladi. Idish ichiga berilayotgan gaz yoki bug'ning kontsentratsiyasi yana oshira borilsa, portlash kuchi orta beradi va biror maksimal qiymatga erishadi. Kontsentratsiyaning yanada oshib borishi endi portlash kuchini oshirmay, balki pasaytiradi va sekin asta so'na boshlaydi va ma'lum kontsentratsiyada esa butunlay to'xtaydi. Yo'iq idish ichida yonuvchi gaz yoki bug'ning havo bilan aralashmasining, yondirilganda portlaydigan maksimal qiymati portlashning yuqori chegarasi deb ataladi. portlashning pastki va yuqori chegaralari orasidagi farq qancha katta bo'lsa, moddaning portlash xavfi shuncha yuqori bo'ladi.

Har bir yonuvchi moddaning bug'lari va gazlari, hamda changlari o'zlarining pastki va yuqorigi portlash chegaralari qiymatlariiga ega.

Yonuvchi changlar va tolalar, ularning pastki portlash chegarasi 65 g/m^3 dan past bo'lsa, portlash xavfi mavjud hisoblanadi. Agar ularning pastki portlash chegarasi 65 g/m^3 dan yuqori bo'lsa, ular yong'in xavfi bo'lgan changlar hisoblanadi.

Suyuqliklar bug'lari uchun ham portlashning harorat chegaralari pastki va yuqorigi qiymatlarga egadir. Portlashning pastki harorat chegarasi deb, yo'iq idish

ichidagi suyuqlikning to'yingan bug'larining tashqi manba ta'sirida alanga olishi mumkin bo'lgan eng pastki harorati tushuniladi.

Portlashning yuqorigi harorat chegarasi deb, yo'iq idish ichidagi suyuqlikning to'yingan bug'larining tashqi manba ta'sirida alanga olishi mumkin bo'lgan eng yuqorigi harorati tushuniladi. Yonuvchi suyuqliklarning gaz va bug'larning havo bilan aralashmasini yuqorida ko'rsatilgan chegaralaridan tashqari qiymatlarida hech qandiy manba bilan alangalatib bo'lmaydi. Masalan, atseton to'yingan bug'lari uchun portlashning pastki harorat chegarasi - 20°C. yuqorigisi 7°C, serouglorod uchun tegishlicha - 14°C va - 7°C.

Gazlar va changning yonishi. Yonuvchi gazlar havo bilan birikib portlash jihatidan xavfli aralashmalar hosil qilishi mumkin. Shu sababli ular portlash jihatidan xavfli moddalar toifasiga kiradi. Gaz-havo aralashmalarining xavflilik darajasi ularning alanga olish haroratiga va portlashning miqdoriy chegaralariga qarab baholanadi.

Gazlar barqaror yonayotganda harorati 1400°C gacha, portlaganda esa 2000°C gacha ko'tarilishi mumkin. Yonuvchi gazlarning, shuningdek, suyuqlik bug'larning portlashiga qarshi kurash tadbirlarini to'g'ri tashkil qilish uchun ularning havo bo'yicha zichligini bilish zarur, chunki havo bo'yicha zichligi birdan kichik bo'lgan gazlar xonaning yuqori qismida, zichligi birdan katta bo'lgan gazlar esa xonaning pastki qismida, quduqlar, o'ralar, handaqlarda to'planadi.

Ishlab chiqarishdagi alanga olish manbalari. Yonug'chi ashyolarning alanga olishiga va yonuvchi aralashmalarning portlashiga sabab bo'luvchi issiqlik manbalari o'zlarining issiqlik jamg'armalari va ularning yuzaga kelish sabablariga ko'ra turli tuman bo'lsa-da ammo ularning barchasi qandaydir energiya yoki kimyoviy reaktsiyalarda issiqlik chiqishi yoki ortishi yutilishining natijasidir.

Kimyoviy reaktsiyalarda issiqlik chiqishi yoki yutilishi. Ochiq alanga, cho'g'langan yonish mahsulotlari, uchqunlar, issiqlik chiqaradigan kimyoviy reaktsiyalar alanga olish manbai bo'lishi mumkin.

Turli xil gorelkalar, kavsharlash lampalari, elektr yoylari, isitish 'echlari, elektr tokida va gaz alangasida 'ayvandlash jarayonlari, chekish uchun yoqilgan gugurt yoki zajigalka ochiq alanga olish manbayi bo'lishi mumkin. Ochiq alanga manbaining va issiqlik energiyasi jamg'armasining harorati deyarli hamma yonuvchi moddalar va har qanday gaz-havo hamda bug'-havo aralashmalarining alanga olishi uchun etarlidir.

Nazorat savollari.

1. Yong'inga tarif bering.
2. Ishlab chiqarishning yong'in bo'yicha tasnifi.
3. Yonishning fizik-kimyoviy asoslarini tushintiring?
4. Yonish fazalari va portlash chegaralarini xarakterlang?
5. Yong'inga qarshi kurash choralarini ga'rib bering?

YONG'INDA HARAKATLANISH TARTIBI VA O'T O'CHIRISH MODDA VA VOSITALARI

1. Yong'in profilaktikasi va unda harakatlanish

Yong'inlar xalq xo'jaligiga katta moddiy zarar keltiradi. Yong'in bir necha minut yoki soat ichida juda katta miqdordagi xalq boyliklarini yondirib, kulga aylantiradi. Yong'in vaqtida ajralib chiqadigan tutun, karbonat angidrid va boshqa zararli hid va gazlar ko'p miqdorda atmosferaga ko'tarilib, nafas olish uchun zarur bo'lgan havoning tarkibini buzadi. Bundan tashqari, yong'indan tufayli ko'plab kishilar jarohatlanadi va hatto o'lim holatlari ham kuzatilishi mumkin. Bularning hammasi, yong'inga qarshi kurash tadbirlarini, bu vaqtda paydo bo'ladigan ishlarni xavfsiz bajarish usullari va mehnat muhofazasi bilan birgalikda o'rganishga majbur qiladi.

Hozirgi paytda sanoat korxonalarida yonish xavfining kamayishi borasida birmuncha ishlar amalga oshirilgan, yong'in chiqish xavfi kamaytirilgan va butunlay xavfsiz ishlaydigan elektr uskunalari qo'llanilmoqda. Sanoat korxonalarini bino va inshootlari tarkibidan yonuvchi qurilish materiallarini siqib chiqarilmokda. O't o'chirishning mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan sistemalari tobora kengroq qo'llanilmoqda.

Lekin, yong'in chiqishining oldini olishda, o't o'chirishda asosiy mashuliyat kishilar zimmasiga tushishini va ularning yong'inni o'chirish texnikasining barcha talablarini to'liq bajarilishiga bog'liq ekanligini unutmasligimiz kerak. Sanoat korxonalarida bu tadbirlar tartibli ravishda, yong'in texnikasi haqidagi nizom, yong'in xavfsizligi qoidalari, yo'riqnomalar va boshqa xujjatlar asosida olib borilishi kerak.

Respublikamizning harbir fuqarosi jamoat va davlat mulkini ko'z qorachig'iday saqlashi va asrab avaylashi, uni boyitishi haqida qayg'urishi kerak. SHuning uchun sanoat korxonalarida yong'inning oldini olish va o't o'chirish tadbirlari keng jamoatchilikka suyangan holda, tsexlardagi har bu ishchining ishtirokida olib boriladi.

Yong'in muhofazasini tashkil qilish kasbiy va ixtiyoriy turlarga bo'linadi. Kasbiy yong'in muhofazasi o'z navbatida, harbiylashtirilgan (yirik shahar va muhim obektlarga xizmat ko'rsatadi), harbiylashtirilmagan (tuman markazlari va yirik sanoat obektlariga xizmat ko'rsatadi) va tarmoq (ayrim birlashma va korxonalarga xizmat ko'rsatadi) turlariga bo'linadi. Yirik sanoat korxonalarida kasbiy yong'in qismlari tashkil qilinadi. "Sanoat korxonalarining bosh rejalar" ga asosan ishlab chiqarishning yong'in xavfi bo'yicha A, B va V toifalari uchun kasbiy yong'in qismlarining xizmat ko'rsatish radiusi 2 km dan oshmasligi kerak. Bu qismlar odatda korxona hududidan tashqariga joylashtiriladi. Yong'in xavfi kam bo'lgan hamda kichikroq korxona va muassasalarda yong'in muhofazasi va obektni qo'riqlash xizmati birgalikda qo'shib olib boriladi.

Sanoat korxonalarida yong'in muhofazasini tashkil qilish va yong'in chiqishini ogohlantirish: o't o'chirish texnikasi va qurollarini aloqa va o'chirish vositalarini jangovar holatda saqlash, yong'in chiqqan taqdirda ularda faol

qatnashish, xalq mulkini asrab-avaylab saqlash borasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi. Korxonalarda yong'in muhofazasining qanday strukturasi mavjud bo'l shidan qathiy nazar, ko'ngilli o't o'chirish drujinalari tuzilishi kerak.



3-rasm. O't o'chirish vositalari va ulardan foydalanish

Yong'in va portlashlar hamon xalq xo'jaligiga katta ziyon yetkazmoqda, kishilarning mayib bo'l shiga hatto halok bo'l shiga sabab bo'lmoqda. SHu sababli yong'in xavfsizligi tadbirlari ikki asosiy vazifani hal qilishga - kishilar hayoti va sog'lig'ini saqlab qolishga hamda moddiy boyliklarni o'tdan himoyalashga qaratilmog'i zarur.

2. Yong'in xavfsizligi boshqarmasi va tashkilotlarning yong'in xavfsizligiga oid vazifalari

Yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilinishini Davlat yong'in nazorati kuzatib turadi, tsexlar, laboratoriyalar, bo'lmlar, omborxonalar, ustaxonalar va boshqa bo'lmlardagi yong'in xavfsizligi uchun javobgarlik esa ularning rahbarlari yoki shu rahbarlar vazifasini bajarib turgan kishilar zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasida shaharlarimizning, qishloqlardagi aholi zinch yashaydigan joylar va xalq xo'jaligi obektlarining yong'in muhofazasini mustahkamlash uchun yong'inga qarshi kurash reja asosida olib boriladi va shu to'g'risida doim g'amxo'rlik qilib kelinadi. Ana shu yong'in muhofazasi ishining ikki asosiy yo'nalishi bor: Birinchidan, bu – yong'inning oldini olishga qaratilgan ilmiy-texnik va tashkiliy tadbirlarning rejali majmui; Ikkinchidan, bu – obektlar, shaharlarda va qishloqlardagi aholi zinch yashaydigan joylarda yong'inni o'chirishni tashkil qilish.

O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi yong'in muhofazasi Bosh boshqarmasining vazifasi davlat mulkini, fuqarolarning shaxsiy mulkini yong'indan saqlashdan iborat. SHu bilan birga yong'in nazorati tashkilotlari tashkiliy, nazorat va mahmuriy ishlarni amalga oshiradi. Ularning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- hamma idoralar, korxonalar va alohida shaxslar uchun majburiy bo'lgan yong'in muhofazasiga doir qoidalar, me'yorlar, yo'riqnomalar ishlab chiqish va ularni cho' etish;

- sanoat, fuqaro binolari va inshootlarini, aholi punktlarini loyihalash, qurishda yong'in xavfsizligi qoidalari va me'yorlarining bajarilishini tekshirish;

- hamma tashkilotlar, muassasalar, korxonalardagi o't o'chirish

bo'linmalarining shayligini va o't o'chirish vositalarining sozligini qattiq nazorat qilish hamda tekshirish.

O'zbekiston Respublikasi yong'in nazorati tashkilotlari o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun ularga quyidagi huquqlar berilgan:

- yong'in xavfsizligi jihatidan qay ahvoldaligini aniqlash maqsadida barcha sanoat binolari hamda inshootlari, omborxonalar va ularni tekshirish;

-korxonalar mahmuriyati va alohida shaxslardan obektlarning yong'in xavfsizligi nuqtayi nazaridan qay ahvoldaligini aniqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumot hamda hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;

yong'in xavfsizligi qoidalari buzilganligi aniqlaganda korxona rahbarlariga ana shu buzilishlarni bartaraf etish yuzasidan majburiy farmoyishlar berish va buning uchun zarur muddatlarni belgilash;

-yong'in va portlash xavfini yuzaga keltiruvchi qoida buzilishlari aniqlaganda ana shu buzilishlar bartaraf etilgunga qadar korxonaning ishini butunlay yoki qisman to'xtatib qo'yish;

yong'in xavfsizligi qoidalaringning buzilishi yoki bajarilmasligida aybdor bo'lgan kishilarni mahmuriy yohud jinoiy javobgarlikka tortish.

Ishchi-xizmatchilar o'z ish o'rnidagi yoki ular o'zi ishlaydigan bo'linmadagi yong'in xavfsizligi talablarini yaxshi bilishlari va ularga qathiy amal qilishlari, o't o'chirish vositalaridan foydalana olishlari, mehnat hamda texnologiya intizomiga qathiy rioya qilishlari, yong'in hamda portlash jihatidan xavfli modda va ashyolarni ishlatishti bilishlari zarur.

Korxona, muassasa va tashkilotlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash ishini tashkil qilish. Ishchilar, xizmatchilar va muhandis-texnik xodimlarning ko'pchiligi jalg etilgandagina korxona, muassasa, hamda tashkilotlarda yong'inga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish mumkin. Buning uchun har bir obektda yong'in texnik komissiyasi tuziladi. Komissiyaga bosh muhandis, texnik rahbar yoki rahbarning birinchi o'rnbosari boshchilik qiladi, ularning vazifasi quyidagilardan iborat:

yong'inning oldini olish qoidalaringning buzilishlarini va yong'in chiqishiga olib keluvchi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish tadbiralarini ishlab chiqish;

obektiv yong'inning oldini olish tartibini ishlab chiqish va ularni o'tkazishda qatnashish;

ishchi-xizmatchilar va muhandis-texnik xodimlar o'rtasida yong'inning oldini olish tartibi hamda qoidalari bo'yicha ommaviy tushuntirish ishini olib borish.

Bu vazifalarni bajarish uchun yong'in texnik-komissiyasi ishlab chiqarish xonalari, elektr jihozlari, shamollatish, isitish sistemalari va shu kabilarni ko'zdan kechirib, qoida buzilishlarini aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish muddatlarini belgilaydi; ishlovchilar o'rtasida yong'inning oldini olish mavzularida suhbatlar, lektsiyalar o'tkazadi; ratsionalizatorlar hamda ixtirochilar uchun mavzular ishlab chiqishda qatnashadi; tsexlar, bo'limlar, omborxonalar, laboratoriylar va hokazolarning yong'inga qarshi ahvolini tekshirishga keng jamoatchilikni jalg etadi.

Sanoat korxonalaridagi yong'in muhofazasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:
har kuni yong'inning oldini olishni amalga oshirishi;

yong'in chiqishiga yo'l qo'y maydigan tadbirlarni ishlab chiqish;
ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlarga yong'inga qarshi kurash
yuzasidan yo'l-yo'riqlar berish va ular bilan mashg'ulotlar o'tkazish;
hamma o't o'chirish sistemalari va qurilmalari hamda yong'in, aloqa va
signalizatsiya vositalarining ahvolini nazorat qilish;
-qo'riqlanayotgan obektdagi yonayotgan narsalar va yong'inni o'chirish.

Nazorat savollari:

1. Yong'in vaqtida harakatlanish tartibini ko'sating.
2. O'zbekiston Respublikasi yong'in xavfsizligi boshqarmasining vazifalari nimalardan iborat.
3. Qanday o't o'chirish modda va vositalarini bilasiz?
4. Sanoat korxonalariga yong'in muhofazasi bo'yicha qanday vazifalar yuklatilgan.

YONG'INDAN SHIKASTLANGANDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM BERISH

1. Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini tashkil qilish

Favqulodda holatlar ta'sir doirasini cheklash va uning oqibatlarini susaytirishga qaratilgan tadbirlar asosan: avariyalarni lokalizatsiyalash, ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini to'xtatish yoki o'zgartirish, yong'inni oldini olish yoki uni o'chirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Qutqarish va boshqa turdag'i kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlar jumlasiga boshqarish organlarini, kuch va vositalarni tayyor holatga keltirish, zararlanish o'chog'ini razvedka qilish va mavjud holatni baholash kabi vazifalar kiradi.

Ikkinchi bosqich vazifalariga favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha qutqaruv hamda boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish kiradi. Bu ishlar uzlusiz ravishda, qutqaruvchilar va bartaraf etuvchilar smenalarini almashtirgan holda xavfsizlik texnikasi va ehtirot choralariga to'liq amal qilib bajarilishi shart.

Qutqaruv ishlari jarohatlanganlarni qidirib to'ish, ularni yonadigan binolar, xarobalar, transport vositalari ichidan olib chiqish, odamlarni xavfli xonalardan evakuatsiya qilish, jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish va shu kabi boshqa yordamlarni amalga oshirish ishlarini o'z ichiga oladi.

Kechiktirib bo'lmaydigan ishlar jumlasiga esa yong'inni lokalizatsiyalash va o'chirish, konstruktorsiyalarni mustahkamlash, qutqaruv ishlarini amalga oshirish maqsadida kommunal-energetik setlarni, aloqa va yo'llarni tiklash, odamlarga sanitarni ishlov berish, dezaktivatsiyalash va degazatsiyalash ishlarini amalga oshirish kabi vazifalar kiradi.

Qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar jumlasiga aholini barcha turdag'i vositalar bilan taminlash, jumladan, ularni xavfsiz joylarga joylashtirish, oziq-

ovqat va suv bilan taminlash, tibbiy yordam ko'rsatish hamda moddiy va moliyaviy yordamlar berishni amalga oshirish kabi vazifalar ham kiradi.

Uchinchi bosqich vazifalariga avariylar, halokatlar va tabiiy ofatlar yuz bergan rayonlardagi aholi faoliyatini taminlash masalalari kiradi. Bu maqsadda turar joylarni tiklash yoki vaqtinchalik turar joylar bar'o etish, energiya va suv ta'minotini, aloqa tarmoqlarini, kommunal xizmat obe'ktlarini tiklash, zararlanish o'chog'iga sanitat ishlov berish, aholiga oziq-ovqat mahsulotlari hamda birlamchi ehtiyoj buyumlari bilan yordam ko'rsatish ishlari amalga oshiriladi. Ushbu bosqich nihoyasida evakuatsiya qilingan aholi o'z joylariga qaytariladi va xalq xo'jalik obe'ktlarining ishlashi tiklanadi.

Ayrim favqulodda holatlarning sodir bo'lishi oldindan aniqlanishi mumkin. Bunday holatlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha ishlar oldindan ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshiriladi. Rejada asosan ikki xil ko'rinishdagi tadbirlar belgilanadi.

Birinchi guruhdagi tadbirlar aholini himoyalash maqsadida amalga oshiriladi. Bu tadbirlarga - aholiga xavf to'g'risida ma'lumot berish va xabar berish; himoya vositalarini tayyor holga keltirish; boshqarish sistemalari va vositalarining tayyorligini tekshirib ko'rish; shaxsiy himoya vositalarini aholiga tarqatishga tayyorlash va tarqatish; tibbiy profilaktika, sanitat va e'idemiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish; evakuatsiyaga tayyorlanish va talab etilgan sharoitlarga xavf tahdid soladigan rayonlarda aholini evakuatsiya qilish kabi vazifalar kiradi.

Ikkinci guruh tadbirlariga favqulodda holatlarning xavfli va zararli omillarini bartaraf etishga qaratilgan vazifalar kiradi. Bu tadbirlarga-xalq xo'jaligi obe'ktlari ishini to'xtatish yoki ish rejimini o'zgartirish; energiya, suv, gaz sistemasi ish rejimini o'zgartirish yoki vaqtincha to'xtatish; mavjud muhandislik inshootlarini mustahkamlash yoki qo'shimcha qurish; yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazish; xavfli rayonlardan moddiy boyliklar va chorva mollarini olib chiqish; oziq-ovqat, oziqa xom ashyosi va suv manbalarini himoyalash kabi ishlar kiradi.

Favqulodda holatlar sodir bo'lganligi to'g'risida xabar olingach, birinchi navbatda berilgan ma'lumotlarni to'g'rili tekshirilib, qo'shimcha axborot va ma'lumotlar olish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi. CHunki, turli xil favqulodda holatlarning har xil sharoitlardagi oqibatlari turlicha bo'lishi mumkin. SHu sababli dastlab favqulodda holatlar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikkilamchi, uchlamchi va boshqa xavfli omillar aniqlanib, keyingina kom'leks tadbirlar amalga oshiriladi.

2. Jarohatlanib hushdan ketganda birinchi yordam

Hushdan ketish deganda bosh miya tomirlarining qiska muddatli s'azmi natijasida yuz beradigan hushning kisqa muddatga yo'qolishi tushuniladi. To'satdan xushdan ketishda teri va shillik pardalarning keskits okarishi, nafas olishning qiyinlashishi (sekiilashishi), tomir urishining sustlashishi kuzatiladi.

Birinchi navbatda xushdan ketish sababini bartaraf qilish lozim. SHikastlangan kishi boshini pastga, osklarini esa balandroq qilib yotkiziladi. Bemorga novshadil spirt xidlatiladi. Og'ir hollarda sun'iy nafas oldiriladi.

Novshadil spirt o'rniga ovqatga ko'shiladigan sirka yoki kesilgan 'iyozni xidlatish xam mumkin.

3. Sun'iy nafas berish va yurakni uqalash

Jarohatlanishlar asoratida inson orgainizmi eng og'ir ahvolga tushib qolishi mumkin. Bunday holatlarda nafasning va bahzan yurak faoliyatining ham to'xtashi kuzatiladi, lekin hayot xali so'nman va xayot faoliyatini to'la tiklash imkoniyati bo'ladi. Biroz muddatdan keyin (5-6 minut) klinik o'lim biologik o'limga o'tishi mumkin. Ana shu muddatda shikastlangan kishiga zudlik bilan yordam berish (tiriltirish) shu ishni amalga oshiruvchi odamdan tajriba, tez va 'uxta ishlashni talab qiladigan murakkab va hal qiluvchi jarayondir. Birinchi navbatda bu jarayonda nafas va yurakning to'xtagan yoki to'xtamaganligi anikdanadi. So'ngra nafas oldirish va yurak faoliyatini tiklash ishlari amalga oshiriladi.

Nafasning tuxtashi. Nafas tovush boylamlarining s'azmi, nafas yo'llariga begona narsalarning tiqilib kolishi, tilning xalqumga kelib qolishi va shu kabilar oqibatida o'pkaga havo tushishi qiyinlashuvidan ro'y bsradi.

Nafas olishi to'xtagan odamni dastlabki 5 daqiqa davomidagina hayotga qaytarish mumkin.

Nafas oldirish usuli bemor bo'lган sharoitlar va nafas olishning to'xtash sababiga ko'ra tanlanadi.


Silhvester usuli. Bemor chalqancha yotkiziladi. Bemorning bilak kafti ustidan ushlanib, kuch bilan yuqoriga ko'tariladi, so'ngra ko'llarni kukrak kafasiga zushiriladi va u kattiq bosiladi. Minutga 14-15 marta shunday harakat qilinadi.

Sholler usuli. Qovurga yonlarini qo'llar bilan yon tomonga cho'ziladi, so'ngra qisiladi.

Og'izdan og'izga yoki og'izdan burunga havo 'uflash usuli sun'iy nafas oldirishning eng ta'sirchan oddiy usullaridan hisoblanadi.

Sun'iy nafas "og'izdan og'izga" yoki "og'izdan burunga" berilishi mumkin. Bu usullar boshka usullarga nisbatan samarali usul hisoblanadi. Unda jarohatlangan shaxsning o'pkasiga boshqa usullarga nisbatan 4 barobar ko'p xavo yuboriladi.

Sun'iy nafas berishdan oldin jarohatlangan shaxs elka tomoni bilan yotqizilishi, undagi siqib turgai kiyimlar, galstuk, sharf va shu kabilar echilishi, og'iz ko'piklardan tozalanishi kerak. Agar og'iz kattiq yopiq bo'lsa (tishlashib qolgan bo'lsa), ikkala ko'lning to'rt barmogini jarohatlangan shaxsning boshi orkasiga qo'yib, ikkala bosh barmok bilan og'zini ochish kerak. Keyin chuqur nafas olib, og'izni og'izga ko'yib, jaroqatlangan shaxsning burnini kisib kuchli havo 'uflash kerak. Xavo 'uflashda marli_g rumolcha yoki maxsus nafas olish trubkasidan foydalanish mumkin. Sun'iy nafas berish chastotasi minutiga 15-17 marta bo'lishi kerak.



4 – rasm. Nafas olishni tekshirish jarayoni

Yurak faoliyatining to'xtatishi. Yurak faoliyatining to'xtashiga yo'l qo'ymaslik uchun sun'iy nafas oldirish bilan birga yurakni bevosita yo'iq ukalanishi zarur.

Yurak urishining to'xtash belgilari:

- * Ko'z qorachig'inining kengayishi.
- * Uyqu arteriyasida 'ulsning yo'qligi.
- * Nafas olishning to'xtashi
- * Refleksning mavjud emasligi

Yuqoridagi holatlar ko'zatilganda quyidagi tartibda harakat qilish lozim: 1. Jabrlanuvchi chalqanchasiga qattiq yuzaga yotqiziladi.

2. Biror kiyimi dumaloqlanib bo'yni tagaga qo'yiladi.
3. Boshini orkaga egib, og'zi yo'iladi.
4. "Og'izdan-og'izga" yoki "og'izdan-burunga" usulida sun'iy nafas bsriladi.
5. Yurak bilvosita uqlanadi.

Agar jarohatlangan shaxsning ko'z korachig'i kengaygan va 'ulhs urishi sezilmasa, kon aylamishini tiklash maksadida sun'iy nafas berish bilan bir vaqtida yurak uqalanishi lozim. Uqalashda o'ng qo'lning kafti jarohatlangan shaxsiing ko'kragiga qo'yiladi va tez-tez (minugiga 60 marta)bosiladi. Tananing pastki qismlari joylashgan vena qon tomirlaridagi qonni yurakka kelishini tezlatish maqsadida oyoqni 30 sm gacha yuqoriga ko'tarib qo'yish mumkin. Agar bu yordamlarni bir kishi bajarayotgai bo'lsa, 2-3 marta sun'iy nafas bergach, 10-12 marta yurakni tashqi uqalash tavsiya etiladi. Jarohatlangan shaxsning o'ziga kelganini nafas olishini tiklanishi, rangini qizarishi ko'z qorachig'ini qisqarishi kabi belgilardan bilib olish mumkin. Buni tekshirish uchun massajni 2-3 sek to'xtatib turish mumkin. Agar jarohatlangan shaxsda o'ziga kelish holatlari kuzatilmasa, sun'iy nafas berish va yurakni uqalashni vrach kelgunga qadar davom ettirish kerak.

4. Maneken-trenajyorlarda tajriba ishi og'izdan-og'izga sun'iy nafas oldirish

-maneken chalkancha yotkiziladi, qo'krak qafasini ochish uchun kiyimlari echilib, sun'iy nafas oldirishga tayyorlanadi. Maneken boshini yonboshlatib, og'iz bo'sh.chig'i begona narsalardan tozalanadi:

-nafas yo'lini to'g'irlash maqsadida maneken boshi tagiga bir ko'lni va 'sshonasiga ikkinchi ko'lni ko'yib iloji borncha boshi orqa tomonga egiladi:

-maneken og'izga doka ko'yilib, og'iz bilan kuchli havo (nafas) yuboriladi:

-nafas yuborish har 5-6 sekundda bir marta yoki bir minutda 10-12 marta amalga oshirilishi zarur:

-hargal havo yuborilganidan so'ng nafas qayta chiqishi uchun maneken og'zi va burni bushatiladi.

5. Yurakni tashqi uqalash

- maneken qo'li yoki bo'yindan 'ulhs urishi, ko'krak harakatidan nafas olayotgani va ko'z qorachig'ining holati tekshirilib. yurakni massaj qilish zaruriyati aniqlanadi;

-ko'krak qafasi tugagan joydan ikki barmoq enlikda pastga bir ko'l kaft bilan uning ustiga ikkinchi qo'l to'g'ri burchak ostida ustma -yst qo'yiladi:

-tez harakat bilan kukrak qismining past tomoni 3-4 s.m.ga 0.5 sek da'omida bosiladi. agar harakat to'g'ri amalga oshirilgan bo'lsa yashil chiroq yonadi:

-agar ko'krak kafasi kuchli ya'ni noto'gri bosilsa qizil chiroq yonadi;

-ko'krak kafasini bosish yurak urishi ritmiga to'g'ri kslishi kerak;

-aga' dastlabki yordamni ikki kishi berayotgan bo'lsa biri sun'iy nafas oldiradi. ikkinchisi yurakni massaj qiladi:

-dastlabki yordamni bir kishi amalga oshirsa 2-3 marta sun'iy nafas oldirilgach 10-12 marta kukrak qafasi bosiladi.

6. Kuyganda birinchi yordam ko'rsatish

Kuyish termik, kimyoviy va elektrik bo'lisi mumkin. Ular og'irlik darajasiga ko'ra 4 darajaga bo'linadi: 1-darajali kuyishda teri qizarib, shishadi; 2-darajali kuyishda suv 'ufaklari hosil bo'ladi; 3-darajali kuyishda teri jonsiz, ya'ni sezish qobiliyatini yo'qotgan holda bo'ladi; 4-darajali kuyishda -teri qorayadi, muskullar va suyak shikastlamadi, kurib qoladi.

Termik va elektrik kuyishda kuygan joyga qo'l tegizish, maz, yog, ichimlik sodasi surtish, yo'ishib qolgan kiyim parchasini yulib olish, hosil bo'lgan 'ufaklarni yorish mumkii emas. Birinchi darajali kuyishda kuygan joyni sterillanga' bog'ich bila' bog'lash kerak. Tana og'ir kuyganda kuygan kishini toza choyshab bilan o'rash, choy ichirish va vrach kelguncha tinchlik berish kerak.

Agar kuygan kishining 'ulhs urishi sekinlashsa 15-20 tomchi valeriyanka ichirish kerak. Kuygan yuzni sterillangan marli bilan yo'ib qo'yish kerak.

Ko'z kuyganda 1 stakan suvgaga 1 choy koshiq bor kislotsi solib, sovuq holda ko'zga bosish kerak.

Kimyoviy kuyish oqibati ko'pincha kuydiruvchi kimyoviy moddani ta'sir etish vaqtiga bog'liq bo'ladi. SHu sababli bunday kuyganga birinchi yordam ko'rsatishda dastlab ushbu modda kontsentratsiyasini va ta'sirini susaytirish lozim. Buning uchun kislota yoki ishqor ta'sir etgan joy 15-20 minug toza suvda yuvilishi kerak. Agar kuyish kislota ta'sirida bo'lsa bir stakan suvgaga bir choy qoshiq ichimlnk

sodasi, ishqor ta'sirida bo'lsa bir stakan suvgan suvga bir choy qoshik bor kislotasi solingan eritma bilan bog'ich namlanib bog'lanishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Favqulodda vaziyatlarda qidiruv – qutqaruv ishlari qanday tashkil etiladi?
2. Hushdan ketgan odamlarga qanday tartibda birinchi yordam ko'rsatiladi?
3. Yurakni uqalash tartibi qanday bo'ladi?
4. Kuyishda birinchi yordam ko'rsarish haqida ma'lumot bering.


TERRORCHILIK HARAKATLARI SODIR BO'LGANDA HARAKATLANISH TARTIBI. AXBOROT XAVFSIZLIGI

1. Terrorizm va diniy ekstremizm tushunchalarining mazmun mohiyati

«Terrorizm» tushunchasining o'zi lotin tilidan olingen bo'lib, «terror» - qo'rquv, dahshat demakdir. Dastlab terror siyosiy ta'sir metodi sifatida Ulug' frantsuz inqilobi davrida radikallar tomonidan siyosiy raqiblarni qo'rqtish maqsadida qo'llanilgan. Boshqacha qilib aytganda, terrorizm – bu to'g'ridan to'g'ri kuch ishlatish metodi orqali siyosiy muammolarni echishning o'ziga hos usulidir.

Terror davlatning o'z raqiblariga nisbatan qarshi qo'llanilishi bilan birga, shuningdek mahfiy tashkilot va guruhlarning davlatga nisbatan qarshi qo'llanilishi mumkin. Birinchi holatda ga' re'ressiv (jazo) davlat terrori haqida borya'tti.

Keng ko'lamda u fashistik davlatlarda (XX asrning 30 – 40 yillarida Germaniyada, 20–40 yillarda Italiyada, 30 – 60 yillarda Is'a-niyada va h.), bir qator kommunistik diktaturalarida (20-yillarning «qizil terrori», 30 – 50-yillarda SSSRdagi Stalin re'ressiyalari, 40 – 60-yillarda Hitoydagi Maoist re'ressiyalari va h.), Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining bir qator davlatlarida harbiy va diktatorlar tomonidan qo'llanilgan. Ikkinci holatda ga' haqiqiy ma'nodagi terrozhizm haqida borya'tti, qaysiki o'ozitsion, davlatga qarshi, mahfiy, aniq bir maqsadga qaratilgan, boshqariladigan, mafkuraviy faoliyatni kuch ishlatish orqali o'zida namoyon qiladi. Terroristlarning qurbanlari tasodifiy yoki ataylab tanlangan shahslar bo'lishi mumkin.



5 – rasm. AQSHdagi terroristik xuruj



6-rasm. Terrorchilar tomonidan garovga olish va ommaviy qatl

Terroristik aktlar ma'lum bir guruhlarni qo'rqitish uchun yoki terroristlarning g'oyalarini 'ro'oganda va namoyish qilish uchun xizmat qiladi.Terrorizmning mohiyatini anglash uchun odatda 3 ta uning asosiy tomonlariga e'tibor qaratiladi: harbiy, jinoiy va siyosiy. Harbiy muammo sifatida terrorizm qurolli harakatlarning alohida, s'etsifik turi sifatida ko'rildi va «past (sust) intensivli qurolli to'qnashuv» tarzida belgilanadi. Jinoiy muammo sifatida terrorizm alohida xavfli qattiq jinoyat turidir. Nihoyat, uchinchi 'ozitsiyada terrorizm siyosiy kurash sifatida ko'rildi, qaysiki ma'lum bir tuzumlarga yoki davlat hokimiyatining aniq, u yoki bu harakatlariga qarshi ijtimoiy-siyosiy norozilik asosida shakllanadi.

Terrorizm – mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shahsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obe'ktlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, halqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shahsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, halqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yahlitligini buzishga, xavfsizligiga 'utur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar majmuasidir.

Ekstremizmning mazmun-mohiyati. «Ekstremistik» so'zi esa «akl bovar qilmas darajada», «haddan oshish» ma'nolarini bildiradi.Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlар va me'yorlarga zid karashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va chorralarga moyillik ekstremizmning asosiy hususiyati hisoblanadi.

Turli ekstremistik guruhlarning o'zaro munosabatida doimiy kelishmovchilik va janjallar, vogelikning keskin o'zgarishi sharoitida ular bo'linib ketadigan guruhlar o'rtasidagi «revolyutsionerliqda» musobaqalashuv kuzatiladi. Ularga yo'iq sektalarga hos mistik tildan, ehtiqdoga dahvat qilish yoki undan «chetlashish», «shakkoklik» uchun jazolash kabi uslublardan foydalanish hosdir. Amerikalik sotsiolog K.Keniston «bunday guruhlarda odatiy shaxsiy nizolar, liderlik uchun kurash, did va qarashlardagi farq sezilarli darajada o'sib, ba'zida, hatto, hayot-mamot masalasigacha etib boradi», — deb yozgan edi.

Yashirin «armiya»larning ichki tarkibi, odatda, «kommandos» (italhyan terrorchilarida — «kolonnalar», «musulmon birodarlar»da - «jovalalar») deb ataladigan tezkor birliklardan tashkil to'adi. Ular bir-birlarini faqat laqablari orqaligina biladigan uch yoki besh kishilik guruhlardan iborat 'iramida shaklida

tuziladi. Ularning tashkiliy tuzilmasi barcha davlatlarda deyarli bir hil. «Jangovar guruh» tashkilot ahzolarining asosiy ehtiyojlarini qondirish, jangarilar tashqariga chiqmaydigan bevosita yo’iq ijtimoiy muhitni yaratishdek ko’plab vazifani bajaradi. Bir so’z bilan aytganda, jangovar guruh terror hurujini uyushtirishdek asosiy vazifasidan tashqari uning tarkibidagi kishilar uchun ijtimoiy muhit vazifasini ham bajaradi.

Ekstremistik va terroristik tashkilotlarga yangi ahzolarning qo’shilishi, ko’pincha, dinga kiritish, qabul qilishdek shaklu shamoyil kasb etadi hamda bir qancha tanlov va sinov bosqichlarini o’z ichiga oladi. ekstremistik harakatlarning eng quyi tabaqasi ko’pincha siyosiy tusga ega bo’lmagan, mayda zo’rlik va jinoyatlar sodir etadigan unsurlar bilan bog’liqbo’ladi. Bunday zo’rlikning siyosiylashtirilishi terrorizm tomon qo’yilgan bi-rinch qadam bo’ladi. O’z doirasiga yangi kimsalarni tortar ekan, terrorchilik guruhi yoki uning raqbariyati so’zsiz bo’ysunishni va «ish»ga mutaassibona sadoqatni talab qiladi. Keyinroq esa yollanuvchilar «hamma narsani biluvchi» va ularga yo’lboshchilik qiluvchi sarbonga duch keladilar.

Hozirgi davrda eng avvalo ahborot chegaralarining barham to’ishida o’zligini namoyon qilayotgan globallashuv sharoitida va bir paytlar halqaro munosabatlar mazmunini belgilagan ikki qarama-qarshi kuch — sotsializm va ka’italizm o’rtasidagi o’zaro kurashning barham to’ishi natijasida ekstremizm va terrorizm mamlakatlar, mintaqalar va umuman dunyo xavfsizligiga asosiy tahdid sifatida birinchi o’ringa chikdi. Qo’oruvchilik faoliyatining turli ko’rinishlarini o’z ichiga olgan infrastrukturani shakllantirgan va rivojlantirgan mazkur ikki dunyoqarash o’rtasidagi kurash hozirda turli hil kuchlarni birlashtirgan ko’p qutbli dunyoning mazkur infrastrukturaga qarshi kurashidek shakl-shamoyil kasb etmokda.

Bu, birinchi navbatda, ekstremizm va terrorizmning anarhizm va fashizmning arhaik shakllari bilan qorishmasi hisoblangan va ommaning keng qatlamlari bilan bog’lovchi halqa sifatida islom shiorlaridan ustalik bilan foydalanadigan, aslida esa halqbilan hech qanday aloqasi yo’qligini mohirona yashira oladigan holat kasb etdi. O’z vaqtida, XX asrning 70-yillarida, terrorchilar halq bilan birgalikni ko’rsatish va uning nomidan harakat qilish uchun kommunizm shiorlari ostida faoliyat yuritishi va shu yo’l bilan mablag’ to’lashi qulayroq edi.

Ma’lum bir davlat hududida terrorizm tarqalishiga sabab bo’luvchi shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

1. Jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik
2. Milliy-diniy qarama-qarshiliklar
3. Ommaviy ishsizlik va qashshoqlik
4. Ommaviy-diniy faoliyatda huquqiy effektiv (unumli) boshqaruvning yo’qligi
5. Ayrim kishilarning ma’naviy past fazilatlari va ahloqsiz hayot tarzi
6. Tubanlikka tushgan kishilarga nisbatan huquqni himoya qilish organlari va aholining e’tiborsizligi, loqayd va beparvo munosabati
7. Halqaro miqqiyosda terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashning etarli darajada emasligi

8. Ayrim kishilarning, guruhlarning, tashkilotlarning hattoki davlatlarning terrorizmni qo'llab-quvvatlashdan manfaatdorligi

Terrorchilik harakatlarining subhektlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Yakka terrorchilar
- Terrorchi guruhlar
- Terrorchi tashkilotlarning jangovor guruhlari
- Terrorchi tashkilotlar
- Etnik jamoalar
- Diniy tariqatlar
- Siyosiy-ekstremistik birlashmalar
- Halqaro terrorchilik tashkilotlari
- Ayrim davlatlar va davlatlarning maxsus xizmatlari

Hozirgi kunda terrorizmga qarshi kurashning asosiy prinsiplari quyidagilardir:

- Qonuniylik
- SHahs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- Terrorizmning oldini olish choralari ustuvorligi
- Jazoning muqarrarligi
- Terrorizmga qarshi kurash oshkora va nooshkora usullarining uyg'unligi
- Jalb etiladigan kuchlar va vositalar tomonidan terrorchilikka qarshi o'tkaziladigan operasiyaga rahbarlik qilishda yakkaboshchilik

2. Terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik.

Xalqaro terrorizm — eng og'ir jinoyat bo'lib, u uzoq davom etgan jarayonlarning xosilasi hisoblanadi.

Unga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikning yo'lga qo'yilishi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Masalan, 1934 yilda Madridda bo'lib o'tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan konferentsiyada terrorizmning «Aholini dahshatga solish va harqanday ijtimoiy tashkillashuvni yo'q qilish maqsadida biror bir vositani qo'llash» degan ma'nodagi tahrifi qabul qilinishiga erishilgan edi.

1937 yilda 20 dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konventsiyani imzoladi. Unda terrorizm «davlatga qarshi qaratilgan, muayyan shaxslar yoki aholi o'rtaida qo'rquvni keltirib chiqarish maqsadini ko'zlagan jinoiy faoliyat» deya tahriflangan edi. Davlat boshliqlari, ularning huquqidan foydalanuvchi, ular tayinlagan yoki merosxo'r bo'lgan kishilar, qayd etilgan shaxslarning ayollari hayoti, sog'lig'i, ozodligiga tajovuz qilish, jamoat mulki yoki boshqa davlatning mulkiga zarar yetkazish, ommaviy xavf tug'dirish bilan odamlarni halok qilish niyatini ko'zlash, ko'zlagan jinoyatlarini sodir etish maqsadida qurol-yarog' va portlovchi moddalar sotib olish, saklash va yetkazib berish ana shunday jinoyat sirasiga kiritilgan edi.

Ayni paytda, terrorchilarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun 13 davlat suveren tenglikni chegaralovchi «Xalqaro jinoiy sudni tashkil etish» haqidagi Konventsiyani imzoladi. SHunday bo'lsa-da, bu hujjatlarda xalqaro terrorchilarni

tutib berish masalasi umuman qo'yilmagan, terrorizmning tahrifi esa xaddan tashqari kengayib ketgan edi. Yuqoridagi kabi qator kamchiliklari tufayli nomlari zikr qilingan konventsiyalar zarur miqdordagi ratifikatsiyalarni to''lay olmadni va kuchga kirmay qolib ketdi. SHunga qaramay, ular bu sohadagi davlatlararo xamkorlikka ozmi-ko'pmi ijobjiy ta'sir ko'rsatgani shubhasiz, albatta. CHunki ularning asosiy qoidalaridan terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi milliy qonunlarni mukammallashtirishda foydalanildi.

1972 yilning may va sentyabr oylarida sodir bo'lgan voqealardan keyin xalqaro xamjamiyat bu dolzARB va xavfli hodisaga yana o'z e'tiborini qaratdi. Terrorizm haqidagi umumiyligi tushunchasi va terrorchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarni jazolash choralarini belgilab beruvchi huquqiy aktlar ishlab chiqildi. O'nlab davlatlarda terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi, ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar imzolandi. Qurolli to'qnashuvlar vaqtida terrorchilik harakatlarini qo'llash xalqaro gumanitar huquq me'yorlariga, xususan, 1949 yilda imzo-langan Urush paytida oddiy fuqarolarni himoya qilish haqidagi Jeneva Konventsiyasiga, 1977 yilda qabul qilingan Qo'shimcha 'rotokollar qoidalariga ko'ra man etilgan.

Urushdan keyingi davr terrorchilik guruuhlarining son va sifat jihatidan o'sishi bilan farklanadi. Ularning ichida «SHtern», «Irgun» (Isroi), «Yahudiylarni himoya qilish ligasi» (AKD11), «Tamil Ilam»ni ozod qiluvchi yo'lbarslar, «Baader-Maynxof», «Qora internatsional», «Butun dunyo natsional-sotsialistik itti-foqi», «Armanistonni ozod qilish maxfiy arman armiyasi» kabi uyushmalar ko'pchilikka ma'lum edi. SHuningdek, hozirda dunyoning 60 ga yaqin mamlakatlarida shunday guruuhlar mavjud. Jumladan, Yevropada xam «Qizil brigadalar» (Italiya), «Qizil Armiya fraktsiyasi», «Jangari kommunistik guruuhlar» (Belg'giya), «Aksg'on direkt» (Frantsiya), «ETA» (Is'aniya) kabi ko'p sonli terrorchilik uyushmalari faoliyat olib bormokda.

Ayni paytda, terrorchilik nafaqat siyosiy, balki katta miqdorda 'ul talab qilish va boshqa oddiy jinoiy maqsadlarda ham amalga oshirila boshlaganini ta'kidlash zarur. Natijada, nafaqat xalqaro muhofazadan foydalanuvchilar, balki oddiy fuqarolar xam jabr ko'ra boshladi. Ularga, aholi zich yashaydigan joylar, aeroportlar, metro bekatlari, restoran va ibodatxonalarda amalga oshirilgan portlatishlarni kiritish mumkin.

Bunday jinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik aloqalari kengayib bormokda. Jumladan, BMT huzurida xalqaro terrorizm bo'yicha tashkil etilgan Maxsus qo'mita terrorizm sabablarini o'rganish, bartaraf qilish va unga qarshi kurash borasida davlatlar faoliyatini muvofiklashtirish bilan shug'ullanmoqtsa.

1973 yilning dekabrida Bosh Assambleyasi xalqaro muhofazadan foydalanadigan shaxslar, jumladan, di'lomatik agentlarga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olish va jazolash bo'yicha Konventsiyani qabul qildi. Uning 1-moddasiga muvofiq xorijiy mamlakatda bo'lib turgan davlat va hukumat boshliqlari, tashqi ishlar vaziri, ularga hamrohlik qilayotgan oila ahzolari; maxsus muhofaza huquqi bo'lgan davlat vakili yoki mansabdor shaxs; hukumatlararo xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsi yoki agenti va ular bilan birga yashovchi oila ahzolari xalqaro muhofazada bo'ladigan shaxslar qatoriga kiritilgan.

Odam o'ldirish, o'g'irlash yoki shaxs va uning erkinliklariga boshqa bir shaklda tajovuz qilish; erkinligi yoki shaxsiyatiga xavf tug'dirgan holda rasmiy idoralarga yoki shunday shaxslarning transport vositalariga zo'ravonlik bilan bostirib kirish, egallab olish; taxdid, qasd qilish va shunga o'xshash bosqinchilikda ishtirok etishdek qasddan qilingan harakatlar esa xalqaro jinoyat sifatida ehtiroy qilinadi.

Terrorchini o'z hududida qo'lga olgan davlat amaldagi qonunlariga ko'ra uni jinoyat shu davlat hududida yoki shu davlatda ro'yxatga olingan transport vositasi (kema, samolyot va sh.k.) bortida amalga oshirilganda;

- jinoyat shu davlat hududida yoki shu davlatda ro'yxatga olingan transport vositasi (kema, samolyot va sh.k.) bortida amalga oshirilganda;
- gumon qilinayotgan jinoyatchi shu davlat fuqarosi bo'lganda;
- jinoyat shu davlat nomidan rasmiy vazifani bajarayotgan va xalqaro muxrfazadan foydalanadigan shaxsga qarshi sodir etilganda davlatlarning yurisdiktsiyasi amalga oshiriladi.

Qayd etilgan harakatlarga qarshi kurash bo'yicha siyosiy kelishuvlar Yevropa xavfsizlik va hamkorlik Kengashi ishtirokchilarining Xelg'sinki, Madrid, Vena, 'arijda qabul qilgan yakunlovchi aktlarida o'z ifodasini to'gan.

Ayni paytda, terrorchilik xurujlarining oldini olish va uni sodir etganlik uchun jazolash to'g'risidagi Amerika davlatlari tashkiloti (1971 y.), Yevropa davlatlari (1976 y.) va Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorligi assotsiatsiyasi (1987 y.) tomonidan qabul qilingan uchta mintaqaviy Konvensiya xam mavjudligini qayd etish lozim.

SHu bilan birga, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tarkibida terrorizm bo'yicha Tashqi ishlar vazirlari Qo'mitasi xam faoliyat ko'rsatayotganini ta'kidlash zarur.

Bu yo'naliishda hamkorlik qilishga intilish musulmon dunyosi mamlakatlariga ham xosdir. Ko'plab arab-musulmon davlatlari Ichki ishlar va Adliya vazirlari tomonidan 1998 yilda imzolangan terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Arab bitimini qabul qilishgan.

3. Terrorchilik xarakatlari sodir etilganda xarakatlanish tartiblari. Respublikamizda diniy ekstrimizm va terrorizmga qarshi olib borilayotgan ishlar

*Terrorizm bilan bog'liq FVlarda aholi vakillari quyidagilarni bilishlari
shart:*

SHUBHALI BUYUM TOPIB OLINGANDA

- zudlik bilan tegishli xizmatlarga xabar bering;
- shubhali buyumga yaqinlashmang;
- xavfli zonani kamida 100 m radiusda odamlardan bo'shating;
- shubhali buyum va xavfli zonani qo'riqlashni ta'minlang;
- uyushgan holda odamlarning evakuatsiyasini ta'minlang;
- mutasaddi organlar ko'rsatmalariga rioya qiling;

-radio aloqa vositalari, uyali telefon va radioprotlatgich ishlab ketishiga olib keluvchi vositalardan foydalanmang

TELEFON ORQALI TAH DID QILINGANDA . . .

- har bir qo'ng'iroqqa bee'tibor bo'lman;
- qo'ng'iroq to'g'risida tegishli organlar (MHH, ichki ishlar bo'limi)ga xabar bering, zarur bo'lsa odamlarni evakuatsiya qilishni tashkil eting;
- qo'ng'iroq qiluvchi bilan uzoqroq muloqotda bo'lishga harakat qiling (suhbatni yozib olish, boshqa telefondan mutasaddi organlarga xabar berish uchun), uning yoshi, millati, jinsini ta'minan aniqlashga harakat qiling, ovozi, ga'irish ohangi, nutqiga e'tibor qarating;
- suhbat boshlangan vaqt va uning davomiyligini qayd eting;
- ga'lashib bo'lgach telefon dastagini qo'y may boshqa telefon orqali qo'ng'iroq qiluvchining nomerini aniqlashga kirishing;
- suhbat va uning mazmuni to'g'risida ga' tarqatmang.

XODIMLARNI GAROVGA OLINGAN OBE'KT RAHBARINING HARAKATI . . .

- zudlik bilan mutasaddi organlarga va yuqori organ rahbariga xabar berish;
- garovga olinmay qolgan xodimlarni binodan zudlik bilan olib chiqish;
- begonalar binoga kirishlariga yo'l qo'ymaslik, binoni kuzatish ishlarini tashkil etish;
- o'z tashabbusiga ko'ra terrorchilar bilan muzokara olib bormaslik;
- terrorchilarning talablarini, agar bu odamlar sog'lig'iga zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lmasa, bajarish;
- hodisa sodir bo'lgan joyga tegishli kuchlarning to'siqsiz kirib kelishini ta'minlash.

GAROVGA TUSHIB QOLDINGIZ . . .

- ortiqcha his-hayajon, sarosima, vahimaga tushmang;
- terrorchilar bilan bo'lar-bo'lmas muloqotga kirishmang, sira janjallashmang;
- ko'pchilik ichida "singib" keting, yarq etib ko'zga tashlanmang;
- jinoyatchining ko'ziga tik boqmang, bu uning sizga nisbatan qahr-g'azabini oshiradi;
- yon-atrofingizdagilarni tinchlantiring;
- tutqinlikda bo'lgan vaqtida ko'rgan, eshitgan barcha narsalarni, terrorchilarning tashqi ko'rinishi, hatti-harakatini eslab qolishga harakat qiling;
- qanday egulik taklif etishmasin uni rad etmang;
- ruhiy barqarorlikni qo'ldan bermaslikka harakat qiling;
- ozod bo'lishingizga bo'lgan umidni yo'qotmang;
- garovdan ozod etilganingizda panaroq joyga o'ting, otishmalar tugamaguncha egilgan boshingizni yuqori ko'tarmang, maxsus xizmat xodimlarining to'shiriqlarini so'zsiz bajaring

4. Markaziy Osiyoda ro'y bergan terroristik harakatlar va unga qarshi ko'rilgan chora tadbirlar

Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm nafaqat tashqi, balki ichki xavfsizlikka ham daxldor masaladir. Chunki diniy ekstremistik va xalkaro terrorchilik tashkilotlari jangarilik usullari bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlarni shakllantirish, ularni har tomonlama rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga intiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi 1990 - 1991 yillarda Namangan va Andijonda, 1990—1996 yillarda Tojikistonagi fukarolik urushi va mojarolar davomida, 1999 yili 16 fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001 yillari Qirg'izistonning Botkent, O'zbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida, 2005 yil Andijon viloyatida amalga oshirilgan terrorchilik harakat lari timsolida o'zini ko'rsatdi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi diniy mutaassiblik, aqida'arastlik, ekstremizm va terrorchilikning min-taqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon xamjamiyati birgalikda unga qarshi kurashishi lozimligi to'g'risidagi g'oyani jahonning nufuzli tashkilotlari minbarlaridan ehlon qildi. To'g'risini aytish kerak, O'zbekistonning diniy ekstremizm va xalkaro terrorizmga qarshi kurash siyosatining mohiyatini rivojlangan mamlakatlar va dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari kechroq anglatdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov 1993 yil 28 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan mahruzasida jaxrn hamjamiyatini Afganistan muammosini izchil o'rganish va yechishga chaqirdi. «Tolibon» harakatining diniy mutaassib va jangarilik faoliyati haqidagi ushbu haqqoniy fikr faqat AQSHdagi 2001 yil 11 sentyabrg' fojialaridan so'ng tan olindi.

O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1998 yilda tashkil to'gan «6+2» guruhining BMT raxbarligida 1998-1999 yillarda olib borgan faoliyati Afgonistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega bo'lganini ta'kidlash zarur. Bu guruh Afg'oniston bilan chegaradosh olti davlat (Xitoy, O'zbekiston, 'okiston, Eron, Tojikiston, Turkmaniston) va mintaqaga tashqarisidan Afg'onistondagi vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatib turgan ikki davlat — AQSH va Rossiyaning yuqori darajadagi vakillaridan tashkil qilingan edi.

Bu guruh bir qator majlislar, muhokamalar va muzokaralar o'tkazib, ularga Afg'onistonda bir-biri bilan kurashayotgan kuchlar vakillarini jalb qilib, «Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to'g'risida»gi Toshkent Deklaratsiyasini va mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo'yicha bir qator boshqa hujatlarni ishlab chiqdi. 1999 yilning 28 iyulida BMT Xavfsizlik Kengashi majlisida «6+2» guruhining Toshkent uchrashuvi yakunlari yuksak baholandi.

2001 yilning 28 sentyabrida BMTning Xavfsizlik Kengashi 1373(2001)-sonli rezolyutsiyani qabul qilib, BMT doirasida terrorizmga qarshi kurash qo'mitasini tuzdi. Ushbu qo'mitaning tuzilishi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov taklif qilgan terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazining kontse'tsiyasiga hamohangdir. Zero, Yurtboshimiz 1999 yilning noyabrida Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining (EXHT) Istambulda bo'lib

o'tgan Sammitida va 2000 yilning 7—8 sentyabrg' kunlari Ng'yu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining «Mingyllik sammiti»da BMT tuzilmalarida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tuzish taklifini bayon qilgan edi. Ushbu tashabbus ro'yobga chiqqanidan so'ng, O'zbekiston 2001 yil dekabr oyida va 2002 yilning avgust oyida BMT Xavfsizlik Kengashining yuqorida zikr etilgan rezolyu-tsiyasining bajarilishi xususida BMTning terrorizmga qarshi kurash qo'mitasiga mahruzalar takdim etdi.

O'zbekistonning AQSH yetakchiligidagi tashkil etilgan xalqaro terrorizmga qarshi kurash koalitsiyasi tarkibidagi ishtiroki uning bu sohadagi ichki va tashqi siyosatining mantiqiy davomidir. O'zbekiston xalkaro aksilterror koalitsiyasining faol ishtirokchisi sifatida AQSH harbiy havo kuchlarining transport samolyotlari va vertolyotlariga Afg'onistonda qidiruv-qutqaruv va inson'ar-varlik yordamini amalga oshirish uchun o'z xavo hududini ohib berdi va Xonoboddagi harbiy aerodromning bir qismini AKSH harbiy havo kuchlariga vaqtincha foydalanishga berdi.

O'zbekistonning diniy ekstremizm va xalkaro terrorizmga qarshi olib borayotgan siyosatining maqsadi mintaqada global miq-yosdatinchlik, barqarorlikni saklash, mamlakat mustaqilligi va ravnaqi, xalqining erkin farovon hayotini ta'minlashdir.

Ekstremizm va terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurash haqida ran ketar ekan, O'zbekiston Afg'onistonda tinchlikka erishishda BMTning faolligini kuchaytirish, Afg'oniston ichki ishlariga tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish va qurol-yarog' olib kirishni taqiklash, ekstremizm va xalqaro terrorizmnинг moliyaviy manbai bo'lган narkobiznes va narko-trafikka qarshi xalqaro miqyosda kurash kabi masalalarda ham ehti-borga molik takliflarni ilgari surganini ta'kidlash zarur.

O'zbekiston bu tashabbuslar amalga oshishi uchun o'zining ichki siyosatida ham tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xamda 1998 yili 1 mayda tasdiklangan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonunda mazkur yo'nalishdagi faoliyat-ninghuquqiy asoslari mujassam etilgan.

Respublikamiz ekstremizm va terrorizm bilan birga uni moliyalashtirish bilan uzviy bog'liqbo'lган narkobiznes va narkotrafikka qarshi kurashda ham qathiy siyosat olib bormokda. 1999 yilda «Giyohvandlik vositalari va 'sixotro' moddalar to'g'risida»gi, 2000 yilda «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida» Qonunlarning qabul qilingani hamda «Eks'ort nazorati to'g'risida» va «'ulni noqonuniy o'zlashtirish to'g'risida»gi Konun larni tasdiqlanganligi tayyorlangani fikrimizni tasdiqlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi tizimli va tadrijiy kurash olib bormokda. Bu kurash mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish va inson huquklarini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Xalqaro shartnomalarda ishtirok etish. Respublikamiz terrorizmga qarshi qaratilgan ko'plab xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, ulardagi majburiyatlarini izchil bajarib kelmoqda. SHu bilan birga, bu masalalarda o'ziningtashabbuslarini ilgari surayotganini qam alohida ta'kidlash zarur.

Ma'lumki, BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta hujjati (11 ta Konvensiya va 2 ta 'rotokol) mavjud. Hozirda O'zbekiston 12 ta ana shunday xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan. Ular qatorida 1971 yildagi fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga taxdid soladigan nokonuniy aktlarga qarshi kurash; 1973 yildagi xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, shu jumladan, di'lomatik agentlarga qarshi jinoyatlar uchun jazolash va ularni bartaraf qilish; 1979 yildagi garovga olish harakatlariga qarshi kurash; 1980 yildagi yadroviy materialarning ximoyasi; 1988 yildagi dengiz kemalari harakati xavfsizligiga taxdid soladigan noqonuniy aktlarga qarshi kurash; 1997 yildagi bombaviy terrorizmga qarshi kurash; 1999 yildagi terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash xalqaro konventsiyalari borligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda BMT tomonidan «Yadroviy terrorizm xurujlariga qarshi kurash to'g'risida»gi xalqaro konvensiya va «Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha yal'i kontse'tsiya» loyihalari tayyorlanayotgani O'zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash borasidagi tashabbuslariga hamohangdir.

O'zbekiston Yevropa Kengashi doirasida ham terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan 7 xalqaro shartnomani imzolagan. Ularning ichida 1977 yildagi terrorizmning oldini olish; 1978 yildagi shaxslarning o'qotar qurollarni sotib olish va ularning saklashini nazorat qilish; 1983 yildagi zo'ravonlik bilan amalga oshirilgan jinoyatlar oqibatida jabrlanganlarga kom'ensatsiyalar berish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyalari hamda 1957 yildagi ekstradiktsiya to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi 1975 va 1978 yildagi qo'shimcha 'rotokollari va 1959 yildagi jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasining 1978 yildagi qo'shimcha 'rotokoli bilan imzolanganini alohida qayd etish lozim.

Qayd etilgan konvensiya va 'rotokollarda mustahkamlab qo'yilgan qoidalar respublikamizda qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ham izchil ifodasini to'ayotganini ta'kidlash zarur.

Mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash. Markaziy Osiyo davlatlari o'z mustaqilligiga erishganlaridan so'ng xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash ularning har biri uchun birlamchi masalaga aylandi. Mintaqa axrlisining qariyb 45 foizi yashaydigan O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik res-'ublikadir. Respublikamizning jahon geosiyosiy tizimidagi o'rni va geostrategik salohiyati uning Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi mavqeining o'ziga xosligini ko'rsatadi. SHundan kelib chiqib, O'zbekiston diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, narkobiznes kabi xavf-larga qarshi kurashga Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan jiddiy e'tibor qaratilishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Jumladan, Afg'oniston va Tojikistondagi o'ta murakkab vaziyat mintaqa xavfsizligi uchun jiddiy taxdid ekanidan kelib chiqib, O'zbekiston rahbariyati ularni xal qilishda ishtirok etishga alohida e'tibor qaratdi. Bugungi kunda ushbu mamlakatlarda u yoki bu darajada barqarorlikka erishilgan ekan, bunda O'zbekistonning salmokli ijobiy xissasi bo'lganini ta'kidlash zarur.

2002 yilning oktyabr oyida BMT bilan hamkorlikda «Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash: narkotik moddalarning g'ayriqonuniy aylanishi, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashda xamkorlik»

mavzuida Toshkentda o'tkazilgan xalqaro konferentsiya ham bu yo'nalishdagi ishlar ko'lidan dalolat beradi. 70 ta mamlakat va 40 ta xalqaro gashkilotdan ekspertlar ishtirok etgan mazkur anjuman xalkaro terrorizmga qarshi kurash strategiyasiga umumiy yondashuvlar bo-rasida amaliy takliflar tayyorladi.

Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti doirasida ham O'zbekiston diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm va narkobiznes xavfini o'zaro hamkorlikda bartaraf etish bo'yicha qator tashabbuslar bilan chiqib, uni ro'yobga chiqarib kelmoqda. 2000 yil 21 aprelda Toshkentda O'zbekiston, Kozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston respublikalari terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilik hamda tomonlarning bar-qarorligiga xavf tug'diradigan boshqa taxdidlarga qarshi kurashda hamkorliqda harakat qilish haqida shartnomasi imzolagani xam buning isboti bo'la oladi.

Ayni paytda, O'zbekiston va Turkmaniston prezidentlari tomonidan 2004 yili 19 noyabrda Buxoroda imzolangan bir qator shartnomalarda ham ikki davlat orasidagi aloqalarni yanada mustaqkamlash hamda Markaziy Osiyo mintaqasida terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda xamkorlik ham nazarda tutilganini qayd etish zarur.

I.A.Karimov 1993 yilning 28 sentyabrida BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan mahruzasida Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hudud yaratish borasidagi tashabbusni ilgari surgan edi. Diniy ekstremistlar va xalkaro terrorchi kuchlar ommaviy qirg'in qurollariga ega bo'lishga intilayotgan hozirgi davrda yadro quroli yaratilishi uchun zarur bo'lган materiallar tarqalmasligiga qaratilgan ushbu harakat BMT va jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholandi. BMT Bosh Assambleyasining 1997 yilning 9 dekabrida bo'lib o'tgan 52-sessiyasida «Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hudud yaratish» to'g'risida rezolyutsiya qabul qilindi.

Qayd etilgan misollar, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilikning global, mintaqa-viy va milliy xavfsizlikka taxdid ekanini chuqur anglagan holda ilgari surayotgan tashabbuslari va amaliy faoliyati O'zbekiston-ning Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim bo'g'ini ekanidan dalolat beradi.

O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash bo'yicha mintaqaviy tashkilotlardagi ishtiroki. O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi ishtiroki mintaqaviy tashkilotlardagi faoliyatida ham yorqin namoyon bo'lmokda. Jumladan, O'zbekiston YeXHT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), SHanxay Hamkorlik tashkiloti (SHHT), Markaziy Osiyo Hamkorligi (MOH) tashkiloti kabi bir kator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga karatilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasining ushbu shartnomalarda qatnashishi uning ichki va tashqi siyosatining mantiqiy davomidir.

2004 yil 17—18 oktyabrdagi Dushanbeda MDH tashkilotiga ahzo davlatlarning rahbarlari kengashida, O'zbekiston prezidenti tashabbusi bilan, Rossiya Federatsiyasi ushbu tashkilot tafsishchilari safiga qo'shildi. Ushbu anjumanda Markaziy Osiyoda suv-energetika, oziq-ovqat va transport konsortiumlarini tashkil qilish va umumiy bozorni shakllantirish, Afg'onistonni tiklash ishlarida MOH

tashkilotiga ahzo davlatlarining hamkor-ligini faollashtirish masalalari ko'rib chiqildi. O'zbekiston prezidenti tashabbusi bilan ekstremistik va terroristik tashkilotlar, ularning rahbarlari va ahzolarining ro'yxatini tuzish MOH tashkilotiga ahzo davlatlarning huquqni muhofaza kiluvchi idoralari va maxsus xizmatlariga to'shirildi.

O'zbekistonning yuqorida qayd etib o'tilgan mintaqaviy tashkilotlarning ishida faol ishtiroki, tashabbuslari va takliflari global xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekistonning tutgan o'rni muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Keng qamrovli islohotlar — jamiyat barqaror rivojlanishining asosiy omili. Jamiyatning barqaror rivojlanishida ijti-moiy hayotning barcha sohalarida tadrijiy va tizimli ravishda amalga oshiriladigan islohotlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, tub, sifatiy o'zgarishlarning asosini tashkil etadi. O'zbekistonda bunday islohotlar respublika prezidenti I.A.Karimov tomonidan bat afsil bayon qilingan iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchiligi, jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishdek besh tamoyilga asoslanadi.

5. Axborot xavfsizligi masalalari

Ma'lumki, har qanday davlatning axborot resurslari uning iqtisodiy va harbiy salohiyatini belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirilishini ta'minlaydi. Bunday jamiyatda, axborot almashinuv tezligi yuksaladi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish bo'yicha ilg'or axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo'llash keng ko'lama amalga oshiriladi.

Axborotlashgan jamiyat tezlik bilan shakllanib bormoqda. Axborot dunyosida davlat chegaralari degan tushuncha yo'qolib bormoqda. Jahon kom'yuter tarmog'i davlat boshqaruvini tubdan o'zgartirmoqda. Hududiy joylashishidan qathi nazar, kundalik hayotimizga turli xildagi axborotlar Internet xalqaro kom'yuter tarmog'i orqali kirib keldi. SHuning uchun ham mavjud axborotlarga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va o'zgartirish, yo'qotish kabi muammolardan himoya qilish dolzarb masala bo'lib qoldi.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan. «Axborot erkinligi 'rinsi'lari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi². Darhaqiqat, 2002- yil 12-dekabrdan qabul qilingan bu

² Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. - Т., 2010.

qonunda axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi deb belgilangan.

Kom'yuter tizimlari va tarmoqlarida axborotni muhofaza qilishi deganda, uzatilayotgan, saqlanayotgan va qayta ishlanilayotgan axborotni ishonchliligin tizimli tarzda ta'minlash maqsadida turli vosita va usullarni qo'llash, choralarini ko'rish va tadbirlarni amalga oshirishni tushunish qabul qilingan. Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, axborotni muhofaza qilish esa davlatning birlamchi masalalariga, davlat siyosati darajasiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi №439-II-sonli «Axborot erkinligi 'rinsi'lari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunida³ axborot va uning turlari to'g'risida quyidagi tahriflar keltirilgan:

axborot - manbalari va taqdim etilish shaklidan qathi nazar shaxslar, 'redmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

axborotni muhofaza etish - axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari;

ommaviy axborot - cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar;

hujjatlashtirilgan axborot - identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jiisdma qayd etilgan axborot;

maxfiy axborot - foydalanilishi qonun hujjatlariga muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjatlashtirilgan axborot. Ushbu tahrif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi prezidentining «Milliy axborot resurslarini muhofaza qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2011-yil 8-iyuldag'i 'Q-1572-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi 2011-yil 7-noyabr 296- sonli qarorida quyidagicha ifodalangan: *maxfiy axborot* - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish cheklangan, davlat sirlariga mansub axborot mavjud bo'limgan hujjatlashtirilgan axborot .

Konfedensial axborot - hujjatlashtirilgan axborot, undan foydalanish qonun hujjatlariga muvofiq chegaralanadi⁴.

Saqlash, o'zgartirish, uzatish va ma'lum maqsadlar uchun foydalanish obekti bo'lgan tevarak olam haqidagi ma'lumotlarni, keng ma'noda axborot deb tushunish

Узбекистон Республикасининг «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тутрисида»ги конуни // Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. - 2003. - №1. - 2-м.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. - Т., 2003. - №1. - 2-м.

⁴ Алока ва ахборотлаштириш соҳасида ахборот хавфсизлиги: Атамалар ва таърифлар. Тармок стандарти: TSt 45-010:2010.

mumkin. Bu tushunchaga ko'ra inson, uning hayot tarziga va harakatlariga ta'sir etuvchi doimiy o'zgaruvchi axborot maydoni ta'sirida bo'ladi. Axborot o'z tavsifiga ko'ra siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, ishlab chiqarishga yoki tijoratga oid hamda maxfiy, konfedensial yoki nomaxfiy bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 848-XII-sonli «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi qonunning⁵ 1-moddasida davlat sirlari tushunchasi berilgan:

«Davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari hisoblanadi».

Mazkur qonunning 3-moddasida davlat sirlarining toifalari keltirilgan:

«O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari - davlat, harbiy va xizmat sirlarini qamrab oladi.

Oshkor etilishi respublika harbiy-iqtisodiy imkoniyatlarining sifat holatiga salbiy ta'sir etishi yoki O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi, iqtisodiy va siyosiy manfaatlari uchun boshqa og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar davlat sirini tashkil etadi.

Oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi va Qurolli Kuchlari uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan harbiy xususiyatga ega ma'lumotlar harbiy sirni tashkil etadi.

Oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohasiga doir ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etadi».

Axborot xavfsizligi tushunchasi, uning tashkil etuvchilari tavsifi. Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun'iy xarakterdagи tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan axborot va uni qo'llab-quvvatlab turuvchi infrastukturuning himoyalanganligi tushuniladi. Bunday ta'sirlar ahborot sohasidagi munosabatlarga, jumladan, axborot egalariga, axborotdan foydalanuvchilarga va axborotni muhofaza qilishni qo'llab quvvatlovchi infrastrukturaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi №439-II-sonli «Axborot erkinligi 'rinsi'lari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunda axborot xavfsizligi *axborot borasidagi xavfsizlik* deb belgilangan va u axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlарining himoyalanganlik holatini anglatadi.

Axborot sohasida *shaxs manfaatlari* fuqarolarning axborotdan foydalanishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshishida, qonunda taqiqlanmagan faoliyat bilan shug'ullanishida hamda jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishda axborotlardan foydalanishlarida, shaxsiy xavfsizlikni ta'minlovchi axborot himoyasida namoyon bo'ladi.

⁵ Узбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. - Т., 1993. - №5. - 232-м.

Axborot sohasida *jamiyat manfaatlari* bu sohada shaxs manfaatlarini ta'minlashda, demokratiyani mustahkamlashda, ijtimoiy huquqiy davlatni qurishda, ijtimoiy hamjihatlikni qo'llab-quvvatlashda o'z aksini to'adi.

Axborot sohasida *davlat manfaatlari* milliy axborot infrastrukturasining rivojlanishiga sharoitlar yaratishda, axborot olish sohasida shaxs va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshishida, O'zbekistonning hududiy birligini, suverenitetini va konstitutsiyaviy tuzumining mustahkamligini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash maqsadida axborotdan foydalanishda, qonuniylik va huquq tartibotni qathiy amalga oshishida, o'zaro tenglik va o'zaro manfaatdorlikdagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda ifodalanadi.

Axborot xavfsizligi - ko'p qirrali faoliyat sohasi bo'lib, unga faqat tizimli, kom'leks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Ushbu muammoni hal etishda huquqiy, mahmuriy, 'rotsedurali va dasturiy-texnik choralarini qo'llaniladi.

Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlaydigan uchta asosiy tamoyil mavjud:

ma'lumotlar butunligi - axborotni yo'qotilishiga olib keluvchi buzilishlardan, shuningdek ma'lumotlarni mualliflik huquqi bo'limgan holda hosil qilish yoki yo'q qilishdan himoya qilish;

axborotning *konfedensialligi*. Axborot va uning tashuvchisining holatini belgilaydi va unda axborot bilan ruxsatsiz tanishishning yoki uni ruxsatsiz hujjatlashtirishning (nusxa ko'chirishning) oldini olish ta'minlangan bo'ladi;

foydalanish huquqlariga (mualliflikka) ega barcha foydalanuvchilar axborotdan *foydalana olishliklari*.

Ta'kidlash joizki, ayrim faoliyat sohalari (bank va moliya institutlari, axborot tarmoqlari, davlat boshqaruv tizimlari, mudofaa va maxsus tuzulmalar) ularda ko'rildigan masalalarning muhimligi va xarakteriga ko'ra, ularning axborot tizimlari faoliyati ishonchlilikiga nisbatan yuqori talablar va xavfsizlik bo'yicha maxsus choralar ko'riliшини talab etadi.

Axborot xavfsizligining milliy xavfsizlik tizimidagi o'rni. XXI asrda shaxs, jamiyat va davlat taraqqiyotida axborot resurslari va texnologiyalarining rolini ortishi natijasida O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini axborotlashtirilgan jamiyat sifatida qurish masalasini hal etish bilan birga quyidagi omillar milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimida axborot xavfsizligining yetakchi o'rinni egallashini belgilaydi:

milliy manfaatlar, ularga tajovuz va ularni bu tajovuzlardan himoyalash axborot va axborot sohasi orqali ifodalanadi, amalga oshiriladi.

inson va uning huquqlari, axborot va axborot tizimlari hamda ularga egalik qilish - bu nafaqat axborot xavfsizligining asosiy obektlari, balki xavfsizlik sohasidagi barcha xavfsizlik obektlarining asosiy elementlari hamdir;

axborot yondashuvidan asosiy ilmiy-amaliy usul sifatida foydalanish orqali milliy xavfsizlik masalalarini hal etish mumkin;

milliy xavfsizlik muammosi yaqqol ajralib turuvchi axborot tavsifiga ega.

Axborot xavfsizligi tizimi davlatning axborot sohasidagi siyosatini mamlakatda milliy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosati bilan chambarchas

bog'laydi. Bunda axborot xavfsizligi tizimi davlat siyosatining asosiy tashkil etuvchilarini yaxlit bir butunlikka biriktiradi. Bu esa axborot xavfsizligining roli va uning mamlakat milliy xavfsizligi tizimidagi mavqeini belgilaydi. Axborot sohasidagi O'zbekistonning milliy manfaatlarini, ularga erishishning strategik yo'naliishlarini va ularni amalga oshirish tizimlarini o'zida aks ettiruvchi maqsadlar yaxlitligi davlat axborot siyosatini anglatadi. SHu bilan birga davlat axborot siyosati mamlakatning tashqi va ichki siyosatining asosiy tashkil etuvchisi hisoblanadi hamda jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oladi.

Axborot xavfsizligining zamonaviy konsepsiysi axborot xavfsizligini ta'minlovchi maqsadlar, vazifalar, tamoyillar va asosiy yo'naliishlar bo'yicha rasmiy nuqtai nazarlar majmuini bildiradi.

Quyida axborot xavfsizligining asosiy tashkil etuvchilari va jihatlari keltirilgan:

axborotni muhofaza qilish (shaxsiy ma'lumotlarni, davlat va xizmat sirlarini va boshqa turdag'i tarqatilishi chegaralangan ma'lumotlarni qo'riqlash ma'nosida);

kom'yuter xavfsizligi yoki ma'lumotlar xavfsizligi - kom'yuter tarmoqlarida ma'lumotlarning saqlanishini, foydalanishga ruxsat etilganligini va konfedensialligini ta'minlovchi a''arat va dasturiy vositalar to''lami, axborotdan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish choralar;

axborot egalariga yoki axborotdan foydalanuvchilarga hamda uni qo'llab quvvatlovchi infratuzilmaga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan ta'sir etishlardan axborot va uni qo'llab quvvatlovchi infratuzilmaning himoyalanganligi;

fugorolar, alohida guruhlar va ijtimoiy qatlamlar, umuman olganda aholining yashash faoliyati, ta'lim olish va rivojlanishlari uchun zarur bo'lgan sifatli axborotga bo'lgan talablarining himoyalanganligi.

Axborotni muhofaza qilish - axborot xavfsizligining (ma'lumotlarning butunligi, foydalana olish va zarur bo'lganda, ma'lumotlarni kiritish, saqlash, qayta ishslash va uzatishda foydalanimuvchi axborot va uning zahiralari konfedensialligi) muhim jihatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlar majmuidir.

Xavfsiz tizimda tegishli a''arat va dasturiy vositalardan foydalanaib, axborotni o'qish, yozish, hosil qilish va o'chirish huquqiga ega shaxslar yoki ular nomidan amalga oshiradigan jarayonlar orqali axborotdan foydalana olish boshqariladi.

Ma'lumki, absolut xavfsiz tizimlar mavjud emas, lekin «ishonish mumkin bo'lgan tizim» ma'nosidagi ishonchli tizimlardan foydalaniлади. Yetarlicha a''arat va dasturiy vositalardan foydalanaib, bir vaqtning o'zida turli maxfiylik darajasidagi ma'lumotlarni foydalanuvchilar guruhi tomonidan foydalanish huquqlarini buzmagan holda qayta ishslash imkonini beruvchi tizim ishonchli hisoblanadi.

Nazorat savollari.

1. Terrorizm nima va uni kelib chiqish omillari nimadan iborat?
2. O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risi" dagi qonuni qachon qabul qilingan va u qanday qismlardan iborat?
3. SHubhali buyum topib olsangiz nima qilasiz?

4. Garovga tushub qolgan odam qanday harakat qilishi kerak?
5. Axborot xavfsizligi haqida nima bilasiz?

ZILZILA VA ULARDA HARAKATLANISH TARTIBI. ZILZILA OQIBATLARIDAN MUHOFAZALANISH USULLARI

1. Zilzilalar (yer qimirlashlari) tavsiloti to'g'risida tushunchalar.

Yer qimirlashi, bu yer osti qudratli tektonik kuchlar va energiya hisobiga paydo bo'ladigan seysmik hodisalardir. Yer osti ichki energiyasi seysmik to'lqin uzunasiga yoki kundalang tarzda tarkalib, buning natijasida yer qobiqi katlamlarining buzilishi (shikastlanishi) kuzatiladi. Tebranish ta'sir kuchi ko'pincha yer ostining 20-30 km, bahzan 100 km chuqurligidan chikadi.

Tebranish to'lqining ta'sir qilish kuchi odatda ballarda o'lchanadi. O'zbekistonda 12 balli shkala qabul kilingan. Yer silkinish, uning tabiatiga ko'ra turlicha bo'ladi.

Ya'ni yer qahridagi tog'h jinslari ko'chishi jarayonida vujudga keladigan tektonik yer qimirlashi.

Vulkanlar otlishi natijasida paydo bo'ladigan vulkonli yer qimirlashi.

Tog' jinslari joylashgan qatlamlar orasidagi bo'shliklarda ishkor hosil bo'lishi va uning ta'sirida emirilish jarayonlari oqibatida hosil bo'ladigan yer silkinishlari uchraydi.

Sayyoramizda yer qimirlash deyarli harkuni harxil darajada ro'y beradi. 1 yilda 1000 martagacha yer silkinishlari sodir bo'lib, shundan 8-10 tasi uta xavflidir. Ta'sir qilish darajasiga qarab silkinishlar, kuchsiz (3 balgacha), o'rta (4 bal), kuchli (5 bal), juda kuchli (7 bal), vayron qiluvchi (8-10 bal) va nixoyat halokatlarga olib keluvchi (11-12 balgacha) turlari mavjud.

SHu narsa ma'lumki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, yer qimirlashlari ko'p talofatlarga sabab bo'ladi. Katta zarar keltiridi, vayron qiladi, odamlarni halok qiladi. Masalan: Yaponiyada 1923 yilning 1- sentyabrida ro'y bergen bir necha sekundli yer qimirlashi, 19 oy davom etgan "Rus-Ya'on urushi" ga qaraganda 5 marta ko'p zarar keltirgan. Bunda 127000 uy to'la, 126000 uy qisman emirilgan. 447000 uy yonib ketgan, suv to'lqini 868 imoratni yemirdi, 8000 'aroxod, kema va barjalar suvgaga cho'kib ketgan. 143000 kishi yaralangan, ular orasida o'lganlari ham ko'p bo'lgan. Keyingi yillarda o'zaro hamkorlik mamalakatlarida bir necha kuchli yer qimirlashlari kuzatildi.

6 oktyabr 1948 yili Ashxabod shahrida 9 balli yer qimirlab, bunda 50000 kishi halok bo'lgan.

26 aprel 1966 yili Toshkent shahrida 8 balli yer qimirlab, bunda 5000 kishi.

7 dekabr 1988 yili Armanistonda 9 balli yer qimirlab, bunda 65000 kishi halok buldi, 80000 kishi yaralandi.

1989 yili yanvar oyida Tojikistonda 8 balli yer qimirlab, 12000 kishi halok buldi.

1975 va 1984 yillarda Buxoroning "Gazli" shahrida 9-10 balli yer

qimirlashida Buxoro-Ural gaz kuvuri uzilib ketgan. Yer qimirlash oqibatida butun shahar kishloklar vayron bo'lib, ulardagi aholi yashaydigan uylar, mакtablar, zavod-fabrikalar, fermalar buzilishlari natijasida odamlar kurbon buldi, yaralandi, hayvonlar kirildi, tabiiy boyliklarga katta zarar etkazdi, moddiy boyliklar yukoldi.



6- rasm. Toshkent, 1966 yil, 26 aprel.

2. Kuchli zilzilada nima qilish kerak.

Kuchli zilzila ro'y berganda kanday harakat kilasiz oldindan uylab kuring. Bilib kuyinki, hayvonlarni bezovta bo'lishi, qudukdagi suv sathini kutarilishi va ranggini o'zgarishi, atmosferani yorishishi, qattiq ovoz kelishi – bular tabiiy ofat darakchisi.

SAROSIMAGA TUSHMANG ! Bu bilan atrofingizdagи bolalar, ayollar, kariyalarga o'rnak bulasiz, ularni qurqinchini yengishda yordam berasiz.

ESLAB QOLING ! Sizning xotirjamligingiz tabiiy ofatni engish garovidir.

Uzoq davom etuvchi tebranishda zilzila asta-sekin kuchayadi.

Ko'p qavatli bino uchun bunday ta'sir xavfli hisoblanadi. Sinch usulida qurilgan shaxsiy uylar, bir-ikki qavatli binolar xavfsizligi yuqori hisoblanadi.

Toshkent oldi, Fargona vodiysi hududlarida yashovchi aholi yer silkinishida zudlik bilan harakat qilishi lozim.

Yuqori to'lqinli tebranish kiska vaqt (1,5-3 sekund) ichida o'z kuchini ko'rsatadi. Bu xildagi tebranishlar 'ishik gishtli uylar uchun xavfliligini esdan chiqarmang.

3. Yer qimirlaguncha oldindan o'tkaziladigan himoya tadbirlari.

1. Kuchli zilzilalar oqibatida zararlarni kamaytirish maksadida tashkilotlar, muassasalar raxbarlari kuriishlarini zilzilaga bardoshli bo'lishini ta'minlash.
2. Maxalliy sharoitdan kelib chikkan holda aholini ogohlantirish reja tadbirlarini tuzish.
3. Oldindan uyda, ishda, institutda, maktabda saklanish uchun xavfsiz joylarni belgilab olish (ular xona burchagi, asosiy devor, ustunlar osti, stollar, 'artalar, dastgoxlar tagi bush bo'lishi mumkin).
4. Yo'laklar, kirish, chiqish joylarini katta og'ir buyumlar bilan tusib kuymang. eshiklar bemalol ochilib-yo'iladigan bo'lishi kerak.
5. Jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish qoidalarini urganing.
6. Shaxsiy tibbiy a'techka doimo birinchi yordam uchun dori-darmon bilan tula bo'lishi kerak.
7. Xonalardagi jixozlarni, mebelni joylashtirganda odamlarga xalakit bermasligini,

- ulardan jarohat olmasligini hisobga olish kerak.
8. Zaharli, tez yonib ketadigan suyukliklarni tukilib ketmasligi uchun aloxida xavfsiz joylarda saklang. Qulay joyga ut uchirish vositalarini joylashtiring.
 9. Elektr tokini, gazni, suvni zudlik bilan berkitishni urganing.
 10. SHaxsiy xujjatlaringizni, kimmat baxo kogozlarni yonmaydigan kutilarda qulay joylarda saklang.
 11. Tabiiy ofat vaqtida saklanish uchun oilangizga oldindan panagox tayyorlang. Bular bog xovli, garaj, xovlidagi yerto'la bo'lishi mumkin. Bu joylarda 3 kunlik ozik-ovqat, suv, issik kiyim bosh zahirasini saklanishini ta'minlang.
 12. Vaximasiz, uyin usulida bolalarga zilzila uyda, mакtabda, kuchada va transportda sodir bo'lganda nima qilish kerakligini urgating.
 13. Kariyalarni, nogironlarni, kasallarni xavfsizligini kanday ta'minlashni oldindan uylang.



7-rasm. Xavf manbalarini kamaytirish choralari.

4. Qattiq silkinishda nimalar qilish kerak ?

Zilzila ro'y berganda qayerda bo'lishingizdan qathiy nazar esankiramang, chunki sizo'z harakatingizni oldindan rejalashtirgansiz.

Tez harakat kiling !

Esdan chikarmang ! Sizning ixtiyoriningizda 1,5-2,5 sekund bor. eng xavflisi te'adan tushadigan buyumlardir.

Agar siz ko'p qavatli bino ichida bo'lsangiz, liftga yoki 'illa'oyaga cho'mang, chunki bu joylar binoning eng xavfli kismi hisoblanadi. Xavfsiz joy to'ishga harakat kiling. eshik oralig'iga, stol, karavot tagiga yashirinish mumkin.

Agar siz birinchi qavatda yoki shaxsiy uyda bo'lsangiz binoni zudlik bilan tashlab chiqib ketishga harakat kiling va elektr uzatish tarmoklari, gaz kuvurlaridan uzoklapping.

Birinchi qavatdan yuqorida bo'lsangiz darazadan sakramang, yuqoridan tushishi mumkin bo'lgan oyna parchalaridan extiyot buling. Aholi ko'p tu'lanadigan (magazin, kinoteatr, metro, maktablarda) joylarda umumiyl vaximaga tushib kolmang. Asosiy devorlarga yakinrok turing. Osilib turgan lyustralardan, reklamalardan uzokrokda turing.

Transportlarni elektr uzatish liniyalari, yonilgi kuyish shaxoblarlarchalari, ko'p

qavatli binolar, tosh tushishi mumkin bo'lgan yonbagirliklardan uzokrokda tuxtang.

Zilzila qishlok joylarida ro'y berganda sel kelishi xavfi tugiladi, shuning uchun te'aliklarga joylashish kerak.

Molxonalar atrofida xurkib ketgan hayvonlardan ehtiyyot buling.

5. Zilziladan keyin nima qilish kerak.

Vaziyatni baholang, yongin, gaz chiqishi, ochik elektr simlarini xavfi bormi tekshiring. Xech kachon ochik olovdan foydalanmang. Fonarlar oldindan tayyorlab kuyilgan bo'lishi kerak.

Zilziladan keyin birinchi soatlarda zaruratsiz uyga kirmang – bu xavfli. O'zbekistonning garbiy hududlarida birinchi tebranishdan so'ng, ikkinchisi kutiladi.

Binoni ichida chiqishda 'illa'oyalarni mustahkamligini tekshirib kuring. Yongin chikkanda bor imkoniyatlardan foydalanib, zudlik bilan binodan chiqib keting.

Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsating,sovuk bulmasligi uchun urab kuying. Zilziladan keyin ob-xavo keskin uzgarishi mumkin.

Telefonni zaruratsiz band qilmang, fakat gaz chiqishi, yongin tugrisida Favqulodda vaziyatlar boshkarmasiga, militsiya yoki ut uchirish bulimiga qo'ng'irok qilishda foydalaning.

Ayollar va bolalar, zilzila ro'y bergen joylarni tomosha kilgani shoshilmang. sizlar Favqulodda vaziyatlar boshkarmasi tuzulmalari, qutqaruvchilarni jabrlanganlarga yordam berishiga xalakit berasizlar.

Iloji boricha o'zingizga va yakinlaringizga kalin ust-bosh, mustahkam oyok kiyimi kiyishini ta'minlang, chunki singan oyna parchalari, simlardan jarohatlanish mumkin.

Uy hayvonlarini Favqulodda vaziyat ro'y bergen joydan olib ketilishini ta'minlang.

Yer, tula shkaflar eshigini extiyotkorlik bilan oching, sizning ustingizga ogir buyumlar, tusinlar, shuvoklar tushib ketishi mumkin.

Oziq-ovqat zahiralarini tekshirib ko'ring. Tez buziladigan oziq-ovqatlarni oldinroq, kontserva, quritilgan mevalarni keyinroq istehmol qiling.

6. Zilzilaning ikkinchi oqibatlari.

Zilzilaning ikkinchi oqibatlari – bu yer yorilishi, yer cho'kishi yoki ko'tarilishi, surilishi, sel kelishi, toshlarni ko'chishi, kuchli changli bo'ronlar va yonginlar sodir bo'lismidir.

Zilziladan saklanishning oddiy usullarini bilish o'zingizni va yaqinlaringizni xayotini saqlab qoladi, moddiy zararni bir muncha kamaytiradi.

Odamlar o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan va xavfli hududdan odamlarni vaqtincha ko'chirishni yoki xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun kuchirishni talab qiluvchi yer ko'chishlar, tog'h o''irilishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar.

Nazorat savollari:

1. Zilzilaning sabablari nimalardan iborat?
2. Qattiq silkinish vaqtida nima qilish kerak?
3. Yer qimirlaguncha ko'rildigan chora tadbirlar nimalardan iborat?
4. Zilzilaning ikkinchi oqibatlari nimalardan iborat?

GIDROMETEOROLOGIK XAVFLI HODISALAR BILAN BOG'LIQ FAVQULODDA VAZIYATLAR HAMDA ULARDA XAVFSIZLIK QOIDALARIGA RIOYA ETISH

1. Gidrometeorologik xavfli hodisalar.

Odamlar ulimiga, aholi punktlarini, ba'zi sanoat va qishlok xo'jaligi obe'ktlarini suv bosishiga, infratuzulmalar va transport kommunikatsiyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch kuchirish tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan suv toshqinlari, suv to'planishi va sellar.

2. Qor ko'chki xavfi zonasasi yaqinida qolgan har bir kishi nimalarni bilishi kerak?

Qor ko'chki xavfi zonasida yashaydigan odam o'z uyini ushbu ko'chki ostida qolish yoki qolmasligini bilishi shart. Xavfli yerda (maydonlarda) yashash uchun yoki boshqa maqsadda imoratlar qurmaslik

Ko'chki ko'chganda tog'h jinslarining qulashi, inshootlarning qulashi va odamlarning halokatiga sabab bo'ladi. Ko'chki kuchish xavfi haqida ogohlantirilgandan so'ng aholi mahalliy organlar tomonidan oldindan tuzilgan rejaga asosan xavfsiz joylarga ko'chiriladi; elektr, gaz va suv ta'minotini uchirish lozim.

Ko'chki sodir bo'lgandan so'ng elektr, suv va gaz ta'minoti manbaalarini tekshirib, ularning sozligiga ishonch xosil qilish zarur. Viloyatimiz hududida davlat kuzatuv xizmati tashkil qilingan va ular xavfli gidromereologik jarayonlar, shu jumladan ko'chki xavfi zonalarini tekshirish bo'yicha izlanishlar olib bormoqdalar va maxalliy hokimiyatlar bilan uzviy aloqadalar. Ular barcha xavfli uchastkalarni tekshiradilar va xavf tug'ilib qolgudek bo'lsa, tezda mahalliy hokimiyatlarga ogohlantirish xati orqali axborot berib, aholini ogohlantirish bo'yicha tadbirlar belgilashga yordam beradilar.

3. Qor ko'chkisi xavfi zonasida yashayotgan har bir Fuqaro majbur:

- Maxalliy hokimiyat tomonidan qo'yilgan javobgar shaxsning ko'rsatmasini ogohlantirish xatlarini, ko'chki mumkin bo'lganda ogohlantirish tartiblarini qathiy bajarishi;
- Ko'chki ko'chganda bu ofatni bartaraf qilishga aktiv katnashishi;
- Ko'chki va surilmalar rivojlanishidan xabar to'gan kishi darhol maxalliy komitetni ogohlantirishi va o'z vaqtida hokimiyatlar ko'chki xavfi ostida qolgan aholini tezda kuchirish choralarini kurishi, xavfli uchastkalarga belgilar kuyish va

kuzatuv xizmati xodimlarini ushbu holatni xavflilagini baholash uchun chakirishi lozim.

4. Sel kelishi xavfi sodir bo'lganda aholiga ESLATMA

Sel bu tusatdan sodir buladigan xavfli, tog' suv okimi bo'lib, tog' toshlari, kum va tu'rok jinslari bilan birgalika buladi. suv omborlari u'irilishi tog' korlari erishi yoki jala kuyishi natijasida yuzaga keladigan xavfli jarayondir.

Katta xajm va yukori tezlikka ega bo'lgan sel okimi yulidagi barcha xalk xujalik inshootlarini, aholi yashaydigan uylarini, gidrotexnik inshootlarni buzib, kishlok xujalik ekinlarini 'ayxon qiladi. Odamlar va xayvonlarni xalok qiladi.

Viloyatimizdagи selga xavli bo'lgan zonalariga barcha tog' va tog' oldi hududlariga ku' yomgir yogishi tufaylidir.

Sel oqimi vujudga kelishi aprel va may oylariga tug'ri keladi, ya'ni tog' va tog' oldi xudularida ko'p yomgir yogishi tufaylidir.



9 – rasm. Afrikadagi sel oqimlaridan biri.

5. Sel xavfi bo'lganda aholini harakat qilish qoidasi.

Sel xavfi bo'lgan hududlarda yashovchi harbir Fuqaro, xujaligini, uyini sel ta'siri chegarasida yoki yukligini bilishi shart. Sel xavfi bo'lgan maydonlarda kurilish ishlari olib bormasligi kerak.

Sel oqimi, insonlarni xalok bulishi muassasa va inshootlarni buzilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashkari elektr , gaz va suv yullarini, kuvurlarni ishdan chikarib, yongin, zaharlanish kabi xavf tugdirishi mumkin.

Sel oqimlaridan fakat kochib kutilishi mumkin. Sel xavfi tugrisida xabar etilgandan so'ng xavfsiz joyga 20-30 minut davomida chikib ketish kerak.

Sellar 3-5 soat vaqt ichida buladi. kochish iloji bulmagan holda te'alik yoki daraxt ustiga chikish kerak.

Sel oqimi utgandan so'ng devor va ustunlar holatini, gaz, elektr va suv ta'minotining sozligini tekshirish zarur.

6. Sel talofati oqibatlarini kamaytirish bo'yicha tadbirlar.

Sel xavzasi uzanlarida ishlab chikarish muassasalari va yashash joylarini

ishonchli himoya inshootlari bulmagan holda kurish kathiyan mahn etiladi.

Sel xavfi sodir bo'lganda kuzatuv va xabar xizmati tashkil etiladi.

Quyidagi agroteknik tadbirlar amalga oshiriladi:
Kirlarda yerni kundalangiga ishlov berish, tog'-adirilarida suv yullari ochish, yer xaydalib, ekiladigan ekinlarni ekishga yul kuymaslik, emirilishga qarshi tadbirlar, daryo uzanlari, tog' adirlarida urmonchilikni tashkil etish va ularni saklash.

Sel omborlari, selni ushlab turuvchi, selni boshqaruvchi va selga qarshi gidrotexnik inshoot, sel tarkatuvchilarni kurish.

Jizzax viloyatidagi Haydarko'lda 1999-2000 yilda suv zahirasi 17 mld. m^3 dan 35 mld. m^3 ga ku'ayib, keng adir-kirlar, qo'y-mol chorva yerlarini suv bosib, 65 mingm² yerni egallab, Arnasoy suvini 2 martaga ko'paytirib yubordi. Lekin talofatni oldi olinib, asorati tugatilmoxda.

Aholi punktlaridagi, sanatoriy, dam olish uylaridagi, sog'lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, turistlar va s'ortchilarning jarohatlanishiga va o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshka xavfli gidrometeorologik hodisalarini oldini olish.

Nazorat savollari:

1. Gidrometiorologik favqulodda vaziyat deganda nimani tushinasiz?
2. Qor ko'chishi xavfida qolgan inson qanday harakatlanishi kerak.
3. Qor ko'chkisi xavfi bor hududlarda yashaydigan odamlar nimalarni bilishi kerak?
4. O'zbekitonning qaysi hududlarida sel kelishi xavfi mavjud?
5. Sel talofatini kamaytirish chora tadbirlari qanday?

TRANSPORT VOSITALARI BILAN BOG'LIQ FAVQULODDA VAZIYARLAR VA ULARDA HARAKATLANISH TARTIBI

1. Transport vositalarida favqulodda vaziyatlar va ulardan muhofaza qilish

Transport vositalarida falokatlar va halokatlar oldini olish chora-tadbirlari quyidagicha amalga oshiriladi:

a) Havo transporti avariya va falokatlari, tarns'ort tizimidagi avariya va halokatlar.

Ko'rinishi: yo'lovchi, eki'aj ahzolarini halok bo'lishi, havo transportini portlashi, yer yuzidagi bino va xalq xo'jaligi obe'ktlarini buzilishi, turli darajadagi qutqaruv va tezkor ishlarni olib borishga olib keladigan holat.

Sabablar: havo transportini nosozligi; ob-havoni noqulayligi; dispecherlar aybi bilan sodir bo'ladi.

Oldini olish tadbirlari: rejaviy-'rofilaktik ko'rik va tahlimlashni vaqtida o'tkazilishi; boshqarish va aloqa tizimlarini ish sifatini yaxshilash.

Muhofazasi: aviatsiyadan avariyasiz foydalanish va 'arvozlar xavfsizligi bo'yicha tadbirlar tashkil etish va amalga oshirish.

b) Temir yo'l avariya va halokatlari.

Ko'rinishi: yong'inlar, portlashlar, vagonlarni yo'nalish izidan chiqishi, aholi va yo'lovchilarni halok bo'lishi, sodir etilgan joylardagi aholi va hudularni zarar ko'rishi.

Sababi: temir yo'llarning nosozligi, harakat tarkibining nosozligi, aloqa vositasini nosozligi, dispecherni ahamiyatsizligi.

Oldini olish tadbirlari: rejaviy-profilaktika ko'rik va tahlimlash ishlarni o'tkazish; boshqaruv va aloqa tizimlari ish sifatini oshirish; dispecherni xizmatini yaxshilash.

v) avtotransport avariya va halokatlari.

Ko'rinishi: transportdagi fuqarolarni halok bo'lishi, portlash va yong'inlarni chiqishi.

Sababi: transport harakat xavsizligiga rioya qilmasligi; tezlikni oshirish; spirtli ichimliklarni ichib boshqarish; texnik nosoz transportni boshqarish; yo'llarni talab darajasiga emasligi.

Oldini olish chora-tadbirlari: rejaviy 'rofilaktik ko'rik va texnik tahlimlash ishlarni vaqtida o'tkazish, nosoz transportdan foydalanmaslik, yo'l harakat qoidalariga rioya qilish va boshqalar.

Muhofazasi: DYHX organiga yo'l transport xavfsizligini ta'minlash xizmatiga rahbarlik vazifasi yuklatiladi.

g) Metro'oliten stansiyalarida ehtimol bo'lgan FV ko'rinishi: fuqarolarni nobud bo'lishi, portlash va yong'inlar sodir etilishi mumkin.

Sabablari: o'tish joylaridagi savdo do'konchalarini yuqotish va boshqalar.

Oldini olish chora-tadbirlari: rejaviy-'rofilaktik ko'rik va texnik tahlimlash ishlarni vaqtida o'tkazilishi, nosoz transport vositadan foydalanmaslik, yo'l harakati qoidasiga rioya qilish va boshqalar.

Muhofazasi: ushbu obe'ktlardagi ishlarning olib borish ahvoli va xavfsizligi ustidan davlat nazoratiga rahbarlik qilish.

d) magistral quvur tarmoqlarida neft va gaz burg'ulash maydonlaridagi bo'lishi mumkin bo'lgan avariylar.

Ko'rinishi: portlovchi moddalar bilan bog'liq yong'in va portlashlar fuqarolarni halok bo'lishi, hudud, inshoot va binolarni tuzilishi.

Sabablar: quvur tarmoqlarining, ventillarninng eskirganligi, ularni vaqtida ko'rikdan o'tkazmaslik va boshqalar.

Oldini olish chora-tadbirlari: texnik hujjatlarda ko'rastilgan me'yor talablari bo'yicha rejaviy-'rofilaktik ko'rik va tahlimlashni vaqtida o'tkazish xavfsizlik choralariga amal qilish.

Muhofazasi: Neft va milliy gaz kor'oratsiyasi avariya va halokatlarni oldini olish va bartaraf etish tadbirlarni tashkil etadi va amalga oshiradi.

Nazorat savollari:

1. Transportdagi halokatlarni oldini olish choralarini ko'rsating.
2. Temiryo'l transporti avariyalari sabablari va oldini olish choralarini ko'sating.
3. Transportdagi fuqarolarni halok bo'lishi, portlash va yong'inlar chiqishi sabablari va oldini olish choralari.

RADIATSIYA MANBALARI VA KUCHLI TA'SIR ETUVCHI ZAHARLI MODDALARNING ZAHARLI TA'SIRI

1. Radiatsiya manbalari va radiaktivlik

Bir qancha ilmiy tekshirish muassasalarida va sanoat korhonalarida har hil maqsadlar uchun radiaktiv moddalardan foydalaniladi.

Masalan, mashinasozlik sanoatida radiaktiv moddalardan quyma detallardagi kamchiliklarni va ‘ayvand qilingan joylarning va detallarning sifatini aniqlashda keng qo’llaniladi. Kristallsimon moddalarning tarkibini tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va avtomatlashtirishda ham radiaktiv nurlar yahshi natija beradi.

Ionlashgan nurlar inson organizmiga zararli ta'sir ko'rsatib, og'ir kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi bo'lishi mumkin. Uning ta'sirida inson og'ir kasallik hisoblanadigan nur, oq qon kasalligi va har hil havfli shishlar, teri kasalliklariga duchor bo'lishi mumkin. SHuningdek ionlashgan nurlar ta'sirida genetik ta'sirlanish, ya'ni keyingi avlodlarga ham ta'sir ko'rsatuvchi nasliy kasalliklar kelib chiqishi mumkin.

Radiaktiv nurlarning eng havfli joyi shundaki, inson organizmida bu kasallik yaqqol namoyon bo'luncha hech qanday belgiga ega bo'lmaydi. Aniqlangandan keyingi holat esa nihoyatda og'ir bo'lishi va ko'pincha o'lim bilan tugashi mumkin. Radiaktiv moddalar bilan ishlaganda ishni to'g'ri tashkil qilish va muhofaza choratadbirlar qo'llash havfsizlikni ta'minlaydi.

Radiaktivlik atom yadrolarining ion nurlanishlari chiqarishi natijasida boshqa bir atom yadrolarining hosil qilishidir. Radiaktiv nurlanishlar ionlovchi nurlanishlar deb ataladi, chunki bu nurlar ta'sir etgan moddalar atom va molekulalarida ionlar hosil bo'ladi. Bunday ionlovchi nurlanishlarga rentgen nurlari, radio va gamma nurlari, alhfa va beta nurlari, shuningdek neytron oqimlari kiradi.

Alhfa nurlari katta ionlashtirish hususiyatiga ega bo'lgan, harakat doirasi katta bo'limgan geliy atom yadrosining musbat zaryadlangan zarrachalari hisoblanadi. Harakat doirasi katta bo'limganligi sababli inson teri qavatigagina ta'sir qilib, terini yorib kira olmaydi, shuning uchun ham uncha zararli emas.

Beta nurlari radiaktiv moddalarning atom yadrolari tarqaladigan elektron yoki 'ozitron oqimidir. Bu nurlarning harakat doirasi ancha keng va yorib kirish qobiliyatiga ega. SHuning uchun ham inson uchun havflidir.

Gamma nurlarining ionlash qobiliyatni katta bo'lmadasa katta yorib kirish kuchiga ega bo'lib, yadro reaktsialari va radioaktiv parchalanish natijasida vujudga keladigan yuqori chastotadagi elektromagnit nurlari hisoblanadi.

Rentgen nurlari moddalarni elektron oqimlari bilan bombardimon qilganda ajralib chiqadigan elektromagnit nurlaridir. Ularni har qanday elektrovakuum qurilmalarida hosil kimlish mumkin. Bu nurlarning ionlanish hususiyatlari oz bo'lsa-da, yorib kirish hususiyati nihoyatda katta.

Radioaktiv nurlanishlarning ma'lum muhitdag'i ta'sirini aniq belgilash maqsadida «nurlanishlarning yutilgan dozasi» - D_{yu} tushunchasi kiritiladi.

$$\mathcal{D}_{\text{yo}} \text{H} \frac{W}{m}$$

bunda W-nurlantirilgan modda tomonidan ion nurlarining energiyasi, J; m-nurlantirilgan moddaning og'irligi, kg.

Yutilgan doza birligi sifatida rad qabul qilingan. 1 rad 1 kg og'irlikdagi moddaning 0,01 J energiya yutishiga to'g'ri keladi.

Rentgen va gamma nurlanishlarining miqdoriy tavsifi eks'ozitsion doza hisoblanadi.

$$D_s = \frac{Q}{m}$$

bunda, Q-bir hil elektr zaryadlariga ega bo'lgan ionlarning yig'indisi, Kl; m-havoning og'irligi, kg.

Rentgen va gamma nurlanishlarining eks'ozitsion dozasi birligi sifatida kulon/kilogramm (Kl/kg) qabul qilingan.

Rentgen va gamma nurlari nurlanishlarining eks'ozitsion dozasi kulon-kilogramm shunday birlikki, u nurlanish bilan tutashgan 1 kg quruq atmosfera havosida 1 Kl miqdordagi elektr zaryadlarining musbat va manfiy belgilari bo'lgan ionlarni vujudga keltiradi.

Rentgen va gamma nurlanishlarining tizimdan tashqaridagi birligi rentgen hisoblanadi.

Har hil radioaktiv nurlarning tirik organizmga ta'siri ularning ionlovchi va kirib boruvchi hususiyatiga bog'liq. Har hil nurlar bir hil dozada yutilganda biologik ta'siri bir-biridan farq qiladi. SHuning uchun radiatsiya havfini aniqlash maqsadida doza ekvivalenti birligi ber kiritilgan (radaning biologik ekvivalenti). 1 ber-har qanday ion nurlanishlarining biologik hujayralarda rentgen va gamma nurlanishlarining 1 rad ga teng keladigan biologik ta'siridir.

$$D_{ekv} = \frac{HD_4}{K}$$

bunda: K-sifat koeffitsienti. Bu koeffitsient ishlatilayotgan nurlanuvchi modda biologik ta'sirining birligi sifatida qabul qilingan rentgen nurlanishlari ta'sirini nisbati hisoblanadi.

2. Zararli yoki zaharli moddalar haqida tushuncha

Odam tanasiga o'tib, uning to'qimalariga kimyoviy, fizik-kimyoviy ta'sir qiladigan, mehnat unumdarligini pasayishiga olib keladigan moddalar zararli yoki zaharli moddalar deb ataladi. Ular kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqariladi va qo'llaniladi. Sanoatda zaharli moddalar odam tanasiga nafas olish yo'li yoki teri orqali, ovqat eyish vaqtida, ifloslangan suvni istehmol qilganda o'tadi va saqlanuvchan zaharlanishga olib keladi.

Kuchli zaharlanish ko'proq miqdordagi zararli moddalarni to'satdan tanaga o'tishi bilan sodir bo'ladi. SHuningdek, zararli moddalarni tanaga oz-ozdan o'tishi va yig'ilishi natijasida kasb kasalliklari kelib chiqadi.

Zararli yoki zaharli moddalarning ta'siri ularning tarkibiga, tuzilishiga, fizik-kimyoviy xususiyatlariga, xossalariiga, miqdoriga, tanaga o'tish yo'llariga, holatiga, uchuvchanligiga, suvda va yog'da eruvchanligiga bog'liq. Kimyo sanoati korxonalarda olinadigan, ishlatiladigan moddalar va mahsulotlarning ko'pchiligi,

masalan, ammiak, gazlar, benzol, benzin, kerosin, karbon vodorodlar, spirtlar, efirlar, kislotalar, ishqorlar va boshqalar zaharli hisoblanadi.

Neft mahsulotlari tarkibidagi past molekulali karbon vodorodlar molekulyar og'irligi oshishi bilan ularning zaharlash qobiliyati ortadi. Masalan, butanning ta'siri etandan, etilen esa etandan, atsitilen esa etilindan kuchlidir. Normal tuzilishdagi moddalarga nisbatan tarmoqlangan, zanjirli birikmalarni ta'siri kamroq bo'ladi.

Moddalarning uchuvchanligi kamayib borishi bilan (dekan ($S_{10}N_{22}$) dan boshlab) ularning ta'sirchanligi ham kamayadi. Karbon vodorodlar tarkibiga galogenlarni kiritish ularning zaharlash qobiliyatini oshiradi, aksincha gidroksil guruhining kiritilishi ta'sirchanlik xususiyatini kamaytiradi. Kimyoviy moddalarning gomologik qatorini o'rganish natijalari ko'pgina o'xshash moddalarning haqida fikr yuritishda, kasalliklar va zaharlanishlarning oldini olishda ma'lum darajada yordam beradi. Zaharli moddalarning suvda, tanadagi suyuqliklarda eruvchanligining oshishi bilan ularni ta'sirchanligi ham ortib boradi. Masalan, suvda eruvchan oq mishyak (As_2O_3) kuchli zahar, kam eruvchani (As_2S_3) zaharsiz, eruvchan bariy xloridi ($BaCl_2$) zaharli, bariy sulfat ($BaSO_4$) esa zaharsiz.

3. Zaharli moddalarning guruhlari

Zaharli moddalarning odam tanasi va ayrim to'qimalarga ko'rsatadigan ta'siriga qarab shartli ravishda 9 guruhgaga bo'lingan:

1. Asab tizimi zaharlariga benzin, kerosin, yog' spirtlari, karbon vodorodlar, metanol, anilin, vodorod sulfidi, dioksan, ammiak, nikotin, kofein, tetraetil qo'rg'oshin, fosforli organik birikmalar va boshqalar misol bo'ladi. Ular asosan markaziy asab tizimini shikastlaydi.

2. Jigar zaharlariga tarkibida xlor, brom, ftor, yod bo'lgan birikmalar misol bo'ladi. Ular jigar to'qimasi faoliyatining buzilishiga, jigarning qattiq yallig'lanishiga sabab bo'ladi.

3. Qon zaharlariga karbonat angidridi, amino-nitro birikmalarning aromatik qatori, fenil gidrazin, mishyak, benzol, toluol, ksilol va boshqalar misol bo'ladi. Ular qon tarkibining buzilishiga, to'qimada kislorodning kamayib ketishiga, hatto o'limga ham olib keladi.

4. Ferment zaharlariga kiruvchi simob, mishyak, tsian birikmalarini fosforli va organik birikmalar (tiofos, metafos) tanani biologik katalizatorlari hisoblanadigan fermentlarning guruhlari bilan bog'lanib, ular faoliyatining buzilishiga, ya'ni zaharlanishiga olib keladi.

5. Qitiqlovchi, kuydiruvchi zaharlar yuqori va quyi nafas olish yo'llarini shikastlab, ularni kasallanishiga olib keladi. Bunday zaharlarga xlor, ammiak, azot oksidi, fenol, kislotalar, ishqorlar misol bo'ladi.

6. Allergik zaharlar. Nikel, berilliy birikmalar, nitroxlorbenzol, 'iridin birikmalar, ursol va boshqalar tananining reaktsion qobiliyatini o'zgartiradi, terining yallig'lanishiga, nafas olish yo'llarining torayishiga va boshqa kasalliklarga olib keladi.

7. Kontserogen zaharlar hisoblangan toshko'mir smolasi, amino va izo birikmalar, xlorbenzidin, qurum, qora kuya va boshqalar tanada shish, rak kasalligini keltirib chiqaradi.

8. Mutagen zaharlarga etilenamin, etilen oksidi, xlorli karbon vodorodlar, qo'rg'oshin va simob birikmalari misol bo'lib, ular odam va hayvonlar jinsiy organiga qattiq ta'sir etadi.

9. Embriotro' zaharlar (tolit amid va boshqalar) odam va hayvonlarning tug'ilishiga salbiy ta'sir etadi. Naslni yo'q qiladi.

Nazorat savollari:

1. Radiatsiya manbalari va radioaktivlik nima.
2. Qanday moddalarga zararli yoki zaharli moddalar deb ataladi?
3. Zaharli moddalarning odam tanasiga kirish yo'llarini ayting?
4. Zaharli moddalarning ta'siri nimalarga bog'liq?
5. Zaharli moddalarni inson organizmiga ta'siriga ko'ra qanday guruhlarini bilasiz?

AHOLIGA RADIATSIYANING ZARARLI TA'SIRI VA UNDAN HIMYOYALANISH YO'LLARI

1. Radioaktiv nurlarning organizmiga ta'siri

Radioaktiv moddalar ma'lum hususiy hossalarga ega bo'lib, inson organizmiga ta'sir qilishi natijasida havfli vaziyat vujudga kelishi mumkin.

Radioaktiv moddalarning eng havfli tomoni shundaki, uning ta'siri inson organizmidagi sezish organlari orqali sezilmaydi. Ya'ni inson radioaktiv nurlar ta'sirida uzoq vaqt ishlashiga qaramasdan ularning zararli ta'sirlarini mutlaqo sezmasligi mumkin. Buning natijasi esa ayanchli tugaydi. SHuning uchun ham radioaktiv moddalar bilan ishlaganda, ayniqsa, o'ta ehtiyyotkor bo'lishi kerak.

Inson organizmining radioaktiv nurlanishi ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Tashqi tomondan nurlanish ma'lum tashqi nurlanuvchi manba ta'sirida kechganligi sababli, tarqalayotgan nurlarning kirib borish kuchi katta ahamiyatga ega. Kirib borish kuchi yuqori bo'lgan nurlarning organizmiga zarari ham kuchliroq bo'ladi.

Ichki nurlanish nur tarqatuvchi moddalar inson organizmining ichki tizimlariga, masalan, emirilgan teri qatlamlari orqali qonga, nafas olish ahzolari, o'pkaga va shilimshiq moddalarga, ovqat hazm qilish ahzolariga tushib qolgan taqdirda ro'y beradi.

Bunda nurlanish nur tarqatuvchi moda qancha vaqt nurlansa yoki qancha vaqt davomida organizmga saklansa, shuncha vaqt davom etadi. SHuning uchun ham radioaktiv moddalarning katta parchalanish davriga va kuchli nurlanishga ega bo'lganda, ayniqsa, havfli hisoblanadi.

Radioaktiv nurlanishlarning biologik ta'siri organizmdagi atom va molekulalarning ionlanishi sifatida tavsiflanadi va bu o'z navbatida har hil kimyoviy birikmalar tarkiblarining o'zgarishiga va normal molekulyar birikmalarda o'zilishlar bo'lishiga olib keladi. Bu o'z navbatida tirik hujayralardagi modda

almashinivuning buzilishiga va organizmda biokimyoviy jarayonlarning ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. Katta kuchdagi nurlanish ta'siri uzoq vaqt davom etsa, ba'zi bir hujayralarning halokati kuzatiladi va bu ayrim ahzolarning, hattoki butun organizmning halokati bilan tugaydi.

Radioaktiv nurlanishlar ta'sirida organizmning umumiyligini qon aylanish tizimining buzilishi kuzatiladi. Bunda qon aylanish ritmi susayadi, qonning qo'yilish hususiyati yo'qola boradi, qon tomirlari, ayniqsa, ka'ilayar qon tomirlari murt bo'lib qoladi, ovqat hazm qilish ahzolarining faoliyati buziladi, odam ozib ketadi va organizmning tashqi yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati kamayadi.

Radioaktiv moddalarning qo'lga ta'sir qilishi oldin sezilmaydi. Vaqt o'tishi bilan qo'l qurushqoq bo'lib qoladi, unda yorilishlar kuzatiladi, tirnoqlar tushib ketadi. Radioaktiv nurlarning alhfa va beta nurlari tashqaridan ta'sir ko'rsatganda organizmning teri qavati etarlicha qarshilik ko'rsata oladi. Ammo bu radioaktiv nurlar ovqat hazm qilish ahzolariga tushib qolganda ularning zararli ta'siri kuchayib ketadi.

Ko'pchilik radioaktiv moddalalar organizmning ba'zi bir qismlarida yig'ilish hususiyatiga ega. Masalan jigar, buyrak va suyaklarda yig'ilishi butun organizmni tezda ishdan chiqaradi. Ba'zi bir radioaktiv moddalalar zararli bo'lib, ularning zaharlilik darajasi eng havfli zararli moddalarnikidan ham yuqori bo'ladi.

Organizmning nurlanish dozasini hisobga olib radioaktiv moddaning inson organizmidagi miqdorini baholash mumkin.

2. Radioaktiv nurlarni normalash

Radioaktiv izoto'lar bilan ish bajariladigan sanoat korhonalarida, bu korhonalarda to'g'ridan-to'g'ri shu izoto'lar bilan ishlayotganlardan tashqari, qo'shni honalarda boshqa ishlar bilan shug'ullanayotganlar, shuningdek sanoat korhonasi joylashgan zonada yashovchilar ham birmuncha radioaktiv nurlanishlar ta'siriga tushib qolishlarini hisobga olish kerak. Ishchilarni va boshqa ishlar bilan radioaktiv zonalarda shug'ullanayotgan va yashayotgan shahslarning havfsizligini taminlashning asosiy vositalari: havfsiz oraliq masofalari bilan taminlash, nurlanish vaqtini kamaytirish, umumiyligini muhofaza vositalari va shahsiy himoya vositalaridan foydalanishdir. Bunda radioaktiv nurlanishlar miqdorini o'lchash asboblaridan foydalanib nurlanish dozasini bilish muhim ahamiyatga ega.

Ionlashtirilgan nurlanishlardan ishchilarni saqlash qoida va normalari hamda qo'llaniladigan himoya vositalari juda hilma-hildir.

Asosiy normalovchi hujjat sifatida quyidagilardan foydalaniladi: «Radioaktiv havfsizlik normalari (NRB-76)». «Radioaktiv moddalalar va boshqa ionlashgan nurlanish manbalari bilan ishlovchilar uchun asosiy sanitariya qoidalari». Rentgen qurilmalari. Havfsizlikning umumiyligini talablari. Ishchilarni muhofaza qilish vositalari sinflari». Joriy qilingan normalar bo'yicha nurlanishning yo'l qo'yiladigan dozasi (YQB), shuningdek ishlovchi uchun bir yillik nurlanish darajasi

50 yil davomida organizmda yig'ilgan taqdirda uning sog'ligiga va avlodlari sog'ligiga zarar etmaydigan miqdorlari belgilangan.

Radioaktiv nurlanishlar kishi organizmining hammasiga birdan ta'sir ko'rsatmasdan, ba'zi bir ahzo va hujayralarini ko'proq zararlanishi aniqlangan. SHuning uchun ham nurlanishning umumiy dozasi emas, balki organizmning kaysi qismida radioaktiv nurlanuvchi moddalar yig'ilganligi hisobga olinadi. CHunki bu yig'ilgan qismlardagi radioaktiv moddalar butun organizm falokatini taminlashi mumkin.

SHuning uchun radioaktiv nurlanishlarni havfsizlik normalari NRB-76 bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan dozalari ichki va tashqi nurlanishlar bo'yicha belgilanganda, nurlanuvchilar toifasi va havfli ahzolar hisobga olinadi.

A-toifasi: ionli nurlanishlar manbalarida mehnat qilganliklari sababli, nurlanish ta'siriga duchor bo'lishi mumkin bo'lgan shahslar.

B-toifasi: nurlanishlar bilan ish olib boriladigan sanoat korhonasi joylashgan joyda, yoki unga yaqin zonalarda yashovchi shahslar.

V-toifasi: mamlakatning hamma aholi yashash punktlari.

Ichki va tashqi nurlanishlar uchun yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doza inson organizmining muhim qismlarini 3 guruhga bo'lish bilan belgilanadi:

butun tana, qizil suyak iligi;

muskullar, qalqonsimon bez, yog' to''lovchi hujayralar, jigar, buyrak, taloq, ovqat hazm qilish ahzolari, o'pka, ko'z qorachig'i va boshqalar;

suyak to'qimalari, qo'l terisi, elka, boldir va tovonlar.

A toifasiga kiradigan ishchilarning muhim havfli ahzolarining ichki va tashqi nurlanishda yo'l qo'yiladigan dozasi quyidagicha:

1.-jadval

Havfli organlar va hujayralar guruhi	Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doza, (ber)	
	1 chorakda	1 yilda
1	3	5
2	8	15
3	15	30

Har qanday holatda ham 30 yil davomida yig'ilgan doza yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan dozadan 12 martadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Nurlanish ta'siridagi kishilar toifalari	Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doza (yiliga ber hisobida, havfli organlar guruhlari uchun)		
	1	2	3
A	5	15	50
B	0,5	1,5	3

Nurlanishning yo’l qo’yilishi mumkin bo’lgan dozasi A toifasidagi ishchilar 1 toifa ahzolari uchun quyidagi formula bilan aniqlanadigan dozadan ortib ketmasligi kerak.

Ishchilarning ichki nurlanishlarini kamaytirish uchun radioaktiv moddalarini ochiq holatda ishlatishga yo’l qo’ymaslik, odam ichki ahzolariga, honadagi havo muhitiga tushib kolmasligini taminlash, shuningdek radioaktiv moddalar bilan qo’l, kiyim va honadagi jihozlar yuzasini zararlanishdan saqlash kerak. Ochiq holda ishlatilganda ichdan nurlantirish havfi bo’lgan radioaktiv moddalar besh guruhga bo’linadi.

A-nihoyatda yuqori nurlanish faolligiga ega bo’lgan izoto’lar;

B-yuqori nurlanish faolligiga ega bo’lgan izoto’lar;

G-kichik nurlanish faolligiga ega bo’lgan izoto’lar;

D-nurlanish faolligi juda kam bo’lgan izoto’lar.

Radioaktiv moddalar bilan ochiq holda ishlaganda ularning zararli nurlanish aktivligiga qarab uch sinfga bo’linadi. Zararli nurlanish aktivligi bo’yicha 3 sinfga mansub moddalar kimyo labaratoriylarida ishlash mumkin. 1 va 2 sinf moddalar bilan esa, mahsus jihozlangan va ma’lum sanitariya-gigiyena va tehnik talabga javob beradigan honalarda ish olib borish tavsiya etiladi. 3 sinf moddalarini ishlatganda ba’zi bir engil operasiyalarni ish stolida, asosan esa, mahsus shamollatiladigan shkaflarda bajariladi. 1 va 2 sinf radioaktiv moddalar bilan ishlash asosan shamollatiladigan shkaflarda yoki mahsus bokslarda amalga oshiriladi.

Radioaktiv moddalar bilan ishlaganda, radioaktiv modda zarralari ish joylarini, odamning qo’llari va boshqa ochiq tana qismlariga o’tirib qolishi, havo muhitiga o’tib qolishi va u yerda radioaktiv nurlanish manbalari hosil qilishi mumkin. SHuningdek bu radioaktiv changsimon moddalar nafas yo’llari yoki teri orqali organizm ichki ahzolariga kirib qolishi mumkin.

Terining nurlanish dozasini katta aniqlik bilan hisoblash imkoniyatlari bor. Buning uchun ish bajarilayotgan zonaning zararlanish darajasi aniqlanadi. Bunda ishlatilayotgan moddaning aktivligi va zararlangan yuzaning kattaligi hisobga olinadi.

Ichdan nurlanish dozasini hisoblash ancha qiyin, chunki, u bir qancha omillarga bog’liq. Terini muhofazalash uskunalarini va honalar ishchi yuzalarining yo’l qo’yiladigan zararlanish darajasi aniqlanmaydi. Bular radioaktiv moddalar bilan ishlashda orttirilgan tajribalarga asoslangan sanitariya qoidalarida belgilanadi.

3. Radioaktiv nurlardan himoyalanish tadbirlari

Radioaktiv moddalar bilan ishlayotgan ishchilarni nurlanishdan muhofaza qilishning turli hil usullaridan foydalaniladi. Bunda nurlanish tushki va ichki bo’lishini hisobga olish zarur. Tashqi nurlanishlardan saqlanishda asosan nurlanish vaqtini belgilash nurlanayotgan modda bilan ishchi orasidagi masofani saqlash va ekranlar yordamida to’siq vositalaridan foydalaniladi. Ishchining radioaktiv nurlanish zonasida bo’lish vaqtini, uning yo’l qo’yilishi mumkin bo’lgan dozada nurlanish olish vaqtidan oshmasligi kerak.

Nurlanish intensivligi nurlanayotgan modda bilan ishchi orasidagi masofa kvadratiga teskari ‘ro’ortsional ekanligini hisobga olganda, ma’lum masofada turib ishlaganda ekranlardan foydalanmasa ham bo’ladi.

Muhofaza ekranlari konstruktsiyalari har hil bo’lib, ularning bir joyga o’rnatilgan, harakatlantiradigan, qismlarga bo’linadigan va stol ustida ishlataladigan turlari bo’ladi. Muhofaza ekranlari har hil moddalarning nurlanish zararlarini o’tkazmaslik hususiyatiga asoslangan. ekran qalinligini uni muhofaza qilishi zarur bo’lgan nurlanuvchi modda intensivligini hisobga olgan holda ma’lumotnomalarda keltirilgan jadval va nomogrammalar asosida qabul qilinadi.

Alhfa nurlanishlardan saqlanishda ekran qarshiligini hisoblashning ehtiyoji yo’q. CHunki bu nurlanishlar harakat doirasi eng kuchli radioaktiv moddalarda ham 55 mm dan oshmaydi. Alhfa nurlarining oyna, ‘leksiglaz, folhganing eng yu’qa turi ham ushlab qolish imkoniyatiga ega.

Beta nurlanishlardan muhofaza qilishda beta nurlarining harakat masofalarini hisobga olgan holda ekran moddasi va qalinligi tanlanadi.

Gamma nurlanishlardan muhofaza qilishda og’ir metallardan foydalanish kerak. Masalan, qo’rg’oshin, volhfram va boshqalar yahshi natija beradi.

O’zlarining muhofazalanish hususiyatiga ko’ra o’rtacha og’irlilikdagi metallar ekran sifatida yahshi natija beradi (po’lat, chuyan, mis birikmalari va boshqalar).

Ekranlar yordamida ish joylaridagi nurlanishni hohlagen miqdorda kamaytirish imkoniyatlari bor.

Rentgen qurilmalarini ishlatganda ikki hil nurlanish hosil bo’ladi. Bular to’g’ri tushayotgan nurlar va har hil yuzalarga tushib qaytgan nurlardir. Ish bajarilayotgan vaqtida bu nurlarning ikkalasidan ham muhofazalanish choratadbirlarini ko’rish kerak.

Muhofaza ekranlarining ‘uhta ishlayotganligi o’lchash asboblari yordamida tekshirilib turiladi. Yo’iq holdagi nurlanuvchi moddalar bilan ishlaganda asosan tashqi nurlanishlarga qarshi muhofaza aslahalaridan foydalaniladi.

Sanoat korhonalar sharoitida ishchilar metall va kristallarning tarkibi tahlilini o’tkazayotgan vaqtida rentgen nurlanishlariga yoki lampa generatorlar ta’siriga tushib qolishlari mumkin. Ishchilarining rentgen nurlari ta’sirida kasallikka chalinib qolmasliklarini taminlash uchun ish bajariladigan honalarni rentgen nurlarini o’tkazmaydigan materiallardan tayyorlangan ekranlar bilan to’sish lozim. Qo’rg’oshin ‘lastinkalari, qo’rg’oshinlashtirilgan rezina materiallari bunday nurlarni yutish qobiliyatiga ega.

Rentgen qurilmalarini quruq, yog’och ‘olli honalarga o’rnatish kerak. Bu honalarning shamollatish darajasi 3-5 dan kam bo’lmasligi kerak.

Ochiq holatdagi radioaktiv moddalar bilan faqat bosimi kamaytirilgan, mustahkam yo’ildigan shkaf, boks va kameralarda ish bajarish kerak. Qurilmaning mustahkam berkitilganligi tekshirib turiladi.

Ish bajarish joylariga qo’lqo’lar o’rnatib qo’yilgan bo’ladi. Bunday qurilmalar uchun bosim kamaytirilishi 200 ‘a dan kam bo’lmasligi va bu tekshirib turilishi kerak.

Izoto’lar bilan bajariladigan har hil operasiyalarni bokslarda bajarish tavsiya etiladi. Bokslar pleksiglaz, alyuminiy, zanglamaydigan po’lat bilan qo’langan berk

kameralardan iborat bo'lib, unga rezina qo'lqo' yoki mani'ulyatorlar o'rnatilgan bo'ladi. Boks ichidagi bosim ma'lum miqdorda kamaytirilgan bo'lib, bosim o'lchash asboblari bilan tekshirib turiladi.

Bu qurilmalar radioaktiv moddalar yordamida turli vazifalarni bajarish imkoniyatini beradigan qurilmalar bilan jihozlanadi.

Radioaktiv moddalar bilan ish bajariladigan binolarning devorlari, 'ol, shift va eshiklari tekis va silliq bo'lishi kerak. Hamma burchaklar, radioaktiv moddalardan tozalanishi oson bo'lishi uchun yarim aylana shakliga keltirildi. Honalarda shahsiy muhofaza vositalari uchun havo berish tizimlari tashkil qilinadi.

Bino mahsus sanitariya-gigiyena jihozlariga ega bo'lishi kerak. Bular yuvinish qurilmalari, dush honalari, suv ichish favvoralari va boshqalardir. Bu qurilmalar tuzilishiga ko'ra shunga o'hshash sanitariya-tehnik qurilmalaridan bir muncha farq qiladi. Masalan, qo'l yuvish qurilmalarida kran o'rniga 'edal o'rnatiladi. SHuningdek, bu honalarda albatta issiq suv ta'minoti bo'lishi shart. Kanalizatsiya tizimlari zararsizlantirish qurilmasiga ega bo'ladi.

Radioaktiv moddalar mahsus zich yo'iladigan idishlarda saqlanadi. Radioaktiv moddalar bilan ish bajariladigan va ular saqlanadigan binolarni eshiklariga radioaktiv havf belgisi qo'yiladi.

Nazorat savollari:

1. Radioaktiv moddalar inson organizmiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Radiokativ nurlarni nomallashtirish qanday amalga oshiriladi?
3. Radioaktiv nurlardan himoyalanish tartibi qanday?

KUCHLI TA'SIR ETUVCHI ZAHARLI MODDALARDAN MUHOFAZALANISH VA UNDAN ZAHARLANGANDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH

1. Korxonalarda zaharli gazlarni ajralib chiqishi va ularga qarshi kurash

Sanoatda ishlab chiqarish zaharli deb, odamni mehnat faoliyati sharoitida ta'sir etadigan, ish qobiliyati va sog'lig'ini susaytiradigan kasbiy yoki ishlab chiqarishda ro'y beradigan zararlanishlarni vujudga keltiradigan omillarga aytildi. Ularni asosan toksikologiya fani o'rganadi. Bu fan ishlab chiqarish zaharlarining organizmga ta'sir qilish belgilarini o'rganadi, ularning zaharlilik va xavflilik darajasini belgilaydi, gigienik me'yorlar va tavsiyalar ishlab chiqadi.

Zaharlar umumiylari va mahalliy ta'sir qilishi mumkin. Umumiy ta'sir zaharning qonga so'riliishi natijasida rivojlanadi. Masalan, marganetsdan zaharlanishda asab tizimi, benzol ta'sirida esa qon ajratish organlari zarar ko'radi. Mahalliy ta'sir ko'rsatishda to'qimalarning shikastlanishi: ta'sirlanish, yallig'lanish hodisalari, ishqoriy va kislotali eritmalar va bug'lar bilan ishlaganda teri hamda shilliq pardalarning kuyishi sodir bo'ladi.

Ishlab chiqarishda zaharlanishlar o'tkir, o'rtacha va surunkali shakllarda o'tadi. O'tkir zaharlanishlar asosan guruh holatida bo'ladi. Bu zararlanishlar quyidagicha xarakterlanadi:

1. Zaharlar qisqa muddatda-bir smenada ta'sir qiladi;
2. Organizmga zaharlar katta miqdorda tushishi, xavodagi miqdori juda yuqori bo'lishi, kimyoviy moddani bilmay ichib qo'yilishi yoki teri qattiq ifloslanishi natijasida sodir bo'ladi.



10 – rasm. Zaharli moddalar manbalari

Surunkali zaharlanishlar, organizmga oz-oz miqdordagi zaharlarning uzoq vaqt asta-sekin yig'ilishi natijasida yuzaga keladi. Organizmda zaharning o'zi yig'ilishi yoki o'zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, benzoldan o'tkir zaharlanishda asosan asab tizimi zarar ko'radi va narkotik ta'sir kuzatiladi, surunkali zaharlanishda esa qon ishlab chiqarish tizimi zararlanadi. Surunkali zaharlanishlar belgilariga ko'ra o'tkir zaharlanishlarga o'xshash bo'lsada, biroq asta-sekin rivojlanadi va birmuncha surunkali kechadi.

Ishlab chiqarish zararlari boshqa salbiy oqibatlarga ham sababchi bo'ladi. Ular organizmning biologik qarshiligini pasaytiradi, yuqori nafas yo'llari, o'pka sili, yurak-tomir tizimi kasalliklari rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Undan tashqari zararlar allergik ta'sir ko'rsatishi natijasida bronxial astma, ekzema va boshqa kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Zaharli gazlar kimyoviy kurollar sifatida xam keng ko'llanilgan. Ayniqsa 1914-1918 yillarda Germaniya tomonidan ko'p qo'llanilgan. 1935 yilda Italiya Abbesiniyada, Yaponiya esa Xitoyda, Amerika 1952-1953 yillari Koreyada, so'ngra Vietnamda qo'llagan.. Kimyoviy gazlarning bir turi chechen zo'ravonlariga qarshi Moskvada ham qo'llanilgan.

Havoga tarqalgan zaharli moddalarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Tezda parchalanib ketadigan zaharli moddalar,
2. Barqaror zaharli moddalar.

Barqaror zaharli moddalar o'z navbatida fiziologik ta'siriga qarab ham bo'linadi:

- teri-kasalligini keltirib chiqaruvchilar - i'rit, lyuizit.
- ruxiy zaharlovchi(nervno' aralitik)lar - tabun, zarin, zoman.
- ko'zni achishtiruvchi (lakrimator)lar –xloratsetofenon, brombenziltsianid.

Bu zaharli moddalar asta sekinlik bilan bug'lanadi va bir necha kungacha ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Tezda parchalanib ketedigan zaharovchi moddalar ham o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- umumiy zaharovchi moddalar-tsian kislota, xlortsian;
- bo'g'uvchi zaharovchi moddalar - fosgen, difosgen;

- aksa keltiruvchi zaharovchi moddalar – adamsit,, difenilxlorarsin. Bu zaharovchi moddalar yerning ustki atmosferasida tezda bug'lanib chiqib tez ta'sir qilish xususiyatiga egadir.

2. Zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Zaharli kimyoviy moddalar kishi organizmiga nafas olish yo'llari, teri va og'iz orqali ta'sir etishi mumkin. Zaharlanishning tashqi belgilari kimyoviy moddalarning zaharlilik xususiyatiga bog'liq Ko'pincha zaharlanishda oshqozoi og'rishi, qayd qilish, muskullarni ixtiyorsiz qiskarishi, bosh og'rig'i, umumiy kamdarmonlik, xushdan ketish kabi holatlar kuzatiladi.

Zaharlanganda birinchi navbatda zaharli moddalar ta'sirini bartaraf etish, jarohatlangan shaxsni siqib turgan kiyimlarini echish, toza xavoga olib chikish va vrachga xabar berish lozim.

Agar zaharln modda teriga tushsa, uni yumshoq material bilan artib tozalab, suv bilan yuvib, ichimlik sodasining 2% li eritmasi yordamida ishlov berish kerak.

Zaharli gazlar masalan uglerod oksidi, atsetilin, benzin bug'i va boshqalar kishi organizmiga nafas olish yo'llari orkali ta'sir etsa bosh og'rig'i, qulqoqda shovqin, bosh aylanishi, qayd qilish, ko'ngil aynishi, nafas olish og'irlashishi, ko'z qorachig'i kengayishi, hushdan ketish hollari yuz berishi mumkin. Bunday vaqtarda zaharlangan kishini toza havoga olib chiqib, kislorodli yostiqdan kislorod berish kerak. Nafas olishi sezilmaganda esa sun'iy nafas berish zarur. Zaharlangan shaxsda kuchli yutal kuzatilsa novshadil spirt hidlatish, ichimlik sodasi ko'shilgan sut, achchiq shirin choy berish, agar iloji bo'lsa ko'krakga "gorchichnik" qo'yish kerak. Agar zaharli modda ko'zga tushsa bir stakan suvga bir choy koshiq soda solib ko'zni yuvish lozim.

Nazorat savollari:

1. Turli kimyoviy korxonalardan qanday zaharli moddalar ajralib chiqadi?
2. Surunkali zaharlanish deganda nimani tushunasiz?
3. Zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qanday amalga oshiriladi?

FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOLINING MUHANDISLIK MUHOFAZASINI TASHKIL ETISH

1. Turli FVlarda fuqarolarni himoya qilish vositalari, himoya inshootlari turlari

Aholini shaxsiy himoya vositalari organizm ichiga, teri ustiga va kiyimga radioaktiv, zaharlovchi moddalarni va bakterial vositalarni tushishidan himoya qiladi.

Himoya vositalari: nafas olish va terini himoya qilish vositalariga bo'linadi. Nafas olish organlarini himoya qilish vositalariga filtrlovchi va izolyatsiya qiluvchi 'rotivogazlar, res'iratorlar, shuningdek changga qarshi gazmol niqob va paxta-dokali bog'ichlar kiradi.

Nafas olish organlarini yakka himoyalash vositalarini tasnifi rasm-8 da keltirilgan.

Terini himoya qilish vositalariga maxsus izolyatsiya qiluvchi kiyim, himoya filhtrlovchi kiyim kiradi. Dushmanning bostirib kirish xavfi tug'ilganda barcha aholi shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Tuzilmalarni shaxsiy tarkibi, ishchi va xizmatchilar shaxsiy himoya vositalarini o'z obe'ktlarida aholi esa uy boshqarmalari orqali olishadi.

Nafas olish organlarini himoya qilish vositalari:

1) 'rotivogazlar: filtrlovchi va izolyatsiya qiluvchi. Filtrlovchi 'rotivogazlarni ishlash 'rinsi'i nafas olinadigan havoni har hil zararli qo'shimchalardan oldindan tozalashga asoslangan. Filtlovchi 'rotivogazlarga G'-5(a); G'-5 m va G'-4u va boshqalar tegishli.

Filtrlovchi 'rotivogazlar havoni tozalaydi, shuning uchun uglerod oksididan himoyalanish uchun qo'shimcha 'atron ishlatiladi.

Izolyatsiya qiluvchi 'rotivogazlar (I'-4, I'-5, I' 46, I' 46 M) nafas olish


organlarini, ko'zni, yuz terisini havodagi barcha zararli moddalardan tozalashga

mo'ljallangan. Bu 'rotivogazlarni havoda kislorod yetishmaganligida ishlatiladi. Bu 'rotivogazlar regeniratsiya 'atronida nafas olish uchun havo kislorod bilan boyitiladi.

2) res'iratorlar, changa qarshi gazmol niqob va 'ahta-dokali bog'ich.

Eng keng tarqalgan R-2 res'irator bo'lib, u nafas olish organlarini radioaktiv va tu'roq changidan va bakterial vositalar ta'siridan himoya qilishda ishlatiladi. Keng tarqalgan sanoat res'iratorlarini tavsiflari jadvalda keltirilgan. Changga qarshi gazmol niqob ('TM-1) va 'ahta-dokali og'iz nafas olish yo'llarini radiokativ chang va bakterial vositalardan himoya qilishda ishlatiladi.

Zaharlovchi moddalardan ular himoya qilmaydi. 'TM-1 ikki qismdan iborat: niqob kor'usi va bog'ich. paxta-dokali bog'ich aholi tomonidan mustaqil tayyorlanadi.




Rasm - 11. Filtrlovchi ‘rotivogazlar:

a – umum harbiy ‘rotivogazi; b – G’-5 ‘rotivogazi: 1-filtrlovchi-chang yutuvchi quti; 2-shlem niqob; 3-ko’zoynaklar; 4-kla’an qutisi; 5-ulovchi trubka; 6-’rotivogaz sumkasi; 7-terlamaydigan ‘lyonkalar solingan quti.



Rasm - 12. R-2 res’iratori:


1-yarim niqob; 2-nafas olish kla’anlari;
3-nafas chiqarish kla’ani; 4-burun qisqichi;
5-boshqa taqiladigan tasma.



Rasm - 13. 'TM-1 changa

qarshi gazmol niqobi:

- 1-niqob kor'usi;
- 2-oynaklar;
- 3-bog'ich;
- 4, 5-rezinali tasmalar;
- 6-pastki bog'ich.



Rasm - 14. paxta-dokali bog'ich:

a – umumiy ko'rinishi; b – taqilish.

Terini himoya qilish vositalari:

Terini izolyatsiyalovchi himoya vositalari rezinalashtirilgan materialdan tayyorlanadi va odamlarni zararlangan hududlarda ko'p vaqt davomida bo'lganlarida,zararlanish o'choqlarida degazatsiya, dezaktivatsiya va dezinfektsiya ishlarini bajarish vaqtida foydalilanadi. Izolyatsiyalovchi himoya vositalariga L-1 Yengil himoya kostyumi, himoya kambizoni va kostyumi va umum harbiy himoya kom'lekti tegishli.Terini filtrlovchi himoya vositasi. Bu kom'lekt terini zaharovchi modda,shuningdek radioaktiv chang va bakterial vositalardan himoya qiladi.Terini oddiy himoya vositalari - barcha aholini himoya vositasi hisoblandai.

Bunga odadagi kiyimbosh ('lash, 'alto, ka'yunshon, qo'lqo' va boshqalar) kiradi.

SHunday qilib, terini himoya qilish vositalari odam terisini ZM, RM va bacterial vosita ‘arlari va tomchilaridan, shuningdek butunlay alfa-zarrachalardan himoya qiladi.

Tibbiy himoya vositasiga shaxsiy AI-2 a’techkasi kiradi. U jarohat olinganda va kuyishda o’z o’ziga va boshqalarga yordam berishga, shuningdek ZM, bakterial vositalarni va ionizatsiya qiluvchi nurlarni ta’sirini kamaytirishda ishlatiladi.

SHaxsiy himoyaga qarshi ‘aket tomchili suyuq ZM tanani ochiq joylariga yoki kiyimga tushganida zarasizlantirish uchun ishlatiladi.

2. Himoya inshootlari

Himoya inshootlari fuqarolarni tabiiy ofatlar, avariya, halokat okibatlaridan hamda kirgin qurollari ta’sir faktorlaridan va ularning ikkilamchi ta’sir faktorlaridan saklaydigan boshpanalar hisoblanadi.

Himoya inshootlari quyidagilarga bo’linadi:

a) Yunalishiga kura: fuqarolarni saklashga, boshkaruv tizimlarini va tibbiy shahobchalarni joylashtirishta muljallangan;

b) Joylashgan urniga kura: alohida joylashgan (metro’olitenlar va tog’kon qurilishlari);

v) qurilish muddatiga kura: — odtsindan qurilgan va tez quriladigan;

g) Himoyalash darajasiga kura: — boshpana, RSB va oddiy boshpana (ochik yoki yopiq yer to’lalar).

Boshpana: Boshpana — odamlarni hamma ta’sir faktorlardan (yuqori harorat, radioaktiv, portlovchi va kuchli zaharli moddalar), inshootlar buzilganda ularni kismlaridan hamda kirgin qurollari va oddiy hujumkor qurollar ta’siridan saklaydi.

Boshpanalar odamlarni qabul qilish soniga kura 5sinfga bo’linadi: kichik (150300 kishi), urtacha (300600 kishi), katta (600 dan ku’) va boshkalar.

Boshpanani kurshida quyidagi ta’ablar kuyiladi:

1)3 sutkadan kam bulmagan muddatda saklash;

2) Suv bosmaydigan joylarda kurish;

3) Okar suvlardan, kanalizatsiya kommunikatsiyalaridan hamda qurilish kommunikatsiyalaridan uzokrok joylarda kurish;

4) CHikish va kirish eshiklarining bulishi.

Boshpana ma’lum jihozlar bilan jihozlanishi shart, jumladan: shamollatgich, sanitartexnik jahrzlar, havodagi zaharli moddalarni, radioaktiv birikmalarini va biologik vositalarni tozalovchi uskunalaridan iborat bulishi kerak.

Boshpana asosiy va qo’shimcha xonalardan tashkil to’adi: Asosiy xonalarga — odamlar, boshkaruv tizimlari, tibbiy xizmat tizimlari joylashtiriladi, kushimcha xonalarga jihozlar, asbobuskunalar, oziqovqatlar, suv va boshka kerakli vositalar joylashtiriladi. Bu boshpanalar juda mustahkam qurilganligi, germetikligi yuqoriligi va sanitar gigiyena sharoiti bo’lganligidan Xalqni bir necha kun davomida betalofat saklashi mumkin. Boshpanalar odamlar yotadigan va turib saklanadigan holda buladi. Turib saklanadigan boshpanalar sifatida ishlab chiqarish, mahmuriy va Xalq yashaydigan baland uylarning yer to’lalaridan foydalaniadi. Bunda butun kirgin qurollari faktorlaridan sakdovchi kismlar, elementlar urnatilib, boshpanaga kuyilgan talablar bajariladi.

Boshpana bir necha bo'limlardan tashkil topib, har biriga 5075 odam sigishi kerak. Ular yarusli kilib jihozlanadi va har birodamga $0,5 \text{ m}^2$ joy tugri kelishi kuzda tutiladi.

Boshpana juda yahshi germetik ravishda qurilishi, ya'ni deEOrlari, xona bo'limlari juda zich kilib ishlanishi zarur. Aks holda tashkaridan radioaktiv, kimyoviy va biologik zaharlovchilar havo bilan birga kirishi mumkin.

Boshpanada kamida ikkita karama-qarshi tomondan kiradigan eshik va ehtiyyot eshigi bulishi kerak. Eshiklar tambur ti'ida ikki kavatli kilib germetik ravishda yo'iladigan bulishi lozim. Eshikni tashki tomoni juda mustahkam materialdan yasaladi, sababi, u yadro portlaganda chikadigan tulkin zarbidan saklaydi. Boshpanalar filtrlaydigan, havo almashtiradigan asbobUskunalar bilan jihozlanadi. Ularda elektr, aloqa, suv hamda kanalizatsiya va isitish tarmoqdari ham bulishi kerak. Boshpanada dozimetrik, kimyoviy razvedka jihozlari, himoyalovchi vositalar, ut uchirish qurollari, oziq ovqatlar, suv zahirasi va dori darmonlar bulishi shart.

Agar favqulodda vaziyatda alohida qurilgan boshpanalar bulmaganda tez jihozlanib, foydalanadigan boshpanalar quriladi. Bunday boshpanalarni metro'olitenlar, osti yullari, inshootlarning yer to'lalarini kerakli asbobuskunalar bilan jihozlab tayyorlanadi.

Radiatsiyadan saklovchi boshpana (RSB). Radiatsiyadan sak'ovchi boshpana (RSB) germetik bulmagan himoya inshootlari bo'lib, favqulodda vaziyatlarda fuqarolar usha yerda saklanadilar.

RSBlarga alohida qurilgan, tez jihozlanib quriladigan hillaridan tashkari, xo'jaligik maksadlarida foydalaniladigan chuqurliklar, sabzavot saklanadigan qurilmalar va odtsiy yashovchi qurilmalar kiradi.

RSBlarning saklash xususiyati — radiatsiya nurini (u) susaytirish koeffitsienti (Ku) bilan aniqlanadi va u qanday materialdan qurilganligiga va uning kalinligiga boglik (18jadval).

Masalan, yogochdan tayyorlangan uylarning yer to'lalari radiatsiya nurini 712 marta, gishtli uylar esa 200300 marta kamaytiradi. 50 nafar odamdan ku' bo'lgan RSBlarda kamida ikkita karama-qarshi tomonda eshiklar bulishi kerak, RSBlarda havo ta'minoti jihozlari bulmasligidan usha joylarda fuqarolar uzok vaqt saklana olmaydilar va uzogi bilan 46 soat bulishlari mumkin. RSBlarga odamlar kirishidan avval, eshik, romlar yahshilab urnatiladi. Oziqovqatlar, suvlar iloji boricha germetik idishlarda saklanadi. RSBda ham ikkita vazifali xonalar buladi. Asosiy xonada odamlar saklanadi, kushimcha xonada esa sanitargigienik jihozlar va havo almashtirgich joylashgan buladi. RSBning saklash xonasida ham har bir odamga

18-жадвал

Материал	a	K
сув	1	23
ёғоч	0,7	33
тупроқ	1,8	14,4
гипсит блок	1,6	15,5
шиша	1,4	16,5
бетон	2,3	10
темир	7,8	3
күргашин	11,3	2

RSBlar ham 23 yarusli utirgichlar bilan jihozlanadi. SHaharlar tashkarisidagi RSBlar sifatida foydalanish uylarining yer to'lalari, sabzavot saklandigan omborxonalar, yer to'lalar, gishtli, betonli, tu'rokli, yogochli uylar va boshka chuqurliklar moslashtiriladi.

RSBlarning saklash xususiyatini oshirish uchun ularning devorlarini kalin qilish, eshikoynalari germetikligani oshirish va ularning yon atrofini tu'rok bilan tudtsirish orqali erishiladi.

Radioaktiv shikastlangan hududlardan kelgan odamlar RSBlarga kirishlaridan oldin tamburda kiyimkechaklardagi, oyokkiyimlardagi radioaktiv changlarni yuk kilib (silkitish orqali, tozalovchi vositalar orqali), juda ehtiyyotlik bilan kiyim kechaklarni (himoya kiyimlari, oyok kiyimi) echib, keyin boshpana ichiga kirishlari kerak.

Radioaktiv zararlanishning boshlangich 35 soatlarida, boshpananing chikish eshiklari va havo almashtirish teshiklari yahshilab berkitiladi. Bu vaqt oraligida radiatsiya darajasi tezda kamayib, radioaktiv changlar esa asosan yerga tushib buladi. 46 soatlardan keyin boshpana (RSB) shamollatiladi. Himoyalanuvchi odamlar tashkariga chikkanda, albatta, himoya vositalarini kiyib 1520 dakika RSBdan tashkarida bulishlari mumkin. Agar tashkarida radiatsiya darajasi juda yuqori bo'lsa, u holda boshpana shamollatilayotganda odamlar nafas organlariga himoyalovchi vositalarni kiyib utirishlari zarur.

Oddiy saklovchi boshpana — yerto'la. Fuqarolarni muhofaza kdoshshda oddiy saklovchi bospanalar (yerto'lalar) alohida urin tutadi. Yerto'lalar qurilish konstruktsiyasiga kura oddiy himoya inshootlari katoriga kiradi, chunki uni kurish juda kiska vaqtida amalga oshiriladi. Ular ochik va yopiq kurinishda buladi. Ochik yerto'lalarda odamlar radioaktiv shikastlanishdan ikki uch marta kam zararlanadi (agar yerto'la dezaktivatsiya kilinmasa) va 20 barobarigacha (agar yerto'la dezaktivatsiya kilinsa) kam nurlanish dozasini oladi. Yopiq yerto'lalar esa radioaktiv zararlanishni 4050 marta kamaytiradi. Yerto'lalar chuqurligi 200 sm., kengligi 120 sm., pastki kismi esa 80 sm., uzunligi esa odamlar soniga qarab tayyorlanadi.

Ochik yerto'lada fuqarolar himoya vositalaridan foydalangan Holda saqlanadilar. Yopiq yerto'lalar radioaktiv changlarni, biologik tumanlarni, kimyoviy qurollarni kiyimkechaklarga, terilarga tushishidan sak'ovchi boshpana hisoblanadi.

FVlar ta'siridan saklash usullaridan yana biri — bu fuqarolarni falokat yuz bergen joydan vaqtinchalik uzoklashtirish yoki butkul evakuatsiya qilish hisoblanadi. Ish bilan mashg'ul bo'lgan odamlarni harbiy vaqtida vaqtinchalik shahardan tashkari hududga yoki boshka kishlokkha kuchirishni biz uzoklashtirish deb bilamiz. Lekin bunda ishchi xizmatchilar vaqtinchalik zararlangan hududdan chikib turadilar. Qaytadan yana ishga kelganlarida hamma ehtiyyot choralarini kurib, o'z faoliyatlarini boshlaydilar. Demak, vaqtinchalik kuchirishda ishlovchi odamlar ma'lum bir vaqt dam olib keladilar.

Evakuatsiya deganda hammani bir vaqtida bir yashash joyidan ikkinchi yashash joyiga doimiy yashash uchun kuchirilish tushuniladi (asosan ishlamaydigan

fuqarolar, nafakahurlar, bolalar va kasallar evakuatsiya qilinadi). evakuatsiya kilinganda alohida buyruk bulmaguncha fuqarolar usha joyda yashab turadilar.

Xavfsiz hudud xavfli hududdan birmuncha uzok masofada joylashgan bulishi va Xalqka hech qanday xavf tugdirmasligi lozim. Yana xavfsiz hudud temir yul, avtomobil yullariga yakin, ishchi xizmatchilarni ishga olib borib, yana kaytib kelishi uchun qulay bo'lgan joylarda tashkil etiladi. Ishga boglik bulmagan ishchilar hududdan uzokrok yerga evakuatsiya qilinadi.

Xavfsiz hududga vaqtinchalik yoki bugunlay kuchirish ishlarida ishlaydigan odamlar uchun ishlab chiqarish tamoyiliga kura, ishlamaydigan Xalq uchun esa hududiy tamoyilga kura turarjoy boshkarmasi orqali amalga oshirildi. Tadbirlar har bir ishlab chiqarish korxonasida yoki turarjoylarda bunday ishlar bilan shugullanadigan boshliq urinbosarlari tomonidan rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Kuchirish ishlarining hammasi evakuatsiya qilinadiganlarning yig'iladigan joyida tashkillashtiriladi. Yig'ilish joylari (evakuatsiya punkti — e') asosan, maktablar, klublar va boshka jamoat inshootlari budishi mumkin. Xalqni kuchirish hakida ma'lumot olganda, darhol ishlab chiqarish korxonasi, o'quv yurtlari, korxonalari, militsiya organlari hamda radio, televideniya orqali xalq xabardor qilinadi. Yig'ilgan odamlar qayta hisobdan o'tkazilib, guruhlarga bo'linadi, transport vositalariga taksimlanib, kursatilgan vaqt ichida xavfsiz hududga yetkaziladi.

Yayov yuradiganlar oldindan tuzilgan mashrut bo'yicha kolonna bo'lib (kolonnada 500000 kishi) harakat qiladi, Bunda, albatta, guruhlarga bo'linadi va har bir guruhda 50100 kishi buladi. Kolonna har 11,5 soat yurishdan keyin 1015 minut dam olib, aytilgan joyga borishi bilan hamma kolonna ahzolari tibbiy kurikdan o'tkaziladi. Bu yerda evakuatsiya kilinganlarni qabul komissiyasi kutib oladi. Bu komissiyaga usha joening hokimiyat boshliqlari, korxona rahbarlari, oziq-ovqat, tibbiyot xizmatchilari kiradi. Ular odamlarni qabul kilib, hisobini oladi va har birini joylashtiradi. Odamlar asosan, maktablarga, klublarga, kinoteatrлarga va shunga uhshash joylarga, bahzan usha yerda yashovchi oilaga ham ma'lum kism odamlar taksimlanadi. Joylashtirilgan har bir insonga tibbiy xizmat kursatilib, oziq-ovqat bilan ta'minlanadi.

Evakuatsiya kilingan fuqarolar usha yerdagi ishlab chiqarish korxonalarining evakuatsiya kilingan kismida ishslashlari mumkin.

3. Xalq xo'jaligigi tarmoqlarining favqulodda vaziyatlarda barqarorligi ta'minlash

Ma'lumki, Xalq xo'jaligigi tarmoqlarining barqaror ishslashini ta'minlash, har qanday favqulodda vaziyatlarda (harbiy yoki tinchlik davrlarida) fuqaro muhofazasining asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatlarda Xalq xo'jaligigi tarmoqlari barqarorligi deyilganda, ularning rejalashtirilgan mikdorda sifatlari mahsulotlarni ishlab chiqarishi yoki biror avariya natijasida shikastlangan ishlab chiqarish korxonalarida juda kiska vaqtida

tiklash ishlari tushuniladi. Xalq xo'jaligigi tarmoqlarini barqaror ishlashiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

Tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariyalari, fojialar hamda umumi kirgin qurollarining birlamchi va ikkilami ta'sir omillaridan ishchi xizmatchilarni muhofaza qilish;

Yuqoridagi ta'sir omillariga inshootlar muhandisteh: kom'lekslarining chidamliligi;

Ishlab chiqarish korxonalarini kerakli materiallar bilan (hom ashyo, yokilgi, gaz, suv, elektr kuvvati) barqaror ta'minlash; • Ishlab chiqarish va fuqaro muhofazasini barqaror hamda surunkali boshkarish;

Obe'ktning ishlab chiqarish tarmogi buzilgan joyida kJTIning tiklash ishlari boshkarish darajasi.

Yuqoridagi omillar nafakat inshootlarning barqarorligini ta'minlaydi, balki ularning darajasini ham oshiradi. SHu bababdan ham hozirgi davrda tinchlik davrdagi favquloddagi vaziyatlarda sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash katga ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda Xalq xo'jaligigi tarmoqlarining barqarorligiga 5 ta asosiy omillarni kullash orqali erishish mumkin:

- a) O'z vaqtida ogohlantirish;
- b) Himoya inshootlarvdan foydalanish;
- v) Yakka tartibda sak'ovchi va tibiiy vositalardan foydalanish;
- g) evakuatsiyani kullash;
- d) Hom ashyo, materiallar, elektr kuvvati, gaz, suv bilan ta'minlash.

Favqulodda vaziyatlarda Xalq xo'jaligigi tarmoqlarining barqarorligini ta'minlash uslublari

Favqulodda vaziyatlarda (tinchlik va harbiy davrlarda) Xalq xo'jaligigi tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash yullari va usullari turli hidtsa bo'lib, har bir korxona bajaradigan ishlarining xususiyatlari qarab olib boriladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida, iqtisodiy jihatidan eng qulay yulni tanlash, barcha korxona o'z inshootini, fuqarolarni muhofaza kiluvchi obe'kt sifatida, vaziyatni har tomonlama muhokama etib, keyin uning barqaror ishlashini ta'minlash yuli va usulidan foydalanishi kerak.

Inshootlar barqarorligini baholashda maxsus uslubiy ko'rsatmalarga amal qilinadi. Xalq xo'jaligigi tarmoq'arini, inshootlar barqarorligini baholashda, hisoblashda, quyidagi kursatgichlardan foydalaniladi:

- a) SHikastlantiruvchi kursatgichlarning eng yuqori kiymati;
- b) Inshootlar va ularning elementlari tavsifnomasi (kanaka material, qanday tartibda qurilgan, uning zilzila bardoshligi).

Odatda favqulodda vaziyatlarda inshootlarga ta'sir etuvchi omilar va ularning kiymati fuqaro muhofazasi shtabi tomonidan beriladi, agar unday ma'lumot kelmasa, u holda hisoblash yuli bilan shu yerning uzida aniqlanadi. Agar bu ma'lumotlarni shu yerning uzida ham aniqlash imkonи bulmasa, u holda bu ta'sir etuvchi omilarning ta'miniy kiymatlari asosida kuchsiz, urtacha va kuchli shikastlantirish hududlarini aniqlash mumkin.

Masalan, silkinishidan (ballga qarab), yadro quroli ishlatilganda ta'sir etuvchi tulkinni hosil qiladigan ortiqcha bosim (AR) kiymatiga qarab inshootlarturli hil darajada shikastlanadi.

Jumladan, silkinishining 5, 6, 7, 8, 9 ballarida yoki qurolini ARf k 10, 20, 30, 40 K'A faktorlarida kimyo, qayta ishlash, radioelektrotexnika, meditsina va shunga sanoat korxonalarida shikastlanish ruy berishi mumkin. Mashinasozlik, oziq - ovqat, metallurgiya va shunga uhshash korxonalarida esa silkinishining 5,6,7,8,9, 10, 11 ballarida hamda 10, 20, 30, 40, 50, 60 K'A ortiqcha bosim hosil dalinganda inshootlar talafotlanishi mumkin.

Albatta, bu ma'lumotlar yuqoridagi sanoat korxonalar xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilgan inshootlar sifatida qarab, ho'losa chikariladi.

Sanoat inshootlarining seysmik tulkinlar ta'siriga chidamlilik darajasini baholashda, uning elementlarida (tseh, uchastka, tizim) chikarilayotgan mahsulot, inshootlar har kaysi elementlarning omillari ta'sirida (bosim, tulkinlar) urtacha buzilishga chidamliligiga qarab inshootni butun uzini chidamligi hakida ho'losa chikariladi.

Odatda seysmik tulkinlar ta'sirida buzilgan inshoot va uning elementlarini kiska vaqt ichida hamda iqtisodiy jihatidan qulay darajada tiklash, usha inshoot chidamliligini oshirishning eng qulay yuli hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan uslublar asosida yoruglik nurlanish, utuvchi radiatsiya va boshka ta'sir faktorlari ta'sirida ham inshoot va uning elementlarining barqarorligini (chidamliligani) ham aniqlash mumkin va barqaror ishlashini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Jumladan, (u) nuri ta'sirida inshootlarni chidamliligi, shu obe'ktga keladigan maksimal (u) nur dozasi, obe'ktdagi odamlarning shikastlanish darjasи, asbobuskuna, jihozlarning buzilishi va boshka ta'sirlar orqali usha inshootlarning chidamliligi baholanadi.

Agar tulkin zARBAsida hosil buladigan ortiqcha bosim kiymati, usha inshootni chidamlilik (3050 K'A atrofida) darajasida bo'lsa, u holda 0,51 MT qurol portlatilganda ham utuvchi nur kiymati kichik buladi (520 rad. dan oshmaydi). Butsday holatda usha ishlab chiqarish inshooti va uning faoliyatiga u deyarli ta'sir etmaydi.

Xalq xo'jaligigi tarmoqlarining barqaror ishlashini oshirish omillari

Tinchlik davrida ishlab chikaruvchi va ishlab chikarmavdigan inshootlarning barqarorligini oshirish quyidagi omillardan iborat:

- Yadro quollarining birlamchi va ikkilamchi ta'sirlaridan, hamdatabiyy ofat, ishlab chiqarish avariyalari va fojalaridan ishchixizmatchilar, muhandistexnik xodimlarni muhofazaqilish;
- Moddiy texnikaning ishonchli ta'minotini boshkarish;
- Inshootlarni yoruglikdan berkitish;
- favqulodda vaziyatda shikastlangan ishlab chiqarishni tikdash va uni alohida ish rejimiga o'tkazish.

SHo'larning ichida ishchi va xizmatchilarni muhofaza qilishning eng ishonchli omili, bu Xalqxo'jaligigi tarmoqlaridagi inshooglar chidamliligini oshirish hujublanadi. SHu maksadtsa hdmoya inshootlari tayyorланади. Bunda ishlab

chiqarishlarda ku' vaqt buladigan fuqarolar — boshpanalarda, xavfsiz hududtsa buladiganlar esa RSBda himoyalananadilar.

Uzluksiz ishlaydigan ishlab chiqarish joylarida shaxsiy himoyalovchi — boshpanalar qurilib, bunda Texnologik jarayonlar shu inshootlardan turib boshkariladi. Bular dan tashkari muhofazaga tayyorlanishning eng muhim elementlaridan biri, bu ishchi va xizmatchilarni muhofazalanish qoida va usullarini kullashi, har qanday favqulodda vaziyatlarda tuzilmalar tarkibida kutkaruv hamda tiklash ishlarida harakat qilish hisoblanadi. Muhandistexnik kom'lekslarni muhofaza qilish deganda ishlab chiqarishning moddiy asoslarini saklash, uning inshootlarini, Texnologik jihozlarini, asbobuskunalarini hamda kommunalenergetik tarmoqyaarini saklash tushuniladi.

Obe'ktdagi inshootlar, qurilmalar birbiridan uzokrok masofada, ya'ni eng baland inshootning buyiga nisbatan ikki baravar masofada qurilishi kerak. Bu esa yonginga qarshi masofa hisoblanadi. Mana shunday qurilmalarning eng asosiy ishlab chiqarish inshootlari pastrok balandlikda qurilib, ular metalli yoki temirbeton karkaslardan tayyorlanishi lozim.

G'ishtli inshootlarda bulmalar tahlirlangan beton 'litalari orqali berkitilishi lozim. Yengil yonuvchan moddalarni (benzin, kerosin, mazut) saklovchi zahira xonalari, ishlab chiqarish kor'uslaridan uzokrokda, yerga yakinrok kilib (chuqurroq joylarda) qurilishi kerak.


Biror obe'ktning chidamliligi, u yerdagi inshootlar va qurilmalarning chidamlilikdarajasiga boglik. Odatta, inshootlarning chidamliligi: karkas, rom, tirgovich, havon va boshka yollar orqali oshiriladi.

Baland bulmagan qurilmalarning mustahkamligini oshirishda, usha imoratning atrofini tu'rrok bilan tuldirish muhim hisoblanadi (12rasm).


Juda baland inshootlarning (kuvurlar, minoralar va boshkalarni) mustahkamligini oshirishda, ularni har tarafdan tortib kuyish usuli qo'llaniladi




11-расм. Ерости иншоотларининг барқарорлигни ошириши:
1 — ертұла; 2 — устун; 3 — түсін;
4 — иншооттаниң бириңгі қаваты.



12-расм. Ярим ерости иншоотлариниң түпнұя билан тұлдірілген түпнұя:
1—девор; 2—бұлма; 3—тұлдидирилген түпнұя.



13-расм. Баланд иншоотларни торғычдар билан маҳкамлаш:
а — труба; б — металли иншоот.



14-расм. КТЗМ солинган идишларни ўраш:
1 — КТЗМ солинган идиш; 2 — тупроқты ўрам.

Engil yonuvchan, zaharli moddalar saklanadigan omborlarni (vdishya) saklashda, shu idish ichidagi suyuklik sigadigan darajada "OISH atrofida tu'rokbilan tusikhosil qilinadi (14rasm). % Texnologik jihozlar, asbob uskunalar va boshkalarning barqarorligini, mustahkamligini oshirishda, shu asbob uskunalar muofiqlashtirilgan qurilmalar, moslamalar kurish orqali muhofaza qilinadi. Bunday moslamalar sifatida nikoblar, kameralar, zontlar va boshkalar qo'llanilib ularning ichiga urnatilganda jihozlar inshoot bulaklaridan saklanadi.

Texnologik jihozlarni mustahkamligini oshirish uchun ularli avvalo bu moslamalardan tashkari biror mustahkam asosga (funDamentga) mahkamlab kuyish zarur hamda ularni iloji boricha itsshootlarning pastki kavatiga yoki yerto'lalarga joylashtirish qulay hisoblanadi.

Tarmoqlarni (obe'ktlarni) elektr ta'minoti bilan ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda elektr ta'minoti ikki yunalishda tashkillashtiriladi, har qanday vaziyatda ham obe'ktning barqaror ishslashini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Albatta, elektr ta'minoti jihozlari, asboblari yadroviy qurollarning elektromagnit im'ulsalaridan himoyalangan bulishi lozim. Obe'ktlarni gaz, suv bilan ta'minlash ham alohida e'tiborda bulishi lozim. Birorta avariya holati yuz beradigan bo'lsa, tuhtatish imkoniyatlari hisobga olingan bulishi zarur.

Suv ta'minotida ikkita manba orqali: asosiy va kushimcha ta'minlagachlardan foydalaniladi. Bulardan birida osti suvlar ishlatiladi. Huddi shunga uhshash bug va issiklik ta'minoti ham obe'ktlarni barqaror ishslashini ta'minlashga ta'sir etadi. Sanoat obe'ktlari ikki hil manbadan issiklik oladi: 1 — tashki — IESlar; 2 — ichki — o'z kozonxonalaridan. Yuqorida aytilgan omillardan tashkari obe'ktlar barqarorligini oshirishda kushimcha omillar ham qo'llaniladi. Jumladan: 1) Aynan obe'kt hududida portlovchi, yonuvchan va tez ta'sir etuvchi moddalarning mikdorini kamaytirish;

2) Me'yоридан ку' бо'лган юқоридаги моддаларни хавфсиз юйлашга таркатиш.

Kimyoviy korxonalarda KTZMga qarshi ishlatiladigan degazatsiya moddalari: ishkor, ammiakli suv, natriy sulfid va boshkalar saklanishi zarur. Yana tsehlarga biror favqulodda vaziyatlarda (avariya, portlash, gaz chikib ketishi va boshka holatlarda) ishlatiladigan avtomatik signallar urnatilishi zarur. Bulardan tashkari uzluksiz boshkarishni tashkil etish va uni himoyalash ishlari tashkillashtirilishi lozim. Bunda ATS, radiouzel, dis'etchpunkt, akkumulyator zaryadlaydigan elektrostantsiya va boshkalar kuzda tutiladi.

Obe'ktlarda moddiy texnika holatini ishonchli ta'minlashda quyidagi omillar muhim urin tutadi:

- tayyor mahsulotlarni saklaydigan omborlarni tayyorlash;
- obe'ktda hom ashyo, yokilgi, jihozlar, kerakli materiallarni etarli ta'minlash;
- ta'minlovchi korxonalar bilan uzviy aloqani boglash;
- korxona filiallarini boshka joylarda kurish va boshka omillar.

Xalq xo'jaligigi tarmoqlarining yorugligini maskirovka qilish omilida quyidagi ishlar amalga oshiriladi. Masalan, obe'ktning hamma inshootlari, aholi yashaydigan punktlar yorugligini uchirish, ishlab chiqarish vatransport

vositalarining signallarini kamaytirish, maskirovka kiluvchi (yolgondakam vositalarni kullash) usullari qo'llaniladi

SHikastlangan obe'ktlarni tiklash omillarida birinchi navbatda qilinadigan ishlar usha korxonaning o'z moddiy resurslari orqali, o'z kuchi bilan amalga oshirish, imkoniyat darajasida ish xonalarini va jihozlarni qaytadan tahlirlab, ishga tushirish va boshka vazifalar bajariladi.

Xulosa kilib aytadigan bo'lsak, Xalq xo'jaligigi tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash va ularning chidamlilagini musgahkamligini oshirish omillarini tashkiliy ravishda o'z vaqtida amalga oshirishda oddindan tuzilgan rejaga amal qilinadi. SHundagina har qanday favqulodda vaziyatlarda Xalq xo'jaligigi tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlagan bulamiz.

4. Aholini, FVDT kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash

Ma'lumki, fuqaro muhofazasining eng muhim vazifalaridan biri, aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 7 noyabrdagi 427sonli «O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi tugrisida»gi karori qabul kilindi. karorda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashni hamma korxonalarda, muassasalarda (shu jumladan, ta'lim muassasalarida ham) va tashkilotlarda, shuningdek, yashash joylarida o'tkazilishi kursatib utilgan (ilovaga karang).

Aholini, FVDT kuch va vositalarini FV ruhida muhofazaga tayyorlash

Fuqarolarning FM bo'yicha o'qitish — aholini dushmanning zamonaviy qurollari ta'siridan, tabiiy ofatlar, avariya va fofia okibatlaridan himoyalanishga tayyorlashning asosiy tadbirlaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'qitish FMning boshligi va uning shtablari ko'rsatmasi, shuningdek, fuqaro muhofazasi masalalari bilan shugullanuvchi hududiy hamtsa ishlab chiqarish yunalishi bo'yicha tuzilgan yuqori tashkiloti FMning mahsuliyatli boshliqlari karori, buyrugi asosida tashkil etiladi va olib boriladi. Ishchi xizmatchilarini FMga o'qitish har bir xo'jaligik obe'ktining boshligiga yuklanadi.

FM shtabi o'qitish tadbirlarini tashkil etadi, ta'minlaydi va rahbarlik qiladi, o'z vaqtida ukishlarni, amaliy mashg'ulotlarni olib borilishini nazoratga oladi.

Obe'ktida bajariladigan vazifalarga qarab FM yunalishida fuqarolar quyidagi toifalar bo'yicha O'qitiladi:

FMning rahbar tarkiblari; FM tuzilmalariga kiruvchi fuqarolar; d.,, _ FM tuzilmalariga kirmaydigan fuqarolar.

Ishlab chiqarish va obe'kt FM rejasida kursatilgan tadbirlarni hisobga olgan holda har bir toifa shahslarini ma'lum dastur asosida o'qitish maksadga muvofikdir.

Respublikamiz aholisini FVlardan muhofaza qilishga tayyorlash va qayta tayyorlash 4 guruhga bulingan hoddasi amalga oshiriladi:

a) ishlab chiqarish va xizmat kursatish sohalarida band bo'lgan aholi, idoraviy buysunishidan, tashkiliyhuquqiy shakllaridan kathi nazar oliy va urta maxsus kasbhunar ta'limi muassasalarining talaba va o'quvchilari;

b) ishlab chiqarish va xizmat kursatish sohalarida band bulmaganlar (nogaronlar, uy bekalari, nafakahurlar); h v) korakal'ogiston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar davlat hokimiyati va boshkaruv organlari, vazirliklar, idoralar, mulkchilik shakllaridan kathi nazar birlashmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mutasadtsilari hamda FVdan muhofaza qilish mutaxasislari;

g) FVlardan muhofaza qilish masalalarini hal etish vakolatiga ega bo'lgan davlat hokimiyati va boshkaruv organlarining xizmatchilari, vazirliklar, idoralar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlari.

Fuqarolarni FVlardan muhofaza qilish sohasi bo'yicha tayyorlashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Aholining barcha katlamlarini FVdan muhofaza qilish qoidalarining asosiy usullarini, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam kursatish usullarini hamda himoya inshootlaridan va yakka tartibda shaxsiy sakyaovchi vositalaridan foydalanish qoidalarini urganish;

2. Boshkaruvning barcha 'ogonadagi rahbarlarini, aholini FVlardan muhofaza etish bo'yicha harakat qilishga tayyorlash va qayta tayyorlash;

3. Davlat hokimiyati, boshkaruv organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari va mutaxasislar kutkaruv va birlamchi tiklov ishlarini o'tkazishi. kBTI uchun FM kuch va vositalarini tayyorlash, ularningboshkarish kunikmalarini hosil qilish.

Ishlab chiqarish va xizmat kursatish sohalarida band bo'lgan aholini tayyorlash, ish joylarida mashg'ulotlar o'tkazish va tavsiya qilinadigan dasturlarga muvofik FVda harakat qilishni mustakil ravishda urganish keyinchalik mustahkamlash yuli bilan amalga oshiriladi.

Umumiy urta, urta maxsus kasbhunar va oliy ta'lim o'quv yurtlarining talaba va o'quvchilarini tayyorlash, FVlarda muhofaza qilish sohasidagi umumta'lim dasturiga muvofik ukish vaqtida amalga oshiriladi. Dasturlar O'zbekiston Respublikasi FVV bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Xalqta'limi vazirligi, Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi, Soglikni saklash vazirligi hamkorligida tayyorlanadi va tasdiklanadi.

Davlat hokimiyati va boshkaruv organlari, vazirliklar, idoralar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari va mutaxasislari O'zbekiston Respublikasi FVV Fuqaro muhofazasi institutida 40 va 80 soatli mashg'ulotlarni utadilar. SHuningdek, o'quvlar harbiylashtirilmagan kushilmalarning rahbar boshliqlari tarkibi harbiylashtirilgan avariayugkaruv va doimiy tayyor maxsus kushilmalar tarkibidagi korxona, muassasa va tashkilotlar xodimlari FVlar bo'yicha rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlarida, shu bilan birga o'quv mashqlari, mashg'ulotlar o'tkaziladigan maskanlarda olib boriladi.

Harbiylashtirilmagan qo'shilmalar tarkibidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar xodimlari bevosita ish joylarkda tayyorgarlikdan utadilar.

Fuqarolar muhofazasining amaliy mashg'ulotlarini tayyorlash va o'tkazish

Rahbarlar tarkibini, tuzilmalar va aholini o'qitishda ularni amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish katga ahamiyatga ega. Amaliy mashg'ulotlar rahbarlar

tarkibini, FM kuchlarini va aholini FM vazifalarini bajarishga tayyorlashning yuqori va faol shakli hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlardatuzilmalarga kirgan fuqarolarning aniq va tartibli harakatlari, turli hil jihozlar, asbobuskunalar, texnikalardan foydalanish uslublari urganiladi, aloqa va tuzilmalarni boshkarish masalalari ishlab chiqiladi.

FMning amaliy mashg'ulotlarini zamon talablariga mos holda o'tkazish, fuqarolarni dushman tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy quroq vositalaridan, shuningdek, hududimizda kuzatiladigan tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariyalari va fojialar okibatlaridan muhofaza qilish, odamlarda ma'naviy ijtimoiy sifatlarni tarbiyalash, obe'ktlarni uzlusiz faoliyat kursatishini ta'minlash, kutkaruv va tiklov ishlarini amalga oshirish bo'yicha bilimlarini, kobiliyatlarini oshirish imkonini beradi.

FVDTda FMning quyidagi amaliy mashg'ulotlari tashkil qilinadi va o'tkaziladi:

1. SHaxsiy tarkib uchun maxsus taktik mashg'ulotlar;
2. Rahbar tarkib uchun shtab komanda mashg'ulotlari;
3. O'qitilayotgan hamma toifadagilar uchun kom'leks mashg'ulotlar

Maxsus taktik amaliy mashg'uloti tuzilmalarning oldiga kuyilgan vazifalarni bajarishga urgatishdan iborat. Bunday mashg'ulotlarda har qanday FVning (harbiy davrda ham, tinchlik davrda ham) okibatlarini tugatish, aholini va ishlab chiqarish tarmoqlarini muhofaza qilish chorralari quriladi va o'tkaziladi hamda komandir boshliq tarkibining amaliy mahorati takomillashtiriladi.

Tuzilmalar maxsus taktik mashg'ulotlarda o'z obe'ktlarining moddiy o'quv bazalaridan: har hil qurilmalaridan, jamoaviy himoya vositalaridan foydalanadilar.

Maxsus taktik amaliy mashg'ulotlarga tayyorlash. Mashg'ulot rejalshtirish, mashg'ulotlarga o'z vaqtida va har tomonlama rejaga muvofik holda tayyorlanish lozim. Mashg'ulot rahbarining ko'rsatmalari asosida mashg'ulot o'tkazish rejasi, tashkiliy ko'rsatmalar, urinbosarlarning hususiy rejalarini va boshka zaruriy hujjatlar ishlab chiqiladi. Maxsus taktik amaliy mashg'ulotning asosiy o'quv uslubiy hujjati amaliy mashg'ulot rejasi hisoblanadi, unda mashg'ulotning borishi, o'quv savollarining izchilligi, mashg'ulotlar boskichlar bo'yicha aks ettiriladi.

Maxsus taktik mashg'ulotning rejasi matn bo'yicha ishlab chiqiladi va quyidagilarni: mavzuni, har bir toifa o'quvchilari uchun o'quv maksadlari, mashg'ulot o'tkazish vaqtini, o'quv mashg'ulotiga jalb qilinadigan bulinmalarning tarkibi, texnikalar soni va sarf bulish me'yorlari, mashg'ulotning boskichlari, ularning davomiyligi va o'quv savollari, taktik sharoit, kuchlarni guruhlash, boshkarish maskanlarining joylashgan yeri, zamonaviy qurollar qo'llanilgandan keyin obe'ktdagisi holat, FM boshliqlarining karorlari va xodimlarning vazifalarini o'z ichiga oladi. Maxsustaktik mashg'ulotning yahshi ishlab chikilgan rejasi va boshka hujjatlari, uning muvaffakiyatli utishiga imkon beradi.

Mashg'ulotni utkazish. Mashg'ulot tuzilmalar doimiy joylashgan joyda bevosita yoki tusatdan «Ogohlantirish» ishorasi bo'yicha boshlanishi mumkin. Buning uchun shaxsiy tarkibga xabar berish va yigish, texnikalarni olib chikish va ularni ishga tayyorgarligani tekshirish kerak.

Tuzilmalarning boshliqlariga taktik vazifani tekshirish tavsiya etiladi: bunda vazifani anglab olish, sharoitni baholash, karor qabul qilish, kul ostidagilarga vazifalar kuyish va ularning harakatlarini tashkil etish uchun zaruriy vaqt beriladi. Mashg'ulot rahbari tuzilmalar boshliqlarining karorlarini tinglaydi va tasdik'aydi, kerak bo'lган 'ayitda sharoitni chuqurrok mushohada etib, ular yordamida eng maksadga muvofik karor qabul qiladi.

Mashg'ulot rahbari shaxsan va o'z yordamchilari orqali obe'ktdagi radiatsiyaviy, kimyoviy, biologik holatning o'zgarishini, odamlar, texnikani ishdan chikishini kuzda tutgan hodtsa mashg'ulotlarni kuchaytirib boradilar. Mashg'ulot rahbari sharoitga qarab tuzilma boshliqlaridan yangi karorlar, buyruklar qabul qilishga, kul ostidagilarga yangi vazifalar kuyishga va ulardan uziga hos harakatlar qilishga erishadi. Tuzilmalardagi fuqarolar asbob uskunada, texnikada va mehanizmlarda o'z mutaxasisligi bo'yicha amaliy vazifalarni bajaradilar. Mashg'ulotlar tuzilmalarni shikastlanish uchogidan olib chikish, fuqarolarni tibbiy, texnikani esa maxsus ishlovdan o'tkazish bilan tugallanadi. So'ngra maxsus taktik mashg'ulotlar tahlil qilinadi.

Komanda-shtab mashg'ulotlari — FVDTning shtab boshliqlarini, FM xizmat boshliqlarini, obe'ktlarning komandaboshliqlar tarkibini o'z funksional burchlarini bajarishga, birgalikdatayyorlashning asosiy shakllaridan biridir.

Komandashtab mashg'ulotining maksadlari har hil bulishi mumkin. Bulardan asosiyлари: rahbarlarni va komanda boshliqlarining obe'kt FM tadbirlarini bajarishda nazariy bilimini va amaliy mahoratini oshirish, xodimlar, tuzilmalar va kushinlar bilan uzaro harakat qilishini ta'minlashdan iborat.

Komandashtab mashg'ulotlari aniq taktik sharoitga yakinlashtirilib olib boriladi. Mashg'ulot mayuusi va o'quv savollari odatda oldinda turgan har taraflama mashg'ulotning mavzusi bilan boglangan buladi.

Komandashtab mashg'ulotlaridan oddin shtab mashqlarni o'tkazish tavsiya etiladi. Ularning sonini va olib borish vaqtini

1: obhekg FM boshligi komanda shtab mashg'ulotlari oldida turgan maksadga hamda rahbar tarkibi va boshkarish organlarining taylorlanish darajasiga qarab aniqlaydi.

Mashg'ulotlarga razvedka, aloqa bulinmalari, jamoat tartibini saklash, sanitardrujinalar, shuningdek, umumiy vazifalarni bajaruvchi tuzilmalar ham jalg etilishi mumkin.

Obe'kt FM boshligi komanda shtab mashg'ulotining rahbari hrsoblanadi. Komanda shtab o'quv mashqlari viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati va boshkaruv organlarida (3 sutka davom etadi) 5 yilda bir marta, shahar va tumanlarda 3 yilda bir marta ugkaziladi. Komanda shtab mashqlari yoki mashg'ulotlar vazirliklar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda 1 yilda bir marta (1 sutka) o'tkaziladi.

Kom'leks(har taraflama) mashg'ulot — obe'ktini tayyorlashning muhim shakllaridan bo'lib, u FM bo'yicha urnatilgan aylanmani amalga oshirish bilan tugaydi.

Kom'leks mashg'ulotning mohiyati shundan iboratki, uning hamma katnashchilari bir vaqtida yagona takgik sharoitda, moddiy ishlab chiqarish bazasida

harakat kilib, obe'kt rejasida kuzda tutilgan ishlab chiqarish faoliyatini tuhtatmasdan amalga oshiradi.

Odatda mashg'ulotda: obe'kt FM rejasining realligi; FM tadbirlarini amalga oshirishga obe'ktningtayyorgarlik darajasi va dushman tomonidan qo'llanilgan zamonaviy qurollar asoratlarini, shuningdek, tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariya va hdlokatlarining okibatlarini tugatish bo'yicha tadbirlar o'tkazilishiga e'tibor beriladi; obe'ktning favquloddagi vaziyatlar paytida uzlusiz ishlash yuli va usullari tekshirib quriladi.

Kom'leks mashg'ulotning maksadlari quyidagicha bulishi mumkin: obe'ktni har qanday FVlarda har tomonlama tuhtovsiz ishlashga tayyorlash, tuzilmalar tuzish, boshkarish, hamma soha fuqarolarini tayyorlash, rahbar va komandaboshliqtarkibda FM tadbirlarini o'tkazishda aniq va mustakil kunikmalarni ishlab chikish, fuqarolarni turli hil ta'sirlardan himoya qilish usullariga urgatish, FVlar okibatlarini tugatish bo'yicha ishlarni olib borishga tayyorlash, obe'kt FM rejasini tekshirish va hozirgi talabga mos holga keltirish, FM masalalarini bajarishga obe'ktningtayyorgarlikdarajasini aniqlash, obe'kt SHaxsiy tarkibida ma'naviyijtimoiy va 'sihologik hislatni tarbiyalash talab etiladi.

FMning hamma kom'leks mashg'ulot tadbirlari, xo'jaligik faoliyatlarini hisobga olgan holda o'tkazish uchun imkoniyat beradi. Mashg'ulot rahbari odatda, obe'kt FMning boshligi hisoblanadi, ayrim hollarda uning yordamchilari ham bulishi mumkin. Mashg'ulotlarga hamma rahbar va komanda boshliqlari, tuzilmalar, tuzilmalarga kirmaydigan fuqarolar ham jalb etilishi mumkin.

Tuzilmalar ma'lum boskrchlarda o'z vazifalarini bajaradilar, rahbar xodimlar va komandaboshliq tarkiblari esa har bir mashg'ulotlarda ishtirop etadilar. Har taraflama mashg'ulotlarda shunday murakkab dinamik holatni yaratish kerakki, ular zararlanish uchoklarini va zaharlangan hududlarni ifoda etib, katnashchilar e'chillik, mohirlik, dalillik va ehtiyyotkorlikni namoyon etsin.

Mashg'ulotlar davomida rahbar, komavdaboshliqtarkiblari, va FM kuchlarini tashkil etishni, tuzilmalar esa kuchli radioaktiv, kimyoviy, biologik zararlanishda va kuchli yonginlarda harakat qilishni urganadilar. Mashg'ulotlarda shablonga yul kuymaslik, takomillashtirilgan o'quv usullarini tatbik etish, ukiyotganlarning harakatlaridagi sustkashlikni, hotirjamlikni keskin tugatish va soddalikka yul kuymaslik kerak.

Kom'leks mashg'ulotlar 3 yidda bir marta, 3 kun davomida o'tkaziladi. TSehlar, bo'limlar, uchastkalar va boshka kismlar mashg'ulotlarda bir vaqtda ishtirop etmaydilar, o'quv rejasiga muvofik ular maxsus vazifalarni bajarishga ketmaket kirishadilar.

Kom'leks mashg'ulotlarni tashkil etishda va uni o'tkazishda shtab rahbarlari, mashg'ulotga jalb kilingan hamma fuqarolarning tayyorgarliklarini tashkillashtirishi; ularning tayyorgarligini tekshirishi, shu bilan birga xavfsizligini ta'minlashi kerak buladigan o'quvuslubiy hujjatlarni ishlab chikishi lozim. SHuningdek, o'quv va ishlab chiqarish bazasini tayyorlashi, kBTI o'tkazish uchun yangi usullarni kidirib to'ishi, kullashi; har hil sharoitlarda texnikalardan foydalanish hamda ularning samarali ishlashini nazorat qilishi hamda shaxsiy va

jamoat resurslarini yaroksiz holatga kelishiga yul kuymaslik hamda yuqori saviyada bajarilgan mashg'ulot bo'yicha hisobot tayyorlashi lozim.

Kom'leks mashg'ulotlar 3 ta asosiy kursatkichga ega bulishi kerak:

1. FM masalalarini tulik, har tomonlama urganish, ya'ni egohlantirish belgisidan (ishorasidan) tortib, to amaliy mashg'ulotni tugatishgacha bo'lgan masalalar;

2. Kom'leks mashg'ulotda, obe'ktida faoliyat kursatuvchi jami fuqarolar tayyorlanadi;

3. Komsheks mashg'ulotda, muhofazaga tayyorlashning jami shakl vauslublari qo'llaniladi.

300 kishidan ortiq fuqarolari bo'lgan korxona, tashkilotlarda hamda 600 dan ortiq kasallar joyi bo'lgan tibbiy tashkilotlarda 3 yidda bir marta (2 sutkagacha), boshka tashkilotlarda 3 Yidda bir marta obe'kt trenirovkalari (6 soatgacha) o'tkaziladi.

Umumiy urta, urta maxsus kasbhunar va oliy ta'lim muassasalari talaba va o'quvchilari bilan har taraflama mashg'ulotlar har yili o'tkaziladi.

Ishlab chiqarish va xizmat kursatish sohalarida band bulmagan aholini tayyorlash FVlardan muhofazalash masalalari bo'yicha suhbatlar, mahruzalar o'tkazish, o'quv filmlarni kursatish, yashash joylarida o'quv mashq'ari va mashg'ulotlarga jalb etish, shuningdek, qo'llanma va eslatmalarni mustakil urganish, radio eshittirishlarini tinglash, teledasturlarni, kurgazmali qurollarni kursatish va boshka omshshar qo'llaniladi.

Mashg'ulotga tayyorlanish. Kom'leks mashg'ulotni muvaffakiyatli o'tkazish, ku'jihatdan unga kanchalik tayyorgarlik qurilganligiga boglik. Mashg'ulotlarga tayyorgarlik kurish obe'kt FM rejasini hisobga olgan hodda uni tashkiliy shtatlar tuzilishi, material ishlab chiqarish xususiyati, hududiy joylashganligi, FM holati va boshka faktlarga amal kilgan holda olib boriladi. Mashg'ulotni tayyorlash, tashkil etish va uni o'tkazishga mashg'ulot rahbari shaxsan javob beradi.

Mashg'ulotga oldindan va har taraflama tayyorlanish lozim. Mashg'ulot rahbari mashg'ulotning mavzusini, o'quv maksadini, o'quv sayullari va boskichlarini, komandaboshliqtarkiblariningsonlarini, tuzilmalar, jami mashg'ulotga jalb etilganlarning soni, mashg'ulot rejasini asosiy holatlarini ishlab chikish, material, texnik jihozlar bilan ta'minlanganliklarini aniqlashlari lozim. Mashg'ulotga jalb etilgan shaxsiy tarkiblar FMga o'qitish davomida tayyorlanadi. Rahbarlar, komandaboshliq tarkiblari, shtablar, tuzilmalarning oldiga kuyilgan vazifalarni muvaffakiyatli bajarishi uchun maxsustaktik, boshka kolgan katnashchilar bilan esa amaliy mashg'ulotlar olib boriladi.

Kom'leks mashg'ulotlarni o'tkazish uchun quyidagi hujjatlar: mashg'ulot o'tkazish rejasi; mashg'ulot rahbarlarining urinbosarlari va yordamchilarining hususiy rejalar; mashg'ulotda xavfsizlik choralarini kurish tartiblari ishlab chiqiladi.

Mashg'ulot o'tkazish rejasi — asosiy hujjatdir. Unda mashg'ulotning borishi, mashg'ulotlar boskichlari bo'yicha o'quv savollari tuziladi, harita, jadval, muktsarjalardan foydalanilgan holda matn rejasi ishlab chiqiladi. Mavzular, o'quv maksadi va mashg'ulotni o'tkazish vaqt, mashg'ulotga jalb etilgan katnashuvchilarining tarkibi, mashg'ulotning boskichlari, davomiyligi, o'quv

savollari va ularni ishlab chikish vaqt; dastlabki boshlangich holat, kuchlarni guruhlash, boshkarishning joyi, mashg'ulotning borishi, tamom bulish mudtsati va tahlil qilish muddati hamda joyi kursatiladi.

Mashg'ulot rejasi shtab boshliqlari tomonidan ishlab chikilib, uning boshlanishiga ikki hafta kolguncha mashg'ulot rahbarlari tomonidan tasdiqlanishi kerak. Mashg'ulot rahbarlari, urinbosarlari va yordamchilarning shaxsiy rejalarini matn yoki grafik bo'yicha tuzilishi mumkin va unda: mashg'ulotning mavzusi, tuzilmalarga muvofik utsuv maksadi, ukiyotganlar toifasi, tuzilmalar tarkibi, boshka toifadagi ukiyotgan fuqarolar soni, umumiy holat, aloqani tashkil etish hamda mashg'ulotning borishi kursatilishi kerak.

Imitatsiya rejasi o'quv mashg'uloti rahbarining yordamchisi tomonidan matn bo'yicha chizma asosida ishlab chiqiladi. Unda odatda: imitatsiya joyi, vaqt va turlari kursatiladi, imitatsiya ishlariga ajratilgan kuchlar va vositalar, mahsul kishilar, imitatsiyani boshkarish signallari (belgilari) va aloqa vositalari, imitatsiya o'tkaziladigan joyni kuriklash choralarini va uning xavfsizligini ta'minlash kursatiladi. CHizmada imitatsiya o'tkazadigan joy shartli belgilar bilan ifodalanadi. Imitatsiya rejasi o'quv rahbari tomonidan tasdiklanadi.

Amaliy mashg'ulotning asosiy maksadi obe'kttagi FV okibatlarni tezrok tugatishdir. U obe'ktta razvedkani tashkil qilish va olib borishdan boshlanadi. Olingan razvedka ma'lumoti va uning tahliliga asosan obe'kttagi holat aniqlanadi, barcha tuzilmalarga FV okibatlarini tugatish bo'yicha kushimcha vazifalar yuklatiladi. Hamma kuzda tutilgan o'quv savollarini urganuvchilar tomonidan amaliy mashg'ulotlar davomida bajarilgandan so'ng mashg'ulot rahbari ko'rsatmasiga asosan tuhtatiladi.

Mashqlarning tahliliga har tomonlama tayyorlanish kerak. Tahlil amaliy mashg'ulotning yakuniy boskichidir. Tahlilda O'qitilganlar har tomonlama muhrkama qilinadi, kuyilgan maksadni fy tarzda amalga oshirilganligi, o'quv savollarini qanday kilib ishlab chikilganligi, rahbar va komandaboshliq tarkibining, tsiggab xodimlari, tuzilmalar, har hil toifadagi o'qiganlarning qanday tayyorlanganligi tahlil qilinadi.

Tahlil avval rahbarlar bilan, so'ngra mashg'ulotning hamma katnashchilarini bilan o'tkaziladi. Tahlil ohirida mashg'ulot rahbari mashg'ulotlarda katnashganlarning o'quv maksadlariga kay darajada erishganligini aniqlaydi, o'qiganlarning harakatlarini baholaydi va yul kuyilgan kamchiliklarni tugatish tadbiralarini belgilaydi.

Nazorat savollari

1. Favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni himoya qiluvchi qanday vositalar bor?
2. Himoya inshootlarini qanday turlari mavjud?
3. FV larda evakuasiya qilish tartibi qanday bo'ladi?
4. Xalq xo'jaligi tarmoqlari qanday turdag'i FVlardan himoya qilinadi?
5. FVDT ni qanday kuch va vositalari bor?

EKOLOGIK MUHIT BUZILISHINING INSON HAYOTIY FAOLIYATIGA ZARARLI TA'SIRI VA UNING NATIJASIDA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLI VAZIYATLAR

1. Atrof-muhit muhofazasining ekologik asoslari

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlanish sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish zamonaviy dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bizning davlatimiz uchun milliy xavfsizlik masalalari ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari bilan bevosita bog'liq ekanligini I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida chuqur tahlil qilib o'tgan. Tabiatni muhofaza qilish, odam faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirini ogohlantirish, binobarin, qonunshunoslik, tashkiliy, sanitargigienik, muhandis-texnik va boshqa biologik sistemalarga antro'ogen ta'sirni kamaytirish yoki ogohlantirish tadbirlari tuzishdan iborat.

Mavjud sharoit tanlangan yangilanish yo'lining oddiy emasligini, katta muammolar, qiyinchiliklar yo'li ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonda yashab turgan barcha xalqlarning hayotiy sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan maqsad va vazifalar qanday hal etiladi? Va eng dolzarb qiyin masalalardan biri bo'lgan barqarorlik va xavfsizligimizga bo'lgan taxdidni etarlicha tushunib etaya'mizmi? Bu tahidlarga qarshi nima qo'ya olamiz, jamiyatimizning izchil rivojlanishi va barqarorlik sharti bo'lib nima xizmat qila oladi?

Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammo alohida e'tiborga molikdir. Ochiq ehtirop etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski mahmuriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug'ullanilmagan. Aniqrog'i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o'z mamlakatlarining kelajagiga, tabiiy boyliklari saqlanib qolishiga befarq qaramagan, bu xaqla qattiq tashvish chekkan odamlarning esa «qalb nidosi» bo'lib kelgan.

Biroq, ularning vijdoniga, fuqarolik burchiga, nixoyat, aql-idrokiga dahvatlari to'ralashib ketgan sovet-'artiya amaldorlarining sovuq, hatto aytish mumkinki, surbetlarcha loqaydligiga duch kelavergan. Bunga ajablanmasa ham bo'laveradi. Tabiiy va mineral xom-ashyo zahiralaridan vaxshiylarcha, ekstensiv usulda, juda katta xarajatlar va isrofgarchilik bilan foydalanishga asoslangan sotsialistik xo'jalik yuritish tizimining butun mohiyatiga mamlakat ixtiyoridagi beqiyos boyliklarga avaylab munosabatda bo'lish g'oyasi butunlay yot edi. Aksincha, boyliklardan bunday foydalanish ikki tuzumning iqtisodiy musobaqasida mamlakatning asosiy dastagi, eks'ort imkoniyatlarining negizi bo'lib keldi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi bosh maqsad ekstensiv omillarga qaratilgan edi. Tabiiyki, bunday sharoitda yashirin boyliklardan oqilona foydalanishni tartibga soladigan, tabiatning, atrof-muhitning himoya qilinishini kafolatlaydigan biron-bir me'yorlar va qoidalarga rioya qilish haqida ga' bo'lishi mumkin ham emas edi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arzimas darajada kam mablag' ajratilar edi.

Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga maxkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'plar ushbu muammoga beparvolik va mashuliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar.

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiyligi muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi.

Afsuski, bu jarayonlar O'zbekistonni ham chetlab o'tmaydi. Bu yerda mutaxassislarining baholashicha, juda murakkab, aytish mumkinki, xavfli vaziyat vujudga kelmoqda.

2. Tabiatni huquqiy muhofazalash qonunchiligi

XXI asrda insoniyat oldida o'ta muhim va ulkan muammolar paydo bo'ladi. Yerda hayotning bo'lishi ularni xal qilishga bog'liq. Bu muammolar tabiiy muhitning o'zgarishi, biosferaning ifloslanishi, xom ashyo, energetika va oziq-ovqatlar krizislari bilan boliq.

O'zining yashashi uchun tabiiy muhitga moslashadigan hayvonlardan farqli o'laroq, inson o'zining yashashi uchun tabiatga faol aralashib, muhitni o'zgartiradi va u bilan munosabatda bo'lish uchun yangi shakllarni yaratadi.

O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish jamiyati 1962 yil mart oyida tashkil etilgan. Surxondaryo viloyat bo'limi 10 avgust 1962 yilda tuzilgan. 1978 yilda Gidrometeorologiya va tabiiy muhit nazorati Davlat qo'mitasi tuzilgan. 1990 yil 20 iyunda O'zbekiston tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga aylantirildi.

Agar yerda odamlar soni bir necha million miqdorda qolsa edi, ularning yashashi uchun tabiatga ko'rsatgan zarari ham kam ta'sir qilgan bo'lardi. Biroq, bizning planetamizda eramizning uchinchingyilligiga aholining o'sishi demografik portlash darajasiga keldi: eramizdan avval 3.10.3 kishi bo'lgan bo'lsa, XII asrda 600X10.6 kishi 1976 yilda 4x10.9 kishi, 2000 yilga 6.10.9 kishi bo'ldi. Bunday holat kishilik jamiyatining yashash sharoitini va tabiatni o'zgartirishga keskin turtki bo'ladi.

Aholisi 1 mln. kishi bo'lgan zamonaviy shaharning massa va energiya almashinuvini ko'rib chiqamiz. Shaharning sutkalik umumiyligi chiqindisi 1000 tonnani, yiliga 183.10.6 tonnani tashkil etadi. Aholisi 3.10.6 va 11.10.6 kishi bo'lgan shaharlar ham bor. Shaharlarning ko'payishi va doimiy o'sib boruvchi shaharlar aholisi insoniyat va tabiat o'rtasidagi qarama-qarshilikning chuqurlashishiga olib keladi. Bu xavfsirashlar xom-ashyo (oxirgi 25 yilda odamlar butun insoniyat tarixi davomida ishlatilgan xom-ashyo miqdoriga teng xom ashysidan foydalanilgan), energetik resurslar (neft va gaz tugash arafasida, dunyoning yirik daryolarida qurilgan elektrostansiyalar energiyaga bo'lgan extiyojni qondira olmaydi), oziq-ovqat mahsulotlari (masalan, oxirgi 100 yil ichida yer aholisi 2,6 marta, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi-atigi 2,2 marta oshdi, yer

sharida 500.10.6 kishi, shu jumladan 200.10.6 bola ochlikda kun kechiradi) tanqisligi bilan asoslangan.

Yerda inson hukmonlik qilgan davrdan beri kishilarining nafas olishi uchun zarur bo'lgan kislород ajratib chiqaradigan yerning «o'pkasi» hisoblangan o'rmonning 2/3 qismi nobud qilindi. 200 turdagи hayvonlar va parrandalar qirib tashlandi, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli bo'lgan 20% yer maydoni erroziyaga duchor bo'ldi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda mineral va energetik resurslar, chuchuk suv va havoda kislород tanqisligi sezilmоqda. Sanoat va transportning, energetikaning rivojlanishi, qishloq xo'jaligini sanoat asosiga o'tkazish va kimyolashtirish atrof-muhitni yangi, ilgari noma'lum bo'lgan moddalar bilan ifloslanishiga olib keladi. Bularning hammasi insonning, uning yashash muhiti bilan vujudga kelgan ekologik aloqasining buzilishi xavfini tug'diradi.

Huquqni saqlash chegaralari ichki va tashqiga bo'linadi. Huquqiy himoyalashning ichki chegaralari tabiiy dunyodan ijtimoiy dunyoga o'tgan tabiat elementlariga: foydali qazilmalar, suv havzalaridan olingan suv, qazilgan tu'roq, otilgan hayvonlar, qushlar va boshqalar. SHu obektlar uchun insonning tabiat bilan aloqasi uzeladi, ularni tovar moddiy boyliklarga o'tkazadi.

Huquqiy himoyaning tashqi chegaralari odamlar yashaydigan yer tabiatini, shu jumladan o'zida yerning ta'sirini sezadigan va odamning yashash muhiti holatiga ta'sir ko'rsatadigan (masalan, yerning sun'iy yo'ldoshlarini, kosmik havo kemalarini uchirish paytidagi hodisalar) yer atrofidagi bo'shliqni tashkil etadi.

Huquqiy himoyalashning tabiiy obektlari milliy, xalqaro, regional va globalga bo'linadi.

Tabiatni saqlash qonunchiligiga asosan saqlashning tabiiy obektlariga yer, uning boyliklari, suv, o'rmon, hayvonot dunyosi, atmosfera havosi kiradi. Bularning hammasi inson yashashi uchun tabiiy muhit bo'lgan biosferani tashkil etadi.

O'zbekistonda atrof-muhitni himoya qilishning huquqiy asoslari-tabiatni saqlash huquqiy me'yorlaridan, ya'ni qonunlardan va qonun moxiyatiga ega bo'lgan aktlardan iborat.

Atrof muhit holati yangi texnologiyalar va mashinalar yaratuvchilaridan ekologiya masalalariga e'tiborni talab qiladi. Har qanday texnik echim texnik va iqtisodiy shartlarnigina emas, balki ekologik as'ektlarni ham hisobga olgan holda qabul qilinadi. Loyihaviy echimlar albatta ekologik ekspertizadan o'tkazilishi kerak, ya'ni yaratilayotgan texnologik jarayonlar, mashina-uskunalar va materiallar ularni joriy etishda xalq xo'jalik samarasini bilan birqatorda yuqori ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlashi kerak.

Atrof muhitning huquqiy me'yorlari turlaridan biri - qonun kuchiga ega bo'lgan texnik me'yorlar va standartlарdir (masalan, San'in 0066-93. «Aholi punktlarida havo sifatini nazorat qilish qoidalari»; GOST 17.0. 04-90. «Sanoat korxonasining ekologik 'as'orti»).

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan aholi punktlarida atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalar chegaraviy yo'l qo'yiladigan kontsentratsiyasining sanitariya me'yorlari tasdiqlangan, aholi punktlaridagi atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalarini aniqlash usullari ishlab chiqilgan, turar joy uylar qurilishlarida yo'l qo'yiladigan shovqin darajasi qiymatlari, turar joy qurilishlari

hududida infratovush va past chastotali shovqinning yo'1 qo'yiladigan darajasi belgilangan. Gidrometerologiya va tabiiy muhitni nazorat qilish bo'yicha davlat qo'mitasi quyidagilarni ishlab chiqqan: Havoni muhofazalash chora-tadbirlarini kelishish, ekspertizadan o'tkazish va loyihamiy echimlar bo'yicha atmosferadagi ifloslantiruvchi moddalar chiqarishga ruxsatnomalar berish to'g'nsidagi yo'riqnama, korxonalarining atmosfera chiqindilaridagi zararli moddalar kontsentratsiyasini hisoblash metodikasi. «Noqulay meteorologik sharoitlarda chiqindilarni tartibga solish», atmosferaning ifloslanishini hisoblashning unifikatsiyalashgan dasturi (ekolog - 1992 yil. SNII 'roekt).

Respublikada tabiatni muhofazalash, tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va qayta ishlab chiqarish bo'yicha butun mashuliyat Davlat tabiatni muhofazalash qo'mitasiga yuklatiladi.

O'zbekiston tabiatni muhofazalash qo'mitasi qoshida atrofni muhofaza qilish muammolarini chuqur tahlil qilish va ularni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun olimlar, jamoat va davlat arboblaridan iborat jamoatchilik kengashi tashkil elilgan. Davlat qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Atrof muhitning holati va foydalanish ustidan davlat nazorati, shu jumladan, tabiatni muhofazalash me'yorlarini buzuvchi sanoat obektlarini qurish va ishlatishni man etish huquqi berilgan;

2. Vazirliklar va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, tabiatdan foydalanish sohasida yagona ilmiy-texnik siyosat ishlab chiqish va o'tkazish;

3. Ekologik me'yorlar, qoidalar va standartlarni tasdiqlash;

4. Yangi texnika va texnologiya, shuningdek korxonalar qurilish loyihalari va rekonstruktsiyasi bo'yicha davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish;

5. Moddalarni atmosferaga chiqarishga, chiqindilarni yo'qolishiga, suvdan foydalanishga, atmosfera havosini ishlatishga, yerlarni ajratishga, aholini ekologiya bo'yicha tarbiyalashga ruxsatnomalar berish;

6. Tabiatni muhofazalash bo'yicha xalqaro hamkorlikni rejalashtirish va amalgalashish.

Tabiatni muhofaza qilish qonunini buzganlik uchun quyidagi choralarini qo'llash ko'zda tutilgan:

- mahmuriy - ogohlaniirish, jarima solish, yetkazilgan ziyonni bartaraf etish, ma'lum bir turdag'i faoliyat bilan shug'ullanishdan maxrum etish;

- jinoiy javobgarlik - O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan tartibga solinadi (1.4.8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish). Tabiatni muhofazalash qonunini buzganlik uchun javobgarlik tabiatni muhofaza qilish qonunini buzish oqibatlari va tabiiy muhitga zarar yetkazishdan iborat bo'lib, aybdorlarga nisbatan majburiy choralar ko'rildi.

Nazorat savollari:

1. Atrof – muhit ifloslanishini manbalarini ko'rsating.
2. Atrof – muhit muhofazasining qonunchiligi O'zbekistonda qanday shakllangan?
3. Hududlarimizdagi qanday ekologik muammolarni bilasiz?

O'ZBEKISTON, MARKAZIY OSIYO MINTAQASI VA XALQARO MIQYOSDA YUZAGA KELAYOTGAN EKOLOGIK TAHDIDLAR

1. Tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida ekologik as'ektlar

Ekologiyaga solinayotgan xavf O'zbekiston uchun, umuman butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun naqadar yuqori ekanligini hisobga olgan holda hukumat va davlat atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish masalalariga juda katta e'tibor bermoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining tabiatini muhofaza qilish borasidagi milliy tadbirlar boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan keng va har tomonlama hamkorlik qilish ishi bilan qo'shib olib borilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishning turli jihatlarini tartibga soluvchi ko'plab xilma-xil xalqaro shartnomalar va bitimlar tuzildi.

O'zbekiston MDH davlat boshliqlarining 1992 yil 8 fevralda imzolagan bitimiga muvofiq Kengashning to'la huquqli ahzosidir. MDH davlatlarining ana shu ekologiya Kengashi doirasidagi hamkorligi ahzo davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida kelishib olingan, muvofiqlashtirilgan harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydi.

Hozirgi paytda Respublikada istiqbolga, yani atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish bo'yicha 2005 yilgacha mo'ljallangan Davlat dasturi ishlab chiqilgan. Tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi butun faoliyati ana shu dastur asosida tashkil etilgan. Dasturda Respublika ekologik vaziyatini sog'lomlashtirish, yirik shaharlarda ekologik keskinlikka barham berish yo'llari belgilangan.

Ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish. Qishloq o'rmon va boshqa xo'jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish. Havo va suv muhitini insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslantirilishini to'xtatish. Qishloq xo'jalik ekinlarini, eng avvalo, g'o'zani sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Kollektor zovur suvlarini daryolar va suv omborlariga tashlashni tartibga solish va oqava suvlarni chiqarib yuborishni batamom to'xtatish zarur.

Sanoat korxonalarida atmosferaga, suv havzalariga va tu'roqqa ifloslantiruvchi hamda zararli moddalarni tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqdan keng foydalangan holda mashhulyatni oshirish darkor. Ularda zamonaviy, samarali tozalash qurilmalari tizimini joriy etish kerak. Boshlang'ich xom-ashyodan tayyor, 'irovard mahsulot olgunga qadar kom'eks foydalanishga imkon beradigan yangi, zamonaviy, ekologik jihatdan samarali uskunalarini o'rnatish lozim.

2. Qayta tiklanadigan zahiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta'minlangan hamda qayta tiklanmaydigan zahiralarni qathiy mezon asosida ishtemol qilgan holda tabiiy zahiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish darkor.

Respublikaning foydali qazilmalaridan oqilona foydalanish - dolzarb masala. U atrof-muhitni muhofaza qilishning bosh omilaridan biridir. Foydali qazilmalarni olish va qayta ishlash chog'ida katta isrofgarchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Boshlang'ich xom ashyodan to'liq foydalanmaslik hollari mavjud, eskirgan uskunalarini almashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ayrim tsexlар, uchastkalar va butun boshli zavodlarni rekonstruktsiyalash asosida foydali qazilmalarni sanoat usulida yanada to'liq va oqilona qazib olish muhim vazifa bo'lib turibdi. Atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan qaraganda, tog'h-kon sanoatining chiqindilarini o'zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan yerlarni qayta yaroqli holga keltirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

3. Katta hududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zahiralardan samarali va kom'leks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadga qaratilgan, ilmiy asoslangan tarzda o'zgartirish (daryolar oqimini tartibga solish hamda suvlarni bir havzadan ikkinchisiga tashlash, yerning namini qochirish, suv chiqarish tadbirlarini va boshqalarni amalga oshirish) lozim.

4. Jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish kerak.

5. SHaharsozlik va tumanlarni rejorashtirishning ilmiy asoslangan, hozirgi zamon urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimini joriy etish yo'li bilan shaharlarda va boshqa aholi punktlarida aholining yashashi uchun qulay sharoit yaratish zarur.

6. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda Jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning muammolariga qaratish lozim. Orol muammosi bugungi kunda chinakam keng ko'lamli, butun sayyoramizga daxldor muammo bo'lib qolganligining ta'siri hozirning o'zidayoq biologik muvozanatni buzayotganligini, ben'yon shaharlarda aholining genofondiga halokatli ta'sir ko'rsatayotganligini nazarda tutish lozim.

Xalqaro tuzilmalarning zahiralari, imkoniyatlari va investitsiyalarini ana shu muammolarni xal qilishga jalgan etish -birinchi darajali vazifalardir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi yuqorida tilga olingan ta'sirchan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish yaqin vaqt ichidayoq oldingi tizimlardan yosh Respublikaga meros bo'lib qolgan ekologiya sohasidagi ko'pgina illatlar, kamchiliklar va xatolarni bartaraf etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shuningdek, keng ko'lamdagagi ekologik tanglik tahdidini barham toptirish, Respublika aholisi uchun, jismonan sog'lom yosh avlodning dunyoga kelishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar hamda ekologiya jihatidan musaffo hayotiy muhit yaratish imkonini beradi.

2. Mintaqamizdagi va Respublikamizdagi ekologik muammolarning tahlili

I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida chuqur tahlil qilib

o'tgan. Yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog'liq xavf to'xtovsiz ortib bormoqda. Markaziy Osiyo sharoiti Olloh taoloning beba ho inhomidir. U tom ma'noda odamlarni boqadi, kiyintiradi. Bevosita dehqonchilik bilan bog'langan oilalardagina emas, balki ma'lum bir tarzda qishloq xo'jaligi bilan aloqador barcha tarmoqlar va uning nehmatalaridan baxramand bo'layotgan farovon turmush kechirishi uchun moddiy negiz yaratadi. Ayni vaqtda yer ulkan boylik bo'libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir. Bu hol O'zbekistonda ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmokda, chunki yerning iqtisodiy va demografik vazifasi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Ayni chog'da O'zbekistonni egallab turgan maydonining ancha qismini Qoraqum, Qizilqum, Ustyurt kabi cho'l va yarim cho'l yerlar tashkil etadi. Ayniqsa, qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanilayotgan yer maydonlariga to'g'ri keladigan demografik yuk hozirning o'zidayoq salmoqli. Barcha aholining yarmidan ko'prog'i qishloq joylarida yashayotganligini hisobga olsak, dadil aytish mumkinki, bizning qishloqlarimizda insoniy zahiralarning nisbiy ortiqligi emas, balki mutloq ortiqligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bizda aholining o'sishi nisbatan yuqori bo'lib, urbanizatsiya va hosildor yerlarni shaharlarning rivojlanishiga, uy-joy qurilishi, yangi korxonalar, muhandislik hamda transport kommunikatsiyalari tarmog'ini bar'o etishga ajratib berish jarayonlari jadal bormoqda. SHuni hisobga olsak, yaqin yillar ichida, hatto XXI – asrda yer zahiralari bilan ta'minlanish muammosi yanada keskinlashishi mumkin.

Yerlarning tabiiy ravishda cho'lga aylanishi yuqori darajada borayotganligi etmaganidek, odamlarning munosabati tufayli cho'lga aylanib borish jarayoni shiddat bilan davom etayotganligi bu muammoni yanada kuchaytirmoqda. Ayni chog'da tabiiy muhitning yomonlashuvi bilan birga, tu'roq nurashi, sho'rланishi, yerosti va yerusti suvlarining sathi pasayishi va boshqa hodisalar ro'y bermoqda.

Yerlarning nihoyat darajada sho'ranganligi O'zbekiston uchun ulkan ekologik muammodir. Yerlarni ommaviy suratda o'zlashtirish, hatto sho'rangan va melioratsiyaga yaroqsiz yirik-yirik, yaxlit maydonlarni ishga solinishi ana shunga olib keldi. So'nggi 50 yil mobaynida sug'oriladigan yer maydoni 2,46 mln. hektardan 4,28 mln hektarga etgan. Faqat 1975-1985 yillar mobaynida 1 mln. hektarga yaqin yer maydonlari o'zlashtirilgan. 1990 yilga kelib sug'oriladigan yer maydoni 1985 yilda qaraganda 1,5 barobar ko'paygan.

Ekin maydonlari tarkibida so'nggi vaqtarga (1990 yilga) qadar paxta deyarli 75% maydonni egallagan edi. Dunyoning birorta ham mamlakatida paxta mono'oliysi deyarli bu qadar yuqori darajaga ko'tarilmagandi. Bu hol yerning kuchsizlanishiga, tu'roq unumdarligi pasayishiga, uning suv-fizikaviy xossalari yomonlashuviga, tu'roqning buzilishi va nurlanish jarayonlari ortishiga olib keladi.

O'zbekistonda noorganik mineral o'g'itlar, gerbitsidlar va pestitsidlar qo'llanishi eng yuqori me'yordan ham o'nlab barobar ortiq edi. Ular tu'roqni, daryo, ko'l, yer osti va ichimlik suvlarni ifoslantirdi. Bundan tashqari, yangi yerlardan foydalanishda zarur texnologiyalarga rioya qilinmadi. Hamma joyda

paxta nazoratsiz sug'orildi. Tu'roqning nami ko'payib ketdi. Bu esa uning qayta sho'rланishiga olib keldi.

Tu'roqning har xil sanoat chiqindilari va maishiy chiqindilar bilan shiddatli ifloslanishi real taxdid tug'dirmoqda. Turli kimyoviy vositalar, zararli moddalar va mineral o'g'itlar, sanoat va qurilish materiallarini saqlash, tashish va ulardan foydalanish qoidalarining qo''ol ravishda buzilishi yerning ifloslanishiga olib kelmoqda. Undan samarali foydalanish imkoniyatlari cheklanmoqda.

Foydali qazilmalarni jadal qazib olish, ko'pincha ularni qayta ishlashning texnologik sxemalari nomukammalligi ko'p miqdorda ag'darmalar, kul, shlak va boshqa moddalar to'planib qolishiga olib kelmoqda. Bular dehqonchilik uchun yaroqli bo'lган yerlarni egallabgina qolmay, balki tu'roqni, yer osti va yer usti suvlarini, atmosfera havosini ifoslantirish manbalariga ham aylanmoqda. Respublika zararli chiqindilardan foydalanish sanoati esa hozircha yaratilgan emas.

O'zbekiston hududida qattiq maishiy chiqindilar tashlanadigan 230 dan ortiq shahar va qishloq axlatxonalar mavjud. Ularga taxminan 30 mln. m³ axlat to'planadi. Ular asosan stixiyali ravishda, jo'g'rofiy, geologik-gidrogeologik va boshqa shart-sharoitlarni kom'leks o'rganmay turib tashkil etilgan. Ularga qattiq maishiy chiqindilarni zararsizlantirish va ko'mib tashlash ibtidoiy usullar bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, respublikaning yirik shaharlarida maishiy chiqindilarni ishlatish va zararsizlantirish sohasida murakkab vaziyat vujudga kelgan. Respublikada hali-hanuz maishiy chiqindilarni sanoat usulida qayta ishlash masalasi xal qilinmagan. Yagona Toshkent maishiy chiqindilar tajriba zavodi 1991 yilda qayta ishlay boshladi.

Radioaktiv ifloslanish, ayniqsa katta xavf tug'dirmoqda. Maylisoy suv (Qirg'iziston) omborining qirqoqlari yoqasida 1944 yildan boshlab to 1964 yilgacha uran rudasini qayta ishlash chiqindilari ko'milgan. Hozirgi vaqtida qoldiqlar saqlanadigan 23 ta joy mavjud. Bu yerlarda selni to'sadigan to'g'onlarni mahkamlash hamda ko'chki xavfi bo'lган joylardagi qiyaliklarning mustahkamligini ta'minlash lozim.

Navoiy viloyatidagi saqlanadigan joy ham ekologik jihatdan xavfli ifoslantirish o'chog'i hisoblanadi. Bu yerdagi radioaktiv qumni shamol uchirish xavfi bor.

SHu sababli O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishdagi g'oyat muhim vazifa yerlarning holatini yaxshilashdan, tu'roqning ifloslanishini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyini amalga oshirishdan iborat. Bu o'rinda ga' avvalo tabiiy zahiralardan foydalanishni tubdan yaxshilash haqida bormoqda.

O'zbekistonning ekologik xavfsizligi nuqtayi nazaridan qaraganda, suv zahiralarining, shu jumladan yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda. Respublikaning daryolari, kanallari, suv omborlari va hatto yerosti suvlarini ham har taraflama inson faoliyati ta'siriga uchramoqda.

Sug'oriladigan hududlarda suv tabiatning bebahosini inhomidir. Butun hayot suv bilan bog'liq. Zotan, suv tamom bo'lган joyda hayot ham tugaydi. SHunday bo'lsada, Markaziy Osiyo suv zahiralari juda cheklangan. Yiliga 78 km³ suv keltiradigan Amudaryo va 36 km³ suv keltiradigan Sirdaryo asosiy suv manbaalaridir. Hozirgi

vaqtida xalq xo'jaligida Orol dengizi havzasining barcha suv zahiralaridan to'lato'kis foydalani moqda.

Suv zahiralarining sifati eng muhim muammolardan biridir. 60-yillardan boshlab Markaziy Osiyoda yangi yerlar keng ko'lamda o'zlashtirildi. Sanoat, chorvachilik kom'lekslari ekstensiv rivojlantirildi. Urbanizatsiya kuchaydi. Kollektor zovur tizimlari qurildi hamda daryo suvlari sug'orish uchun mutlassil yuqori hajmlarda olindi. SHu bois havzalardagi suvning sifati tobora yomonlasha bordi.

Daryo suvlarining ifloslanishi ekologiya-gigiyena va sanitariya-epidemioliyiya vaziyatini, ayniqsa, daryolarning quyi oqimlarida yomonlashtirmoqda. Ikkinchi tomondan, daryo suvleri tarkibida tuzlarning mavjudligi, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va boshqa daryolarning deltalarida tu'roqning sho'rلانishini kuchaytirmoqda. Bu esa qo'shimcha melioratsiya ishlarini amalga oshirishda, zovur tizimlarini bar'o etish va tu'roq, sho'rini yuvishda yaqqol sezilmoqda.

O'zbekiston va qo'shni mintaqalar sharoitida aholini sifatlari ichimlik suvi bilan ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aholi punktlarini odatdag'i vodo'rovod suvi bilan ta'minlash ko'rsatkichi respublikada faqat keyingi besh yillikning o'zida taxminan 1,5 barobar ortdi. SHunga qaramay, ushbu muammo dolzarbligicha qolmoqda. Ichimlik suv ta'minoti manbaalarining ifloslanishi Respublikada, Orol bo'yicha kasallikka chalinishning yuqori darajasiga sabab bo'lmoqda.

Orol dengizining qurib borish xavfi g'oyat keskin muammo, aytish mumkinki, milliy kulfat bo'lib qoldi. Orol dengizi muammosi uzoq, o'tmishta borib taqaladi. Lekin bu muammo so'nggi o'n yilliklar mobaynida xavfli darajada ortdi. Markaziy Osiyoning butun hududi bo'ylab sug'orish tizimlarini jadal surhatda qurish ko'plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko'lamdag'i fofja - Orol halok bo'lishining sababiga ham aylandi.

Yaqin-yaqinlargacha cho'lu-saxrolardan tortib olingan va sug'orilgan yerlar haqida dabdaba bilan so'zlanardi. Ayni chog'da ana shu suv Oroldan tortib olinganligi, uni «jonsizlantirib qo'yilganligi» xayolga kelmasdi, endilikda Orol bo'yи ekologik kulfat hududiga aylandi.

Orol tangligi insoniyat tarihida eng yirik ekologik va gumanitar fojalardan biridir. Dengiz havzasida yashaydigan qariyb 35 mln. kishi uning ta'sirida qoldi. Biz 20-25 yil mobaynida Jahondagi eng yirik yo'iq suv havzalaridan birining yo'qolib borishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Biroq, bir avlodning ko'z o'ngida butun bir dengiz halok bo'lgan hol hali ro'y bergen emas edi. 1911-1962 yillarda Orol dengizining sathi eng yuqori nuqtada bo'lib, 53,4 m ni, suvning hajmi 1064 km³ ni, suvning yuzasi 66 ming km² ni va minerallashuv darjasini bir litr suvda 10-11 grammni tashkil etgan edi. Dengiz transport, baliq xo'jaligi, iqlim sharoiti jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Unga Sirdaryo va Amudaryodan har yili deyarli 56 km³ suv kelib quyilar edi.

1994 yilga kelib Orol dengizidagi suvning sathi 32,5 metrga, suv hajmi 400 km³ dan kamroqga, suv yuzasining maydoni esa 32,5 km² ga tushib qoldi, suvning minerallashuvi ikki baravar ortdi.

Orolning sathi 20 metr pasayishi natijasida u endi yaxlit dengiz emas, balki ikkita qoldiq ko'lga aylanib qoldi. Uning sohillari 60-80 km ga chekindi. Amudaryo bilan Sirdaryoning deltalari jadal surhatlar bilan buzilib bormoqda. Dengizning suv qochgan tubi 4 mln. gektardan ortiqroq maydonda ko'rinish qoldi. Natijada yana bitta «qo'lbola» qumli-sho'rroq sahroga ega bo'ldiq. SHamol Orol dengizining qurib qolgan tubidan tuz va chang-tuzonni yuzlab km larga uchirib ketmoqda.

Orol dengizining qurib borishi va shu jarayon tufayli orol bo'yи mintaqasidagi tabiiy muhitning buzilishi ekologik fofija sifatida baholanmoqda. CHang va tuz bo'ronlarining paydo bo'lishi, faqat Orol bo'yida emas, balki dengizdan ancha naridagi be'yon hududlarda yerlarning cho'lga aylanishi, iqlim landshaftning o'zgarishi bular ana shu fofija oqibatlarining to'liq bo'limgan ro'yxatidir.

Orol bo'yida dengizning qurib borishi munosabati bilan xalqaro, keng ko'lamli ahamiyatga molik bo'lgan ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarning murakkab majmui vujudga keldi.

Orol dengizining qurib borishi va mintaqaning cho'lga aylanishi bilan bog'liq ekologik fofija bu havzada yashayotgan barcha xalqlarning dard alamidir.

Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining 1993 yil mart oyida qizil o'rdada bo'lib o'tgan uchrushuvi ana shu muammolarni xal qilish yo'lidagi turtki bo'ldi. Bu uchrashuvda Orol dengizi tangligini xal etish yuzasidan birgalikda harakat qilish to'g'risida bitim imzolandi. Orol dengizi muammolari bo'yicha Davlatlararo Kengash va uning ishchi organi - Ijroiya qo'mitasi, shuningdek, Orolni qutqarish xalqaro fondi tashkil etildi. Markaziy Osiyo Respublikalari davlat boshliqlarining 1994 yil yanvarida Nukus shahrida bo'lib o'tgan ikkinchi uchrashuvida Orol dengizi havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin uch-besh yilga mo'ljallangan, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aniq harakatlar dasturi tasdiqlandi. 1994 yil mart oyida Toshxovuzda bo'lgan uchinchi uchrashuvda Davlatlararo Kengashning ushbu dasturining bajarilishi haqidagi hisoboti tinglandi.

Orol muammosining butun keskinligini uni saqlab qolish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rish zarurligini tushungan holda, Markaziy Osiyo va mintaqaning ilmiy jamoatchiligi, xalqaro tashkilotlari 1995 yil 20 sentabrda Nukus shahrida Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarining Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish muammosi bo'yicha Deklaratsiyasini qabul qildilar. Deklaratsiya barqaror rivojlanish qoidalariga qathiy amal qilishni nazarda tutadi va e'tiborni quyidagi g'oyat muhim muammolarni hal qilishga qaratadi:

-qishloq va o'rmon xo'jaligining yanada muvozanatli va ilmiy asoslangan tizimiga o'tish;

-suv zahiralaridan foydalanishning tejamli usullarini ishlab chiqish, sug'orishda va atrof-muhitni muhofaza qilishda takomillashgan texnologiyalarni qo'llash vositasida irrigatsiyaning samaradorligini oshirish;

-mintaqaning tabiiy zahiralarini boshqarish tizimini takomillashtirish.

'irovard natijada Orol tangligi barqaror rivojlanish, bu mintaqada yashayotgan odamlarning turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, kelajakda yosh avlod uchun munosib turmushni ta'minlash tamoyillari asosida hal

qilish bo'yicha uzoq muddatli strategiya va dasturni ishlab chiqish hamda ro'yobga chiqarish zarur.

Havo bo'shlig'ining ifloslanishi ham Respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdiddir.

Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, har yili Respublikaning atmosfera havosiga 4 mln. tonnaga yaqin zararli moddalar qo'shilmoqda. SHularning yarmi uglerod oksidiga, 15 foizi uglevodorod chiqindilari, 14 foizi oltingugurt qo'sh oksidi, 9 foizi azot oksidi, 8 foizi qattiq moddalar va 4 foiziga yaqini o'ziga xos o'tkir zaharli moddalarga to'g'ri keladi.

Atmosferada uglerod yig'indisining ko'payib borishi natijasida o'ziga xos keng ko'lamdag'i issiqxona effekti vujudga keladi. Oqibatda yer havosining o'rtacha harorati ortib ketadi.

Arid mintaqasida joylashgan O'zbekiston Respublikasida tez-tez chang bo'ronlarini qo'zg'atib turuvchi, atmosferani chang-to'zonga bulg'atuvchi Qoraqum va Qizilqum sahrolaridek yirik tabiiy manbaalar mavjud. So'ngi o'n yilliklar mobaynida Orol dengizining qurib borishi tufayli chang va tuz ko'chadigan yana bir tabiiy manba paydo bo'ldi.

80-yillarning boshlarida qo'shni Tojikiston alyuminiy zavodi ishga tushirilishi munosabati bilan O'zbekistonning Surxondaryo viloyatiga qarashli ko'plab tumanlarida ekologik jihatdan tang ahvol vujudga keldi. Zavod atmosferaga ko'p miqdorda ftorli vodorod, uglerod oksidi, oltingugurt gazi, azot oksidlari chiqarib tashlamoqda. Vodiyning yuqori qismida, Tojikistonning O'zbekiston bilan chegarasida joylashgan zavodning chiqindilari tog'hidan vodiy tomonga esadigan shamol bilan undan uzoqlarga, asosan Respublikaning chegaradosh tumanlari - Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy tumanlari hududiga tarqalmoqda.

Nazorat savollari:

1. Tabiat va jamiyat munosabatlarining qanday ekologik as'ektlarini bilasiz?
2. prezidentimiz o'zini turli asarlarida ekologik muammolar haqida qanday fikrlarni bildirgan?
3. Mintaqamizdag'i qanday ekologik muammolarni bilasiz?
4. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha Respublikamizda qanday ishlar bajarilmoqda?

EPIDEMIOLOGIK FAVQULODDA VAZIYATLAR

1. Epidemiologik kasalliklar turlari

E'idiyaga quyidagi kasalliklar sabab bo'ladi: o'lat, vabo, sargayma isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chikargan alohida havfli infektsiyalar, odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar-e'idemik toshmali terlama, brilg' kasalligi, zoonoz infektsiyalar - sibir yarasi, quturish, virusli infektsiyalar-S'ID, e'idemiya-alohida havfli infektsiyalarga tegishli bulmagan,

Yuqumli kasalliklar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar. Kasallik tug'diruvchi mikroblar (bakteriyalar, viruslar rikketsiyalar, zamburug'lar), ular

ajratadigan zaharlar toksinlar va ularni qo'llash vositalari (bombalar, raketalar) bakteriologik qurol deb ataladi. Dushman bu quroldan odamlarni chorva mollarni va o'simliklarni yuqumli kasalliklar bilan kasallantirish uchun foydalanadi. Mikroblar faqat mikrosko'da ko'rindigan, bu hujayra juda mayday organizmlardir. Ular odam organizimiga ko'rsatadigan ta'siriga qarab juda mayday organizmlardir. Ular odam organizimiga ko'rsatadigan ta'siriga qarab bir necha xil bo'ladi. Organizimda yashab unga hech qanday zarar keltirmaydigan mikroblarsa ofit mikroblar deyiladi, jumladan odam tanasidagi normal mikroblar vakillari bo'lgan ichak tayoqchasi, 'rotey, enterokokk, stafiakokklar shu guru''aga mansub organizimning mikroblar shartli 'athogen mikroblar deb ataladi. Odam organizimiga tushib unda ko'payadigan va ma'lum darajada organizimga zarar yetkazadigan ya'ni yuqumli kasalliklar keltirib chiqaradigan mikroblar patogen yoki kasallik qo'zg'atuvchi mikroblar deyiladi.

Mikroblar juda mayday mavjudod bo'lgani tufayli ular millimikron bilan o'lchanadi. Mikroblar tuzilishiga sgakliga va biologic xossalariiga ko'ra qo'yidagi guruhlarga: bakteriyalar, viruslar, 'ikketsiyalar zamburug'lar oddiy mikroblarga bo'linadi.

Bakteriyalar-bir hujayrali organizimlar bo'lib, asosan bo'linish yo'li bilan ko'payadi. Tashqi ko'rinishga qarab 3 ga bo'linadi:

1. SHarsimon bakteriyalar-kokklar. Ular o'z navbatida hujayralarning bir-biriga nisbatan joylashishiga qarab mikrokokklar stre'tokokklar. Stafilakokklar va boshqalar.

2. Tayoqchalar. Ich terlama va dizenteriya tayoqchalari odatda s'ora hosil qiluvchi tayoqchalar basillalar, s'ora hosil qilmaydiganlari bakteriya deb ataladi.

3. Qotirilgan va s'iraismon buralgan bakteriyalar. O'z nomiga yarasha va gru''aga mansub bakteriyalar s'iral shaklida bo'ladi.

Bakteriyalar turli kattalikda bo'ladi. Stafilokokk va ste'tokokklarning diometrik, odatda 0,75 dan 1,25 mk gacha bo'ladi. Bakteriyalarning shakli va yirik maydaligi ularning yosh, o'sayotgan muhitning tarkibiga, temperatura va boshqalariga bog'liq. Bakteriyalarning hujayrasi qobiq parda, sito'lazma, yadro xivchinlar yordamida harakat qilinadi. Xivchinlar soni 1 tadan 20-30, hatto 100 ta gacha bo'ladi. Qobig'I butunlay yoki qisman yo'qotgan mikroblar L-simon bakteriyalar deb ataladi. Juda mayday bo'lgan, lekin sun'iy oziq muhitida o'sishi bilan viruslardan farq qiladigan mikroblar miko'lazmalar deb ataladi.

Bakteriyalardan zaharlanish o'chog' deganda odamlarda kasallik keltirib chiqadigan bakteriyal ae'ozollar bilan zaharlanish territoriyasi tushuniladi. Bu joyda qolgan odamlarning hammasi kasal bo'lgan-bo'lmanligidan qathiy nazar zaharlangan hisoblanadi. O'choq chegaralarini dastlab kuzatish postlari va tibbiy xizmati aerozollar o'choq chegaralarini dastlabki bakteriyali bombalar, raketalar, snariyadlarning portlashiga qarab aniqlaydi, bakteriyalardan zaharlanish o'chog'i hosil bo'lgan taqdirda tezda uni yuqotish tadbirlari ko'rildi. Agar eng xavfli yuqumli kasalliklar tarqatuvchi yuqumli kasalliklar mikroblari bo'lsa observatsiya ehlon qilinadi. Bundan o'choqga kirish chiqish va buyumlarni olib chiqish kamaytiriladi. Faqat dizenfeksiyadan keyingi epidemiolog ruxsati bilan ish ko'rildi.

Bakteriologik kuzatuv va bakteriologik vositalarni zararsizlantirish.

Bakteriologik kuzatuv, kuzatuv postlari va fuqaro muhofazasi nibbiy xizmati tomonidan o'tkazilgan. Bakteriologik quollar portlaganda, odatdagи quollar portlaganda sekin ovoz chiqadi. Dushman bakteriologik vositalarni ishlatganligi va zaharlanish chegaralari hujum vaqtidagi ba'zi bir belgilarga qarab aniqlanadi. Bu belgilar quyidagilardan iborat; havo bug', tuman va changdan iborat yengil bulut hosil bolhdi, uchub o'tayotgan samaliyat, vertaliyat va raketa orasida asta-sekin chiqib tarqaluvchi qora yo'l hosil bo'ladi, quollar portlagan joylarda zaharlovchi moddalar va radiaktiv modda bo'lganligi (kimyoviy kuzatuv va dozimetrik asboblar ko'rsatishga binoan) juda ko'p miqdorda hashoratlar, kanalar va kemiruvchilar to'planishi bakteriologik vositalar ishlatilganligidan dalolat beradi. Dushman ishlatgan kasal qo'zg'atuvchi mekroblarning turini zararsizlantirish uchun tashqi muhit obe'ktrtlaridan namuna olinadi. Havo bakteriya tutuvchi asbob yordamida yig'iladi. Tu'roq o'simliklari, suv va oziq-ovqatdan 'olietilen xaltachalarga namuna olinib, og'zi mahkam berkitiladi. Tashqi tomondan dezenfeksiya qilinadi. Sanitariya-epidemologiya nazorati xizmatining bakteriologik labarotoriyalarida bakteriologik vositalar aniq tekshiriladi, ya'ni mikrosko'ik va serologik tekshirishlar va oziq muhitlariga ekish va hayvonlarda tekshirib ko'rish natijasida dushman qaysi mekrobni ishlatganligi aniqlanadi.

Mikroblar hayot faoliyati jarayonida juda kuchli zahar-toksin ajratadi. Botulizm tayoqchasi ayniqsa zaharli hisoblanadi. Mekrob faoliyati tufayli atrofdagi muhitga ajraladigan toksinlar ekzotoksin deb ataladi. Formalin yoki issiqlik ta'sirida zararsizlantirilgan toksinlar anatoksin deb ataladi. Ular ba'zi kasalliklar uchun (ko'khol, bo'g'ma, botulizm) ni oldini olishda emlash uchun ishlatiladi. Mikroblar oddiy bo'linish yo'li bilan har 10-30 minutda ko'payadi. Suvda va oziq-ovqat moddalarida turg'un bo'lib, havoda quyosh nurlari ta'sirida tezda nobud bo'ladi.

Bakteriofag. Ba'zi hayot faoliyati jarayonida ularning o'zini eritib yuboriladigan maxsus agent paydo bo'ladi. U bakteriofag yoki bakteriyalarni yashovchi deb ataladi. Bakteriofag tuzilishi va tabiatiga ko'ra virus hisoblanadi. Ba'zi yuqumli kasalliklar profilaktikasida qo'llaniladi. Viruslar organizimga tushganda ular ta'sirida organizim hujayralarida paydo bo'ladgan va virusning ko'payishiga to'sqinlik qiladigan modda interferon deb ataladi. Hozirgi vaqtida interferon ba'zi virus kasalliklari profilaktikasida va davolashda ishlatiladi.

Bakteriyali vositalarni ishlatish usullari.

Bakteriyali vositalar (BV), ya'ni harxil mikrob reseoturalari suyuq yoki quritilgan juda mayday 'aroshok bo'lib, ularni havoda va joylarda 'urkash mumkin. Bunda havoda muallaq tarqalgan juda mayday zarrachalardan iborat aerozolli bulut hosil bo'ladi. Bakteriyali vositalarni muljalga yetkazish uchun bombalar, snaryadlar, portlovchi raketalar, am'ulalar, 'aketlar, qo'lar, qutilar har xil masofagacha uchib bora oladigan raketalat xilma-xil tukish aviyatsiya asboblari, samaliyat, vertaliyotlarga joylashtirilgan bakteriyali aerozollar solingan generatorlar va boshqalar ishlatiladi. Bakteriyali vositali shamollashning tezligiga qarab bir necha 10 km masofaga tarqalishi mumkin. Bundan tashqari, ular hashoratlar, kanalar va kemiruvchilar yordamida ham tarqaladi.

Bakteriyali vositalarning zararli ta'siri juda xavflidir, chunki aholi o'rtasida chuma vabo, chin chechak, sariq isitmaga o'xhash o'ta xavfli kasalliklar tarqalishi mumkin.

Bakteriyali vositalar o'ziga xos hususiyati bakteriyali aerozollarning katta teritoriyalarga tarqala olishi, xonalar va yashirin joylarga havo bilan kira olishi, juda kam mikrob dozalari kasallik to'g'dira olishdan iborat, bundan tashqari ko'p mikroblar juda beqaror bo'lib, uzoq vaqtgacha yuqumli kasalliklar tarqalishi manbaibo'lishi mumkin. Bakteriyali vositalarni tashqi muhitda 'ayqab bo'lmasligi ham xavf to'g'diradi. Ularni laboratoriya va maxsus asboblar yordamida aniqlab olish mumkin. Mikroblar organizimga tushganda keyingina kasalik belgilari namoyon bo'ladi. Yuqumli kasalliklar kasal odamdan sog'lom odamlarga o'tishi natijasida kasallik ko'p joyga tarqalib e'idemiya paydo bo'ladi.

Rikketsiyalar-shakli va kattaligi bilan bakteriyalargga yaqin tursa ham, organizmdagi muayyan hujayralar ichida yashashi va ko'payishi bilan ulardan farq qiladi. Hozirgi vaqtda rikketsiyalarning 32 tadan ortiq turi ma'lum bo'lib, ulardan 11 tasi 'othogin hisoblanadi, toshma, terlama, kulixoradkasi, qoya tog'h- toshlar lixoradkasi keltirib chiqaradigan rikketsiyalar ma'lum. Bu mikroblar kuzatadigan kassaliklar rikketsioz deb ataladi.

